O`zbekiston Respublikasi Oliy va o`rta maxsus ta`lim vazirligi

Buxoro davlat universiteti

Tarixkafedrasi

Qadimgi dunyo tarixi fanidan

# МАЪРУЗА МАТНИ

Buxoro Davlat universiteti bakalavriat

Tarix ta`lim yo`nalishi talabalari uchun

**Buxoro – 2016**

**Mavzu №1**

**Kadimgi dunyo tarixiga kirish. Kadimgi Misr.**

Tayanch atamalar.Antik dunyo, Tavrot, Gerodot, Beros, Grotefend, Bexistun, Nineviya, Suza, Vinkler, Kramer, Stredve, Mixxat.

**1. Qadimgi Misrning geografik o`rni va tabiati.** Misr Sharqdagi eng qadimgi davlatlardan biri bo`lib, u Afrika qifasining shimoli-sharqiy chekkasida joylashgan mamlakatdir. **Nil** dunyodagi eng katta daryo, uzunligi 6000 kilometrdan ortiqdir. U Markaziy Af-rikaning katta ko`llaridan oqib chiqadigan **Oq** va **Ko`k Nil** da-ryolarining qo`shilishidan hosil bo`ladi. **Daryo** to`rt sharshara-ostonalardan o`tgan 700 kilometr masofada vohadan oqib o`tadi va bir necha tarmoqlarga bo`linib o`rtayer dengiziga quyOadi. Toshqin paytida Nil ko`pdan-ko`p o`simliklarni va turli tog1 jinslarini oqizib keladi. Oqib kelgan tog` jinsfaridan daryo qip-qizil tusga kiradi.

Toshqin tugagach, o`simlik chirindilari, tuproq va tog` jinslaridan hosil bo`lgan zarralar suv bosgan joylarda cho`kib, qoramtir quyqumlar qoldiradi. Quyqumlar qurib serhosii qora tuproqli yer hosil qiladi.

Shuning uchun misrliklar Nil vohasini ***„Qora yer",***Yimonlar esa,,Yegipet" deyishgan.

Misrning g`arb tomonida Liviya yassitog`ligi, sharq tomonida Arab qirlari joylashgan. Mamlakat janubi Nubiya tog`lari bilan o`ralgan. Misrning shimoliy chegaralari o`rtayer dengiziga borib tutashadi.

Misr issiq mamlakat, u yerda yomg`irgarchilik kam bo`ladi. Nii sohillarida xilma-xil o`simlLk va yowoyi mevalar, xususan *lotos, papirus* va *qamishlar* q'sib yotadi. Misr qadimdan hayvonot dunyosiga boy. Nil sohillarida *sher, qoplon, buyvol, yowoyi buqa, jirafa, antilopa, timsoh va gippopatam* kabi katta-kichikhayvonlar yashagan. Daryoda baliq, suv hayvonlari. to`qayzorlarda esa har turli qushlar ko`p bo`lgan. Yowoyi hayvon va o`simliklar qadim zamondan boshlab ibtidoiy kishilarning ozuqa va ov manbai bo:lgan. Misrda mis, oitin kabi ma'danlar va har xil toshlar ko`p bo`lgan.

**2. Qadimgi Misraing aholisi**. Misrning qulay geografik o`rni va boy tabiiy sharoiti qadim zamondan boshlab kishilarni o`ziga jalb qilib kelgan. Ibtidoiy odamlar Nil vohasiga qadirn zamonlardayoq kirib kelishgan. Mashhur arxeolog D. D. Klarkning malumotlariga ko`ra Misrda ibtidoiy odamlar 80—90 ming yildan beri yashab kelar ekanlar. Ammo daryo toshqini odamlarni bu yerda doimo yashashlariga xalal beigan. Arxeolog olimlar Fayum vohasidan bundan 25—30 ming yitlar ilgari yashagan odarnlarning man-zilgohlarini topganlar. Bu yerdan topilgan ashyolar shu davr odamlari yog`och, qamish, lotos va papiruslardan chaylalar qurib yashaganlaridan, tosh, yog`och va suyaklardan qurollar yasab ovchiiik va termachilik bilan shug`uilanganliklaridan dalolat beradi.

Miloddan avvalgi VI—V mingyilliklarda Misrda aholi ancha ko`payib, dastlabki qishloqlar paydo boMgan.

Qadimgi misrliklar qorachadan kelgan, xushoqomat bo`lib, kamsoqol bo`lishgan. Misrga janubdan *nubiyaliklar,* Markaziy Afrikadan pakana odamlar — *Hliputlar,* g`arbdan *liviyahklar,* shimoli-sharqdan esa *giksos* kabi qabilalar kelib o`rnashganlar. Keyinchalik esa Nil vohasiga *habashlar, ossitrlar,forslar, yunonlar,*

*makedonlarva rimliklar*ham kirib kelganlar. Ularning ko^pchiligi misrliklar bilan aralashib, ularning madaniyati, tili va urf-odatlarini qabul qilganlar.

**3. Qadimgi misrliklaming mashg`ulotlari**. Qadimgi misriiklar Nil vohasini yangi tosh davrdan boshlab o`zlashtirib, o`troq deh-qonchilikka asos solganlar. Ular oddiy ketmoncha — ***motiga*** bilan yerga ishlov berib *bug`doy, arpa, kunjut, poliz ekinlari* ekib, ulardan nio`I hosil olganlar. Misrliklar bog`dorchilik bilan ham shug`ullangan. Shu tariqa Misrda dehqonchilik ancha erta rivoj topgan.

Misrliklar it, cho`chqa, qo`y-echki va qoramollar parvarish qilganlar. Chorvachilik, hunannandchilik ham ancha erta rivoj topgan. Shu davrlarda ichki va tashqi savdo ham jonlana boshlagan. Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida Misrda xususiy mulk, mulkiy tengsizlik va S-khaqalanisii paydo bo`lgan.

**4. Misrda dastlabki davlatlarning tashkil topishi.** MOoddan avvalgi VI—V mingyilliklarda xo`jalikning rivojlanishi natijasida Misrda ifk davlatlaniing tashkil topishi uchun zaruriy sharoit vujudga keldi. Urug` jamoasi davrida urug` jamoalarini oqsoqollar, sardorlar va harbiy boshJiqlar idora etishgan cdi. Misrda urug` jamoalari o`rnida dastlab qo`shni jamoalar vujudga kelib xo`jalikning rivojianishi natijasida ilk daviatchalar paydo boladi. Yangi vujudga kelgan davlatni sobiq urug` jamoasi oqsoqollari, harbiy boshliqlar, badavlat va nufuzli kishilar Idora qiladilar.

Dastlab Misrda bir necha o`n davlatchalar tashkil topgan. Misr-liklar bu davlatchalarni ,,sepat"; yunonlar esa ,,nom" deb atagan-lar. Nomlar, atrofida qishloqlari, dalalari va maxsus mahalliy xudosi bor shahardan iborat bollgan. Har bir nomning o`z hokimi bo`lib, u yunon tilida ,,nomarx" deyilgan. MaMuraotlarga qaraganda miloddan avvaigi FVraingyiMk boshlarida Misrda 42 ta davlat bo`lgan. Har bir nomning nomarxi dehqonchilik, chorvachilik, hunar-mandchilik, sug`orish inshootlari qurilishiga katta e'tibor bilan qaragan. Nomarxlar oqsoqol, sardor va harbiy boshliqlarga tayamb, jamoat, diniy va harbiy ishlarni boshqarib turganlar. Bu davlatlarda qulchilikning dastlabki kurtakJari ham paydo bo`lgan. Urushlarda asir olingan kishilar qulga aylantirilgan. Shunday qilib davlat ja-miyatning boshqaruv tashkiloti sifatida vujudga kelgan va rivojlana borgan.

**1. Misrda ilk podsholikning tashkil topishi.** Miloddan avvalgi ]V mingyillikning ikkinchi yarmidagi ahvol Misrdagi mayda daviatchalarni birlashtirishni talab etdi. Ko`p jang-u jadallardan keyin Nil daryosining tor vodiysida Yuqori Misr davlati tashkil topadi. Daryo tarmog`ining shimolida joylashgan shaharchalar birlashtirilib Quyi Misrdavlati barpo etildi. Bu davlatlar olz pod-sholariga ega bo`lib, uiar mustaqil ish yuritganlar. Keyinchalik esa Misrda yagona podsholik barpo etish uchun kurash qizg`in tus olgan. Yilnomachilarning ma'iumotiariga ko`ra, Yuqori Misr podshosi Narmer Quyi Misr yerlariga bostirib kirgan. Narmer qo`shinlari Shimoliy Misr podshosi qo`shinlari ustidan g`alaba qozongan. G`aiabadan so`ng u 6000 kishini asirga olib, juda ko`p boylik— o`ljalar bilan qaytgan. Shundan boshlab Misrda yagona davlat tuzish uchun fcurash qizg`in tus olgan.

**2. Misrda yagona davlat tuzish uchun kurash.** Misrni yagona davlat bayrog`i ostida birlashtirisb Yuqori Misr podshosi **Mina** (Menes) davrida araalga

oshirilgan. Miloddan avvalgi 3000- yilda Mina Yuqori va Quyi Misrni birfashtirib yagona davlatga asos solgan. U yagona Misr davlatining dasttabki podshosi bo`lib, birinchi sulolaga asos solgan. Mina Quyi Misr chegarasida ***Memfis*** shahrini bino qildirib, uni mamlakat poytaxtiga aylantirgan. Mina davrida Quyi misrliklar o`z mustaqilliklari uchun bir necha bor qo`zg`olon ko`targanlar. Ammo bu qo`zg`olonlar shafqatsizlik bilan bostirilgan. Mina va uning avlodlaridan so`ng Misrda ikkinchi sulola namoyandalari podsholik qilganlar. Shu 'davrdan boshlab Misr podsholari **fir'avn** deb ataia boshiangan. Bu ikii sulola vakillari idora qilgan davr Misrda ,,Ilk podsholik davriil deb nomlanib miloddan avvalgi 3100—2800 -yiliami o`z ichiga oladi. Yagona Misr davlatining tashkil topishi har jihatdan katta ahamiyatga cga bolgan.

**3. Misr fir'avnJarining istilochilik urushlari.** Ilk podsholik davrida, xususan fir'avn **Jer** da\iida Misr qo`shinlari janubda *Nubiya,* shimoli-sharqda *Sinay* yarim oroliga bir necha marta bostirib ku^aalar. Ular bu mamlakatlardan ko`plab ask va behisob boyliklar olib qaytganlar.

Misr qo`shini qo`mondonlaridan biri bunday hikoya qiladi: *,'Qo`shin qo`shni mamlakatlarni talab, uning bog`lari va uzitm-zorlarini chopib, qishloqlariga o`t qo`yib, o`ng minglab kishilarni o`/dirib, ko`plab odamlarnl asir olib, eson-otnon qaytib keldi. Buning uchun podsho meni benihoya maqtadi".*

**4. Ilk podsholik davrida xo`jalik.** Ilk podsholik davrida fir'avn **Jar** mamlakat xo`jaligining hamma tarmoqlariga katta e'tibor betganlar. Yer ochish va sug`orish inshootlarining qurilishi kuchaytirilishi munosabati bilan dehqonchilik rivoj topgan. Misr dehqonlari omoch bilan yer haydab arpa, bug`doy, zig`ir va boshqa boshoqli ekinlardan yuqori hosil olganlar. Ularda bog`dorchilik rivoj topib, shimolda uzumchilikka, janubda xurmochilikka katta e'tibor berilgan.

Qadimgi misrliklar bu davrda chorvachilikka ham katta e'tibor berganlar.

Ilk podsholik davrida hunarmandchilik, ichki va tashqi savdo ham rivoj topgan. Misrliklar Nubiya, Liviya va o`rtayer dengizining sharqiy sohilidagt mamiakatlar bilan qizg`in savdo-sotiq olib borganlar. Savdo quruqlik va suv yo`li orqali olib boriigan.

**5. Misrda tabaqalanish va qulchilikning kuchayishi.** Misrda xojalik asta-sekinlik bilan rivojlanib borgan. Aholining yuqori tabaqalari fir'avn, amaldor, askarboshi, rulioniy va nufuzli oq^oqollar boyib ketganlar. Dehqonlar, hunarmandfar va mayda savdogarlar aholining o`rtahol tabaqasini tashkil etardi. Mamlakat aholisining anchatuna qismi kambag`al dehqoiilar va qashshoqlardan iborat edi. Misr fir'avnlari urushda asir (ushganlarni qulga aylantirar edilar. Dastlabki vaqtlarda asirlar dushman sifatida olldirib yubo-rilgan. Shuning uchun misrliklar ularni **„murdalar"** deb atashardi. Keyinchalik esa asirga rushgan kishilarni o`ldirmaydigan bo`ldilar. UJar qul qilib sotilar, harbiylar va zodagonlarga btvlib bcrilar^edi. Omon qolgan asirlarni **„tirik murdalar"** deyishardi. Bu ,,tirik murdalar" qullar tabaqasini tashkil etib, ular hech qanday mol-muJkka va huquqqa ega emasdilar. Quldor qul ustidan cheksiz huquqqa ega bo`lib, uni sotish, jazolash, kaltaklash va hatto o`ldirishga ham haqqi bor edi. Qullarning barchasi, kon qazuv ishlarida, kanal, to`g`on, imorat, yol qurish ishlarida ishlatilar va qishloq xo`jaligidagi og`ir ishlarni bajarar edilar. Cho`rilar —

ayol quliar ko`proq uy-xo`jalik yiimushlarida ishlar edilar. Qul egasi quldor deyilgan. Qullar quldoriar ucliun ishlaganlar. Quidorlar qullarga ular ishlay olishlari uchun ovqat berganlar xolos. Quldorlar esa qullar mehnati evaziga rohat-farog`atda yasbaganlar. Shunday qilib Misr dunyodagi dastlabki quldorlik davlati edi.

**1. Qadimgi podsholik davrida Misr.** Hikoya qilganimizdek 1— 2- sulola fifavnlari Misnii birlashtirishga asos solganlar. Qadimgj podsholik davri miloddan avvalgi 2800- yildan 2250- yOgacba davom etib, unda 3—6- sulola fir'avnlari hukmronlik qilganlar. Misr fir'avnlari podsliolikni kcngaytirish, mustahkamlash va markaz-lashtiiish uchun kurash olib borganlar. Misr fir'avnlari boylik orttirish maqsadida qo`shni mamlakatlar ustiga qo`shin tortib borganiar. 4- sulola podshosi Snofru janubda Nubiya, shimoli-sharqda Sinoy yarim oroli, Falastinga glarbiy yo`naUshda Liviya qabilalari ustiga harbiy yurishJar qilgan. U misga boy Sinay yarim orolini Misrga qo`shib olgan. Nubiyadan 7 ming asir, 200 ming cliorva va juda ko`p qimmatbaho buyumlar olib ketilgan. 4- su-lolaning so`nggi vakillari davridan boshjab mamlakatda ichki qarama-qarsbilik kuchaygan, qo`zg^oIonlar bosblangan. 6- sulola namoyandalari davrida ya"ni miloddan avvalgi XXIV—XXIII asrlarda podsholik kuchsizlanib, qadimgi Misr davlati parchalanib keta boslilagan. Podsholikka itoat etgan davlatlar mustaqil bo`lish uchun intilganlar.

**2. Qadimgi podsholik davrida xo`jalikning rivojlanishi.** Qadimgi Misr podsholari va ularning amaldorlari mamlakat xo`jaligini rivojlantirish uchun yangi yerlar ochish, to`g`on, kanal va boshqa sug`orish shoxobcbalarini qurish isbiga alohida e'tibor berganlar. Chunki Misrdek issiq mamlakatlarda sug`orma debqonchilik xo`jalLkning asosiiii tasbkil etgan. Misr dehqonlari don, dukakli ekinlar ekkanlar, poliz va sabzavotchilik mahsulotlari yetishtir-ganlar va bog`dorchilik bilan shug`ullanganlar.

Qadimgi podsbolik davrida fir'avnlar chorvacMlikka katta e'tibor berganlar. Ular qoramol. echki, choLchqa, eshak va parranda boqqanlar. Dehqoncliillk va chorvachilik misrliklarning asosiy oziq-ovqat manbai hisoblangan.

Bu davrda misrliklar hunarmandchilik sohasida jiddiy yutuqlarga erishganlar. Misrda *miskarlik, qurohiozlik* va *hunarmandchilikning* boshqa sohalari ancha rivoj topgan edi. Shu davrda *kuloichilik* charxi kashf etiHb, *kulolchilik* yanada rivojlangan.

Misrda dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishi natijasida ortiqcha inabsulotlar ishlab cbiqariigan. Dehqonlar, chorvador darva hunarmandlar ixtiyorlaridagi ortiqcha narsalarni o`zaro almashganlar. o`zaro almasbuv ichki va tasbqi bozorni vujudga keitirgan. Misming shabar va qishloqlari orasidagi almashuv suv va quruqlik yo`IIari orqali olib borilgan. Misr shaharlari va qishloqlaridan har tomonga aloqa yo`llari tarqaigan edi. Nil daiyosi bo`ylab shimoldan janubga va janubdan shimolga har xil mahsulot ortilgan qayiqlar tinimsiz qatnab turardi.

**3. Misrda mulkiy tengsizlik va tabaqalanish.** Misrda dehqon-chilik, chorvachilik, hunarmandchilik va buyumlar alniashuvi ri-vojlanib borgan. Shuning natijasida fir'avn3ar, nomandar, amal-dorlar, ruhoniylar, oqsoqollar va harbiy

boshliqlarning mulklari ortib boyib ketganlar. Aholining katta qismi esa o`rtahol bo!lib, ulaming mol-mulklan uncha ko`p bo`lmagan. mlarning ayrim guruhlarida arzimas mol-mulk bo`lib, ular qashOdashoq-kambag`al kishilar edilar.

Misr fir'avnlari qo`shni mamlakatlaiga lez-tez g`olibona urushJar uyushtirib turganlar. Aksariyat hollarda misr qo`shinlari qo`shni mamlakatlardan ko`plab asir o`lja va boyliklar oltb qaytganlar. o`sha davrda Misr ahoiisi bir necha toifa-tabaqalarga bo`fingan edi. Fir'avn, a'yon va ruhoniylar aholining eng nufuzli kishilari hisob-langan. Kichik amaldorlar va jangchilar aholining ma'lumtabaqasini tashkil etganlar. Dehqonlar va hunarmandlar ahoiining meh-natkash tabaqasini tashidl elganlar. Misrda hech qanday mol-mulkka ega bolmagan, huquqsiz kishilar ham bo`lgan. Bular aholining eng quyi tabaqasi — qullar cdi. Misr fir'avnlari mam-lakatni vazirlari, qo/ikalonlari. katta-kichik amaldor-a!yonlari, ruhoniylari, sarkarda va kolp sonli qolshinigatayanib boshqarganlar. Lashkarboshilar va qolshin podsholikning asosiy tayanchi edi. Misr fir'avn]ari mamlakatni niarkaziy, viloyat va mahalliy tashkilotlar orqali idora qilganlar. Qadimgi Misr fir'avnlar hukmronlik qiigan davlat edi.

**4. Misr ehromlari**. Qadimgi Misr ehromlari, yanni piramidalari me'morchilikning eng noyob obidalaridan hisoblanadi. Ehromlar asosi uch, to`rt va ko`p bur-chakli geometrikshakldabo`Iib, asosi keng, yuqori tomoni to-rayib borgan.

Qadimgi podsholik davrida Misr fifavnlari va a'yon!ari o`z-iari uchun toshdan ulkan sa-g`ana — ehromlar qurdii^antar.

Bu ehromlarni bizdagi maqbaralarga qiyos qilish mumkin. Bunday maqbaralarga vafot etgan misrlik fir'avnlar, uning oila a'zolari va amaldor — a'yonlari dafn etilgan. Ehrom — maqbaralar o`zining kattaligi va salobati bilan kishini hayratga soladi. Ehromlar misrlik fir'avn va amaldorlar kuch-qudratining ramzi ham bo`lgan. Misrda qurilgan eng katta va hashamatli ehrom Joser va **Hufii** maqbarasidir. *Memfes* shahri yaqinida miloddan avvaJgi 2600- yilda to`rtinchi sulola fir'avni Xufu qurdirgan maqbara o`zining ulkanligi va hashamati bi!an kishilarni lol qoldiradi. Ehromning tomonlari 250 metr bo`Iib, uning atrofint aylanib chiqish uchun sayoh bir kilometr yo'l bosishi kerak. o`sha o`z davrida uning balandligi 150 metrdan ?iyod bolib, hozirgi holati 146 metrdir. Uni qurish uchun ikki million uch yuz ming dona tosh ishlatiigan. Maqbara qurilishiga tarashiab tayyorlangan toshlarning eng kichigi ikki yarim tonna, kattasi esa o`n besh tonnadan iborat bo`lgan. Yunon tarixchisi Gerodotning yozishicha bu ehrom maqbara 30 yil mobaynida qurilgan ekan. Uning quritishida 100 mingdan ortiq kishi doimiy ishlagan. Maqbara toshlari silliqlanib bir-biriga shunday zich qilib terilganki, toshlar oralig`iga fransuz imperatori Napoleon Bonapart qilichining tig`i ham sig`magan ekan. Ehromlar qadimgi Misr me'morchiiigining eng noyob yodgorliklaridan biri hisoblanadi. Xufu maqbarasini dunyodagi yelti mo`jizaning biri deydilar.

**1. Qadimgi podsholikning yemirilishi.** Misr fir'avnlari, ruhoniy va a'yonlari ulkan ehromlar, saroylar va ibodatxonalar quriltshiga ko`plab mablag`lar sarf etganlar. Ularning kundalik turmushi va dabdabali hayoti uchun ham behisob boyliklar sarf qilinardi. Tashqi mamlakatlarga uyushtiriigan bosqinchilik urushlari

oddiy xalq boshiga og`ir musibatlar olib kelar edi. Qadimgi podsholikning oxirlariga kelib mamlakatdagi hokimliklar — nomlar (kichik davlatlar) fir'avnlarga itoat etmay, mustaqil bo`lishga intilgahlar. SoHqiar miqdprining ortishi va qo`shimcha majburiy xizmatlar oddiy xalqning sabr kosasini to`ldirib, tnamlakatda qo`zg`olonlar boshlanishiga sabab bo`lgan.

Qadimgi podsholikning oxirlariga kelib markaziy hokimiyat zaiflashgan. Miloddan avvalgi XXIII asrda mamlakat mayda davlatchalarga bo`linib ketgan. Mayda davlaiiar esa bir-birlari bilan qonli urushlar olib borganlar. Shu tariqa Misrda tarqoqlik davri boshlangan.

**2. O`tish davrida Misrdagi ahvol vao`rta podsholikning tashkiltopishi.** Misrda tarqoqlik davri miloddan avvalgi XXIII asr o`r-tatarigacha davom etgan. Bu davrda mamlakat xo`jaligi ishdan chiqqan. Kanallar, suv omborlarini o`t, loyqa bosib, sug`orish tarmoqlari yaroqsiz bolib qolgan. Unumdor yerlar botqoqlikka va to`qayzorlarga aylangan. Hunarmandchiiik, savdo-sotiq va chorvachilik ham izdan chiqqan.

Markazlashgan Misr davlatining yemiriUshi va parchalanishidan qo`shni qabilalar foydalanganlar. Ular Misrga bostirib kirib, mamlakatni vayron qilib, boyiiklarini talab qaytganlar. Qadimgi podsholikning tnarkazi Memfis ham inqirozga uchragan. Unda hukmronlik qilayotgan 8-sulola vakillari mamlakatni biriash-tirishning uddasidan chiqolmaganlar.

Miloddan avvalgi XXI asr oxirlariga kelib Misrni qaytadan birlashtirish uchun kurash boshlangan. Misrni yangidan birlasb-tirish shimol bilan janubda birvaqtda boshlandi. Shimoliy Misrdagi davlatlarni birlashtirish ishiga Gerakleopol shahrining hukmdorlari boshchilik qilganlar. Gerakleopol podsholari shimoldagi davlatlarni birlashtirib osiyo va liviyalik ko`chmanchilarni mamlakatdan haydab chiqarganlar. Ular o`zlarini Yuqori va Quyi Misr podshosi deb e'lon qilganiar. Ammo 9—10- sulola podsholari mamlakatni o`z qo`Ilarida saqlab qola olmaganlar. Shundan so`ng Misr janubida mamiakatni birlashtirish ishiga **Fiva** hukmdorlari boshchilik qilganlar. 11- sulola hukmdori **Mentuxatep** Gerakleopol podsholariga qarshi kurashib, Yuqori va Quyi Misrni birlashtirib ***Markazlashgan Misr*** *davlatini* qayta tikJagan. Fiva yagona Misr davlatining poytaxti bo`lib qolgan. Budavrda 11—13-sulolavakillari Misrda podsholik qilganlar. Bu Misr tarixida o`rta podshoiik nomi bilan mashhur bo`lgan.

O`rta podsholik Misrda miloddan avvalgi 2050- yildan 1750- yilgacha hukm surgan. o`rta podsholik davrida fifavnlar qo`shni mamla-katlarga talonchilik va bosqinchilik yurishlari qilganlar. Misr qo4-shinJari Nubiyaga, Sinayga, Finikiyaga, Palastinga, hatto Frot daryosi sohillarigacha kirib borganlar. Fir'avnlar buysundirilgan o`lkalardan *mis, oltin, kumush, qora yog`och, qimmatbaho bu-yumiar,* ko`p mingiab *asir* va *chorva mollarini* haydab oiib ket-ganlar.

**3. O`rta podsholik davrida xo`jalik.** Misrda markazlashgan kuclili davlatning tashkil topishi natijasida xo`jalik ancha rivoj topgan. Misr fir'avnlari yangi yerlar ochishga va sug`orish inshootlarmi qurish ishiga katta G`tibor berganlar. Fayum vohasidagi ko'1 chuqur-lashtirilib sun'iy suv omboriga aylantirilgan. Nil daryosidan suv ombori tomon kanal qazilib unga suv keltirilgan. Baland joylarga suv chiqarish uchun *shaduf* kashf etilib, ulardan foydalanilgan.

Shu tariqa Misrda dehqonchilik ancha rivojlangan. Voha atrofida chorvachilik ham rivoj topgan. Misr shaharlari va qishloqlarida hunarmandchilik, xususan shishasozlik ham shu davrda rivoj topib ichki va tashqi savdo taraqqiy etgan. Misr **Finikiya, Palastin, Nubiya, Kichik Osiyo** va ikki daryo oralig`idagi mamlakatlar bilan qizg`in savdo borgan. Savdo ishtari quruqlik va suv yo`llari orqali amalga oshirilgan. o`rta podsholik davrida Fayum vohasida **Ittaun** shahri qurilib, u fir'avnlarning qarorgohiga aylangan. 12- sulola davrida Misr Sharqdagi eng qudratli davlatga aylangan.

***4.*** **O`rta podsholikning tushkunlikka uchrashi, kambag`allar va cjullar qo`zg`oloni.** Miloddan avvalgi XIX asrning ikkinchi yar-niidan bpshlab o`rta podsholik tushkunlikka yuz tutadi. 13- sulola davridan boshlab o`zaro urushlar boshlanib tushkunlik yana kuchayadi. Mamlakatdagi ichki nizolar, soliqlar va fir'avnlarning bosqinchilik urushlari mehnatkash xalq va qullarning ahvolini yanada yomonlashtirib yubordi. Toj-taxt uchun kurash qizg`in tus olib, fir'avnlar tez-tez almashinib tuiganlar. Misrdagi tush-kunlikdan qo`shni mamlakatlar foydalanib, birin-ketin Misrga bostirib kiradilar. 13-su!ola podsholari esa qo`shni qabilalarning hujumini qaytara olmaydilar. Ichki urush-janjaniar va qo`slini qabilaiarning hitjumlari mamlakat xoljaligiga katta zarar keltiradi. Mamlakatdagi qiyinchiliklarning barcha og`irligi mehnatkash xaiq va qullar yelkasiga tushar edi.

Og`ir jabr-zulm va qiyinchiliklardan sabr kosalari to`lgan mehnatkash xalq miloddan avvalgi 1750- yilda qo`zg`olon ko`taradi. Qo`zg`olonda jabrdiyda qullar ham faol ishtirok etadilar. Bu qo`z-g`olon butun podsholikni larzaga soladi.

Misrdagi bu voqealar o`sha vaqtda yaratilgan ***‚Jpuser so`zlari***" degan yozma bitikda o`z ifodasini topgan. Bu bitik muallifi yirik mansabdor shaxs bo`lgan. U xalq ommasi va qullar qo`zg`oloniga nafrat bilan qaragan. ,,Ipuser so`zlari" dagi ma'lumotlaiga qaraganda kambag`allar va qullar, zodagon va a'yonlarga qarshi bosh ko`targanlar.

,,Ipuser"da qo`zg`olonning oqibati nima bilan tugagani bayon etilmagan. Keyinchalik qo`zg`oion bostirilgan bo`lsa kerakki, Misrda fir'avnlar hokimiyati qayta tiklangan. Qo`zg`oIon bostirilgani bilan, oddiy xalq va qullar zolimlarga qarshi ko`p marta bosh ko`taiganlar.

**Nazorat savollari.**

1. misrning o`rta shohlik davri. Uning iqtisodiy ahvoli. Ijtimoiy munosabatlari.
2. Misrning yangi shohlik davri.
3. Qadimgi misr madaniyati.
4. «Vedalar davri» Hindiston shimolidagi ilk davlatlarining paydo bo`lishi.
5. Qadimgi Hindiston dini.
6. Qadimgi Eron dini va madaniyati.
7. Misrning qadimgi shohlik davridagi fir'avnlarining ichki va tashqi siyosatlari.
8. Exnatonning siyosiy-diniy islohatlari.

**Mavzu №2**
**Kadimgi Misr madaniyati.**
Tayanch atamalar. Koxinlar, Osiris, RA, Amon, Set, Ishtar, Tammuz, Sinuxet, matematika, geografiya, Luksor, Xarnak, geometriya ustozlari, piramidalar, xaykaltaroshlik

**1. Qadimgi Misr yozuvi.** Misr insoniyat madaniyatining eng qadimgi markazlaridan" biri hisoblanadi. Yozuv ma'naviy ma-daniyatning ajralmas qismidir. Qadimgi misrliklar bundan 6—7 ming yiliar muqaddam belgi-rasmlar shaklidagi **iyeroglif** yozuvini kashf etganlar. Bu yozuvlar 750 belgi-rasmlardan iborat bolgan.

Misr yozuvida narsa va hodisalar har turii rasm va belgilar yordamida ifoda etiigan. Masalan, suv so`zi uch qator tolqinsimon chiziq, tog` so`zi ost tomoni tekis, yuqori tomoni qabariq, o`rtasi botiq shakl bilan ifoda etilgan. Qo`lida o`q-yoy ushlab turgan odam rasmi jangchi, o`roq ush-lab turgan kishi tasviri esa o`r-rnoq degan ina'noni bildirgan. Keyinchalik belgi-rasm shakli-dagi yozuv takomillashib sodda-lasbtirilgan. Zamonlar o`tishi bi-lan belgi-rasm shaklidagi yozuv-lar alifbo belgilariga aylangan. Qadimgi podsholik davrida misrliklar yozuvida 24 ta asosiy tovushni bildiradigan alifbo tizimi paydo bo`lgan. Misrliklar dastlab alifbo va xatlarni tosh. sopol, yog`och, po`stloq, taxta, teri kabi buyLirnlarga yozganlar. Nil sohillarida o`sadigan papirus o`simligining barglari yozuv qog`ozi o`rnida foydalanilgan. Misrliklar papirus barglaridan varaq!ar tayyorlab, varaqlarni bir-biriga ulab uzunligi 45 metrgacha papirus o`ramlari tayyorlaganlar. Zaruriy ma'lumot, hodisa va boshqa narsalar papirusga yozib berilgan. Papimsga qamishdan tayyorlangan yozuv asbobi bilan yozilgan. Bu misrliklarning o`ziga xos kitobi edi. Misrning turli joylaridan arxeolog olimlar qadimgi *.,papirus kitob"lanni* topishgan. Qadimgi Misr yozuvini o'qib-olrganishga qadimgi mualliflar urinib ko`rganlar. Lekin uiar bu sohada yaxshi natijalarga erisha olmaganlar. Keyingi davrlarda tilshunos oHmlar Misr iyerogiiflarini o`qib chiqishga harakat qilib ko`rganlar. Lckin ular bu sohada muvaffaqiyat qozcma oimaganlar.

Mashhur fransuz olimi Fransua Shampolon Misr iyeroglif-larini o`qib chiqib, shuhrat qozongan.

**2. Qadimgi Misrda maorif va maktab.** Qadimgi Mis,r murakkab davlat tizimiga va keng miqyosli xo`jalikka ega bo`lgan mamlakat bo`lgan. Mrsr davlali va xo`jaligini boshqarish uchun xat-savodli, bilimdon kishilar zarur bo`lgan. Shu tufayli Misr fir'avnlad va a'y°nteri xat-savodli va bilimdon xodimlar tayyorlashga atohida ahamiyat berganlar. Misrda o`qitish, tanlim-larbiya berish maskani maktablar edi. Mamlakatning hamma shaharlari va yirik qishloqlarida maktablar bor edi. Maktablarda fir'avnlar, a'yonlar, amaldorlar, ruhoniylarning bolalari va o`qishga havaslari bo`lgan kishilarning farzandlari ham o`qiganlar.

Misrda boshlang`ich, o`rta va oliy maktablar bo`lgan. Bosh-lang`ich maktablarga bolalar 5—6 yoshdan jalb etilib, harflar o`rgatilib, savodi chiqarilgan. Bolalar maktabda husnixat bilan shug`ullanib, ular har kuni 3 sahifa yozishlari

kcrak bo`lgan. Misr-dagi o`rta va oliy maktablarning ko`pchiligi *mirzolar* tayyorlab chiqarganlar. Uni *nMirzplar maktabi"* harn deyishgan.

Misr fir'avnlarining markaziy mahkamasi qoshida podsho xazinasi uchun maxsus amaldor mirzolar tayyorlaydigan maktab-lar ham bo`lgan. Bu maktablar katta lajribaga ega bo`lgan bilimli ustoz — o`qituvchiJar bilan ta'minlangan bo`lgan. Maktablarda *matematika, geometriya, astronomiya, tarix, tibbiyot, adabiyot* kabi dunyoviy va diniy bilimlar o`qitilgan.

Misr maktablarida intizom juda qattiq bollib, u tan jazosi bilan mustahkamlangan. o`sha vaqtda yozilgan ,.NasiliatIar"da: ,,Ey mirza, dangasalik qilma, yo`qsa jazoga duchor bo`Iasan. Qo`lingda kitob bo`lsin, ovoz chiqarib o`qigin va o`zingdan ko`p biladiganlar bilan maslahat qilib ish tut. Bir kun ham yatqovlik qilma yo`qsa kaltak eysan. Axir bolaning qulog`i yelkasida bo`ladi-da, qachon ursang, shunda uning qulog`iga gap kiradi", — deb yozilgan.

Misrda yozuv, ilmiy, amaliy va diniy bilimlarning vujudga kelishi va rivojlanishi mamlakat xo`jaligi bilan chambarchas bog`liq bo`lgan.

Misrda vujudga kelgan ilmiy-amaliy bilimlar xo`jaiikning hamma tarmoqlarini rivojigajudakattata'sir ko`rsatgan.

**3. Qadimgi Misr adabiyoti.** Qadimgi Misr adabiyoti bundan VI—VII ming yil muqaddam vujudga kelgan. o`rta podsholik davridayoq adabiyot juda yuksak darajaga ko`tarilgan. Qadimgi misrliklar juda ko`p xaiq maqollari, matallari, ertak, afsona, doston va qo`shiqlar yaratganlar. Xalq yaratgan og`zaki ijodiyotda dehqon, cho`pon, savdogar, hammol, amaldor, ruhoniy va hatto Misr fir'avntarining turmush tarzlari sodda tilda bayon etilgan.

Qadimgi misrSiklarning *,,Ikki og`a-inF, ,,To`g`ri va egri"* kabi ertaklari *»lz.ida va Osiris haqida"', »Gor bilan Setjfinjali", ,Malokatga uchragan kema haqida hikoya", ,,Sinuxet hikoyasi"* kabi rivoyat, afsona, ertak va hikoyalari diqqatga sazovordir.

Qadimgi Misr adiblari sayohatnoma, pand-nasihat, diniy poeziya va gimnlarga katta e'tibor berganlar. Ular shu yo`nalishda ko`plab asarlar yaratishgan.

*,,Halokatga uchragan kema haqida hikoya"da* podsho konlariga qilingan mashaqqatli sayohat haqida so`z yuritiladi. Hikoya qi-linisliicha sayyohlar dengizda dahshatli dovulga duch keladilar. Dovul ularni *,,ruh* oro//"ga uloqtirib tashlaydi. Orolda ulkan ilon qiyofasidagi oliyjanob podsho yashar ekan, Ilonshoh sayyohlarni yaxshi qabul qilibdi. Ularga ko`p oltin, kumush, fil tishlari, xushbo`y narsalar, it va maymunlar berib Misrga kuzatib yuboribdi.

,,Sinuxet hikoyasi"da misrlik amaidor Sinuxetning Suriyaga safari, uning o`zga mamlakatda ko`rgan-bilganlari, boshidan o`t-kazgan og`ir mashaqqatlari g`oyat go`zal iboralar bilan bayon etilgan.

Shunday qilib, Qadimgi Misr badiiy ijodi mazmun jihatidan xilma-xil va boy bo`lib, jahon adabiyotining durdonalari qatoridan munosib o`rin olgan.

**4. Qadimgi Misr san'ati.** Me'morchilik, haykaltaroshlik, ras-somchilik, musiqa, qo`shiq va xalq o`yinlari qadimgi Misr san'atining ajoyib namunalari hisoblanadi. San'atning bu turlari Misrda juda qadim zamondan boshlab rivoj topgan edi.

Misr fir'avnlari va yuqori tabaqaga mansub a'yonJar me'mor-chilikka katta e'tibor berganlar. Yuqori Nilning ikki sohilidagi tog`larda me'morchilikda ishlatiladigan har turli toshlar ko`p bo`lgan. Fir'avn, a'yon nomlari va ruhoniylarga qarashli saroylar, ibodatxonalar, maqbaralar va boshqa ma'muriy binolar ana shu toshlardan qurilgan. Tosh konlarida yuz minglab qullar va asirlar ishlatilgan. Misrga xos me'moriy obidalardan biri piramidalar — *Misr ehromlaridir.* Bu jihatdan Sakkaradagi ***Joser***, Gazadagi fir'avn ***Xeops***ehromlari, boshi odam, tanasi sher surat qilib ishlangan sfmks va boshqalar o`zlarining ulug`vorligi bilan kishilarni hayratga solib kelgan.

Misrda haykaltaroshlikka ham katta e'tibor berganlar. Misr haykaltaroshlari tosh bo`lakla-ridan, butun tog` qoyalaridan fir'avn, amaldor, ruhoniy, oddiy kishilar va hayvonlarning haykallarini ishlaganlar. Bu jihatdan Ramzes II, Amenernxet III, Tutan-xamon, Exnaton, uning xotini Ne-fertiti, amaldor Raxotep, mirzo haykallari diqqatga sazovordir.

o`sha vaqtlarda Misrda rassomlik ham ancha rivqj topgan edi. Saroy, ibodatxona va ma'muriy binolarning devorlariga fir'avniar, amaldorlar va ruhoniylar, hamda afsonaviy voqea-lardan olingan rasmlar ishlangan.

Misrliklar saiVatining yana bir turi kuy, qo`shiq va raqsdir. Misrda puflab, urib va chertib chalinadigan *not, sistra, qayroq, arfa, ud* va boshqa asboblar keng tarqalgan edi. Misrda raqs san'ati ham yuksak darajada rivoj topgan edi.

## 17- §. Qadimgi Misr fani va diniy e'tiqodi.

**1.Misrda ilmiy bilimlar**. Dehqonchilik, savdo-sotiq, hunar-mandchilik, chorvachilik va boshqa sohalarni rivojlantirish uchun misrliklarga ilmiy-amaliy bilimlar zarur bo`lgan. Shuning uchun ham Misrda matematika, geometriya, geografiya, astronomiya,

tarix, tibbiyot, veterinariya va qishloq xo`jaligi bilimlari ancha erta rivoj topgan.

Qadimgi va o`rta podsholik davrida misrliklar matematika sohasida jiddiy yutuqlarni qo`lga kiritganlar. Ular 1,10, 100, 1000 lik va hokazolardan iborat son-sanoq tizimini kashf etganlar. Bu sonlar uchun atohida belgilar bo`lgan. Yarim doira o`nni, o`rilgan arqon yuzni, nilufar guli belgisi esa rning raqamini bildirgan.

Misrliklar geometriya — ,,yerni o`lchash" sohasida ham katta yutuqlarga erishganlar. Chunki, kanallar qazish, dalalarni pay-kallarga ajratish, binolar qurish, sath va hajmlarni o`lchashda gco-metriya fani ularga kerak bo`lgan. Misrliklarda kaft, barmoq, qarich va tirsak uzunlik o`lchovlari bo`lib xizmat qilgan.

Osmon jismlari va ularning harakatini o`rganuvchi fan astro-nomiya deyiladi. Shu sohaning olimiari esa astronomlar deyilgan. Qadiingi Misr astronomlari osmon jismlari — yulduzlar va say-yoraiar harakatini o`rganib katta yutuqlarga erishganlar.

Ma'lumki, Misrda qishloq xo`jaligi ishlari boshlanishidan avval Nil daryosi toshadi. Bu voqea ravshan yulduz Sirius ertatabki shafaqda ko`ringandan ikki-uch kun keyin sodir bo`lar edi.

Astronomlar Siriusni ko`rishlari bilan Misr aholisini Nilning toshishi va ekish mavsumi boshlanishi haqida xabardor qilar edilar. Demak, Nil daryosining toshish mavsumini hisoblash ehtiyoji Misr astronomiyasini yaratdi.

Misr astronomlari dunyoda birinchi bo`lib, yulduz va sayyoralar xaritasini tuzganlar. Yulduz va sayyoralarning joylanishini ko`rsa-tadigan qadimgi xaritalar Misrdagi Senmut rnaqbarasi, Edfu va Dender ibodatxonalarining shiplarida saqlanib qolgan.

Misr astronomlari dunyoda birinchi bo`lib, o`zlarining alohida quyosh kalendar — taqvimlarini tuzganlar.

Taqvimga ko`ra bir yil 365 kun bo`lib u 12 oyga bo`lingan. Har bir oy 30 kundan iborat bo`lib, qolgan 5 kun bayram hisoblangan. Misrliklar tungi vaqtni yulduzlarga, kunduzgi vaqtni quyoshga qarab belgilaganlar. Vaqt — soatni belgilaydigan qum va suv soatlari ham ilk Lor Misrda kashf etilgan. Demak, qadimgi misrliklar Nil toshqini vaqtini bilish, kanal, to`g`on qurish, dalalami ekishga hoziriashda astronomiya ma'lumotlariga tayanganlar. Ular daryo va dengizlarda suzganlarida, safarga chiqqanlarida astronomiya bi-limlariga suyanganiar. Astronomiya fani qishloq xo`jalik ishlarida, savdo-sotiq aloqalari va harbiy harakatlarda ham katta ahamiyatga ega bo`lgan.

**2. Qadimgi Misr tabobati va bilimlar**. Qadimgi Misr issiq marn-lakat bo`lganligi uchun kasalliklar ko`p bo`lgan. Misr tarixidagi ko`pdan-ko`p istilolar va urushlar natijasida juda ko`p odamlar, jangchilar jarohatlanganlar. Shu tufayli ham Misrda tabobat erta rivoj topgan.

Qadimgi solnomalar Misrda miloddan avvalgi IV ming yiilar-dayoq dastlabki shifoxonalar bo`lganligi haqida hikoya qiladi. Miloddan avvaigi 3600-yilda Memfis shahrida afsonaviy tabib Imxoteb sharafiga maxsus ibodatxona qurilgan. Bu yerda bemorlarga libbiy yordam berish uchun alohida xonalar ajratilgan. Shifoxonada tabobalni yaxshi biladigan tabib — kohinlar ishlaganlar.

Misrning Sais, Geliopolis kabi shaharlarida tabiblar tayyor-laydigan maxsus maktablar bo`lgan. Ayni paytda misriik tabiblar tabobalga bag`ishJangan kitoblar ham yaratganiar.

Misr tabiblari mumiyolash uchun odamning ichki a'zolarini jarrohlik yo`li bilan ochganlar. Shuning uchun ular odamning hamma a'zolarini puxta bilganlar. Tabib-hakimlar kasailikni aniqlashda kishining lashqi holati va tomir urushiga alohida etibor qaratganlar. Tabibiar ko'z, bosh, tish, ichki, ruhiy, singan-chiqqan va boshqa kasalliklar bo`yicha ixtisoslashganlar. Ular jarohaili bemorlarni davolashda maxsus mis va jez asboblardan foydalanganlar.

Qadimgi Misrda Erazistrat, Xerofil, Tmxoteb vaKoslik Filipp kabi mashhur tabiblar faoliyat ko`rsatganlar. Tabiblar bemoriarni davolashda shifobaxsh o`simlik, meva va hayvonot mahsulotidan tayyorlangan dori-darmonlardan foydalanganlar. Misr tabobati jahon tabobatida alohida o`rinni egaliagan. Misrliklar veterinariya sohasida ham muayan bilimga ega edilar.

**3. Qadimgi Misrda tarixiy va geografik biliralar**. Qadimgi misrliklar tarixiy va geografik bilimlarga qiziqib qaraganlar. Misr tarixiga oid dastlabki tarixiy ma'lumotlar shifer lavhalariga, fil suyagi bolaklariga, qora yog`och taxtaciialariga, Palemos toshi, ibodatxona devorlariga bitilgaii yozuv va yilnomalarda saqlanib qoigan. bli jihatdan ,,Tutmos III yilnomasi" qimmatlidir. Qadimgi Misr liaqida papiruslarga yozilgan har turli nia'lumorlar ham muhimdir.

Qadimgi Yunon tarixchisi Gerodot o`zining ,,Tarix" kitobida Qadimgi Misr haqida juda ko`p maMumot beradi. U o`z kitobida *,Misr Nil tuhfasidir"* deb yozgan edi.

Qadimgi misrliklar gcografiya fani sohasida ham ma'lum bilimlarga egabolishgan. Ular Yeming chetlaritog`lar bilan o`ralib, airofi oqib turadigan okcan suvidan iborat deb tasavvur qilganlar.

Misrliklar Yerning Nil oqib keladigan tornoni janub, o`rtayer dciigizi tomoni shimol, daryoning so'l tomoni g`arb, o`ng tomoni sharq deb hisoblaganlar. Qadimgi Misr geograflari o`z o`lkalari va Arabiston yarimoroli xaritasini chizganlar. Arabiston cho`llaridagi oitin konlari belgilangan xarita zamonamizgacha saqlanib qolgan.

Qadimgi misrliklar konchilik, iqlimshurtosiik va boshqa sohalarda ham ancha bilimlarga ega bo`lganlar.

**4. Misrliklarning diniva e-tiqodihaqida.** Misrliklar eng qadimgi davrdan boshlab milodning III—IV asrlarigacha uzoq tarixiy taraqqiyot yo`lini bosib o`tganlar. Uiar turli fanJar sohasida ancha bilimlaiga ega bo`Isalarham hali tabiat hodisalari oldida ojiz edilar. [Jlar, Nil toshqini, zilzilalar, Sahroi Kabir tomondan esadigan qum bo`ronlari, momaqaldiroq, sayyoralar va yulduzlarning harakatida qandaydir g`ayritabiiy kuch bor deb tasawur qilganlar. Bu hodisalar misrliklarning dini va e'tiqodida olz ifodasini topgan. Qadimgi misrlikJarda *fetishizm, toiemizm, animizrn, quyoshparastlik, podshoni ilohiylashtirish* va diniy e'tiqodning boshqa shaJdlari keng tarqalgan edi.

**Fetish e'tiqodi.** Fetish eng qadimgi va qadimgi davrga xos e'tiqodlardan biridir. Misrliklar e'tiqodicha fetish buyumlar sehrli va muqaddas hisoblangan. Misrda juda qadim zamondan boshlab ma'buda **Neyt**nuig muqaddas ramzi bo`Igan o`q-yoyga topinganJar. Shuningdek xudo **Sopdu**ning ,,o'tkir" tishlariga, xudo Uxning pay va tasmalar bifan bezatilgan hassasiga, xudo Minaning yog`ochdan Jshlangan buyumiga sig`inganlar.

Shunday qilib, qadimgi misrliklarda xudolarning ayrim buyum-larini sehrli deb hisoblab, ularga topinish^*wetisp e'iiqodl* deyiladi.

**Tabiatga sig`inish**. Tabiatdagi buyumlar va hodisalarga sig`inish misrJUdarning qadimgi e'tiqodlaridan biri hisoblanadi. *M*isrdan g`arb tomonda ulJcan Sahroyi Kabir cho`Ii yastanib yotadi. Vaqt-vaqti bilan cho`I tomondan Nil vodiysiga qum aralash dahshatli dovul esib turgan. U toraonlarda har turli yirtqichlar izg`ib yurgan, hayvonJar odamlarga, ekin maydonlariga ko`plab zarar Jceltirgan. Cho`Ida yashagan ko`chmanchi qabilalar esa vodiyga bostirib kirib, Ealonchilik, odamlarni olldirib vahshiylikJar qilganlar. Qadim zamondan boshlab misrlikJar tog`larga, muqaddas toshJarga si-g`inganlar. Misr dehqonlari va aholisi ..Muqaddas yer" xudosi Jebni, suv xudosi **Nun**ni ilohiylashtirganlar, Suv uJarga butun tabiatning asosi bo`lib ko`ringan.

Misrlikiar Nil daryosini ilohiylashtirib uni **Xapi** deb ataganlar. Suvnj muqaddas bilib va ilohiylashtirib, unga topinish hamma uchun muqaddas burch bolgan. Suv xudosi bosiii ajdaho, tanasi odam qiyofasida ifoda etilgan.

Misrliklar quyosh va uning yerdagi ramzi olov-o`tni ham ilo-liiylashtirganlar. Rivoyatga ko`ra tanasi odam, qarchig`ay boshli Quyosh xudosi Ra

xudoJar podshosi hisoblangan. U har kuni oltin qayiqchasida osmonni kezib chiqadi va g`arbga tushadi. Misrlifdar Raga atab ibodatxonalar qurganlar.

**Totem e'tiqodi.** MisrlikJar juda qadim zamondan boshlab *sher, llmsoh, ilon, buqa, qo`chqor, lochin, asalari, mushuk* va boshqa hayvonJarni ilohiylashtirib ularga e'tiqod qjjganlar. Ulai^a bag`ishlab ibodatxonalar qurib, haykallar ishlatganlar.

Misrda yovuzlik xudosi Set bo`lib, u odam tanali, eshak boshli qilib tasvirlangan. o`sitnliklar va dehqonchilik xudosi Osiris bo`lib, u Set tomonidan o`ldiriladi.

Misrda fir'avnlarni ilohiylashtirish ilk podsholik davriga borib taqaladi. Yangi podsholik davrida bu yanada kuchayadi. Fir'avnni xudo darajasiga ko`tarib *Amon fanftndl* deb ataydilar.

Shunday qilifa Qadimgi Misrda diniy e'tiqodning shakllari juda ko`p bo`lgan. Qadimgi misrliklar diniy G`tiqodlar bilan bog`liq turli irim, urf-odat va marosimlarni tanlanali ravishda o`tkazganlar.

***Misr-Xett*** sulhi tuzilganda hujjatga har ikki tomondan mingtadan xudoning nomi yozib qo`yilgan ekan. Misr madaniyati o`ziga xos tarixiy yo`lni bosib o`tib, jahon madaniyatiga o`zining ijobiy ta'siriiii o`tkazgan. Misrtiklar boshqa xalqlar tnadaniyatidan ham bahramand boMganiar. Shunday qilib Misr madaniyati jahon xalqlari sivilizat-siyasi rivojiga juda katta hissa qo`shgan.

Nazorat savollari.

1. Ibtidoiy jamoa tuzumi madaniyati.
2. Dinning kelib chiqishi.
3. EramizdanavvalgiVIII-VIasrlardaBobiljamiyativauningiqtisodiyoti.
4. misrning o`rta shohlik davri. Uning iqtisodiy ahvoli. Ijtimoiy munosabatlari.
5. Misrning yangi shohlik davri.
6. Qadimgi misr madaniyati.

## Mavzu №3
## Shumer va Akkad davlatlari.

Tayanch atamalar.Dajla, Frot, shumeriylar, akkadlar, kishlok jamoasi, Ur, Uruk, Kish Umma, lagash, Erudu, Sargon, Gutiylar, Gudea,

Kadimgi ikki daryo oraligi tarixini urganish uchun Bibliyadagi, Gerodot asaridagi ma’lumotlardan foydalaniladi. Ayniksa, miloddan avvalgi III asrda Bobilda yashagan Beros tomonidan yozilgan «Bobil tarixi»da kimmatli ma’lumotlar kup.

XVII-XVIII asrlarda Persepol saroyidan topilib, nemis olimi Grotefend tomonidan ukib chikilgan Bexistun mixxat yozuvlarida, XIX asrning 40- yillarida

arxeolog Leyard tomonidan tomonidan Nineviya xarobalaridan topilgan 20 ming sopol kitoblardagi ma’lumotlar kimmatli manbalardir.

XIX asr oxirida kovlab olingan Bobil, XX asr boshlarida ochilgan Suza shaxarlaridan topilgan moddiy- ashyoviy dalillar va Xamurapi konunlari ma’lumotlari asosida bu ulka tarixi bizga ma’lum buldi.

Frot va Dajla daryo oraligidagi kadimgi stivilizaniya markazlaridan birini Mesopotamiya xam deyiladi. Ikki azim daryoning xizmatlari tufayli bu joyning tuprogi serunum va xosildorligi bulganligi xakida kadimgi yunon tarixchisi Gerodot ma’lumot beradi.

Mesopotamiyadagi Dajla daryosining Zab irmogi buylaridan bundan 70-80 ming yil oldindan boshlab axoli yashab kelgan bulsa, pasttekislik kismiga ov zururiyatidan miloddan avvalgi IX-VIII ming yilliklardan boshlab odamlar olib joylasha boshlagan.

Keyinchalik Mesopotamiyaga Arabiston yarim oroli, Shimoliy Afrikadan semit kabilalari, janubi-shark tomondan esa boshka kabilalar kirib kelib joylashganlar. Zagros toglari orkasidan voxaga gutey, kassit, ossur, lulubey, janubdan esa xolday va boshka jangovar kabilalar bostirib kirganlar. Miloddan avvalgi IV—III ming yilliklarda togli joylarda yashagan elam kabilalari janubi-shark tomondan bostirib kirib, Mesopotamiya janubidagi Shumerda urnashib kolganlar. Keyinchalik bu erga arameylar, eronliklar, parfiyaliklar, yunonlar, rimliklar va boshka kabilalar xam kirib kelishgan. Shunday kilib, Mesopotamiya xalklari atrofdan kelgan juda kup kabilalarning maxalliy axoli bilan kushilib aralashuvi natijasida vujudga kelgan. Kadimda mamlakat janubini Shumer, axolisini shumerlar. shimoldagi erlarni Akkad, axolisini esa akkadlar deb atashgan. Shumer va Akkad axolisi tashki kiyofalari jixatidan bir-birlaridan fark kilganlar. Shumerlar past buyli, kaltabakay, jussador, kulcha yuzli, tankaygan burunli, sokol va muylovining siyrakligi bilan akkadlardan ajralib turganlar. Semit kabilalariga mansub akkadlar esa kelishgan jussali, norgil, kirra burun, yuzlari chuzik, kuzlari katta-katta, sersokol va sermuylov bulishgan.

Miloddan avvalgi V-IV yilliklarda irrigastiya va kishlok xujaligining rivojlanishi natijasida Ur, Uruk, Erudu, Larsa, Kish, Lagash, Umma singari katta-katta kishloklar paydo buldi.

Miloddan avvalgi IV ming yilliklarda Janubiy Mesopotamiyaga janubi-shark tomondan shumerlar kelib joylashganlar. Ular maxalliy axoli bilan aralashib istikomat kilganlar. Shu vaktdan boshlab bu joy Shumer viloyati nomini olgan. Janubiy Mesopotamiyada dexkonchilik, chorvachilik va xunarmandchilikning rivojlanishi natijasida badavlat kishilar, erkin jamoachi dexkonlar. xunarmandlar va kullar kupaya boshlagan. Bu Mesopotamiya dunyosidagi tabakalar edi. Endilikda jamiyatni boshkarish uchun kandaydir tashkilot zarur bulib kolgan. Bu tashkilot Shumerdagi shaxar-davlatlar edi. Xar bir shaxar-davlatning uz podshosi, amaldorlari, vaziru vuzarolari, kushinlari, kurikchilari, ruxoniylari, jinoyatchilarini jazolovchilari va kamokxonalari bulgan. Butun shaxar, unga karashli kishlok axli podshoning fukarosi xisoblangan. Kadimgi Mesopotamiya shaxar-davlatlarini fakat jazolovchi tashkilot deb karash kerak emas. Bu shaxar-davlatlar zimmasida sugorish inshootlarini tartibga keltirish, dexkonchilikni, chorvachilikni,

xunarmandchilikni, savdo-sotikni rivojlantirish va mamlakatni mudofaa kilishdek juda muxim ishlar turgan. Bu jarayonlar Mesopotamiyada miloddan avvalgi IV ming yillikning ikkinchi yarmi va III ming yillik boshlarida sodir bulgan.

Miloddan avvalgi III ming yillik boshlarida Janubiy Mesopotamiyada xil tillarda gaplashuvchi kabilalar yashar edi. Janubda maxalliy axoli bilan aralashgan shumerlar, Dajla va Frot voxasining urta kismida esa maxalliy axoli bilan birga akkadlar xam yashar edilar. Ulardan shimolda esa xurrit kabilalari istikomat kilgan. III ming yillikning birinchi yarmida Shumerda Eredu, Ur, Larsa, Uruk, Lagash, Umma, Shuruppak, Isin, Nishur, Kish, ulardan shimolda esa Ashshur, Mari, Nineviya va boshka yirik shaxar-davlatlar bor edi. Ularning xammasida xam asosan sugorma dexkonchilikka asoslangan xujalik rivojlangan edi.

Janubiy Mesopotamiyada kulchilik endigina shakllanayotgan edi. Urushda asir tushgan odamlar va karzdor kishilarni kulga aylantirish boshlangan. Ulardan ibodatxona, uy va xujalikning xamma soxalarida foydalanilgan. Kullar kul egalari tomonidan tamgalanib sotilgan va sotib olingan. Ularda xech kanday xukuk bulmagan. Shumer jamiyatidagi aslzodalar, kul egalari, ruxoniylar va boshkalar oliy tabaka vakillari xisoblangan. Axolining kupchiligini mayda ishlab chikaruvchilar, xunarmandlar, dexkonlar, mayda savdogarlar, askarlar tashkil etgan. Er egaligining bir necha shakli mavjud bulgan. Ularning biri xususiy erlar bulib, ular sotilgan va sotib olingan. Ikkinchisi esa davlat va ibodatxonaga karashli erlardir. Mesopotamiyada xamma foydalaniladigan jamoa erlari xam bulgan. Yirik kuldorlar jamiyatning oliy tabaka aslzodalari xisoblangan. Usha vaktdagi shaxar-davlatlar "en" deb atalgan, uni oliy ruxoniy boshkargan. Shaxar-davlat boshligini lugal deb xam atashgan. Ular axolining yukori tabakasi orasidan saylangan. U kushin kumondoni xam bulgan.

Milocidan avvalgi XV—X asrlarda Van koli atrofidagi qabilalar Urartu atrofida birlashadilar. Birlashgan Urartu davlatining birindii hukmdori **Aramu edi. Aramu** miloddan avvalgi 864—845- yillarda Urartuda hukmronlik qiigan. U Ossuriya podshosi **Salamansar III** ning Urartuga bostirib kirgan qo`shinlariga qattiq zarbalar bergan.

Miloddan avvalgi IX asr o`rtalarida Urartu mustaqil davlat darajasiga ko`tarilgait edi.

**3. Urartu podsholigining kuchayishi.** Podsho Sarduri I miloddan avvalgi (835—825) yillar davrida Urartu daviati kuchayadi. Sarduri ] qo`shinlari ossur qo`shinlari ustidan bir necha bor g`alabaga erishadi.

Sarduri I o`zini *,,ulug` qudratli, jahon va Nairi mamlakatining podshosi-shahanshohF* deb e'lon qiladi. Sarduri I qo`shni qabilalar ustiga yurish qilib, LJrartu yerlarini kengaytiradi. U bosib olingan qabilalardan boj-xiroj oladi. Sarduri I Van ko`li sohilida mustahkam devorli **Tushpa** shahrini barpo qilib, uni Urartu davlatining poytaxtiga aylantiradi.

**Sarduri I ning o`g`li Ishpuini** (miloddan awaigi 825—810-yillar) davrida Urartu davlati mustahkamlanadi. Bu davrda Van ko`li shimolidagi joylar Urartuga birlashtiriladi. Urmiya ko`lining janubi va janubi-g`arbida joylashgan Muasasir Urartu davlatiga tobe etiladi.

Ishpuin qo`shinlari Urmiya ko`lining janubi-sharqidagi Manna podsholigining ichkarisigacha kirib boradilar va Ossuriya che-garalariga xavf soladilar. Urartu qo`shinlari Mannani bosib oiadilar. U yerdan ko`plab qo(y, echki, qoramol. ot va behisob boyliklar olib qaytadilar. Animo mamlakatni vayron etmaydilar.

**Ishpuinining o`g`li Menua** {miloddan avvalgi 810—786- yillar) davrida Urartu davlati har jihatdan mustahkamianadi. U qo`shinni qayta tuzib, mamlakatda

kuchli nazorat o`rnatadi. U shahar, ibo-datxona, ayniqsa harbiy istehkomlar qurish, mamlakatni obodon-lashtirish va suv inshootlari yaratishga katta e'tibor beradi. U Tushpa shaliri yaqinida 70 krn uzunlikdagi ***„Menua kanali"ni*** qurdiradi.

Menua shimolda Araks daryosi vodiysi, janubi-g`arbda Frot daryosining yuqorisidagi mamlakatlar ustiga zafarli yurishlar qiladi. o`sha vaqtdagi toshga bitilgan yozuvlarning birida „ *Menua mingan* ***ot*** *—* ***Arsibinni*** *22 tirsak —11 metr-u 20 sm kenglikdagi jarlik ustidan sakrab o`tgan",* deyiladi. Shu tufayli **bo`Isa** kerak, otning o`zbekcha nomi ,,Burgut" bo`lgan. Menua qo`rqmas jangchi, mashhur shoh va uzoqni ko`ruvchi siyosatchi bo`lgan. Menua davrida Urartu davlati har jihatdan gullab-yashnagan.

**4. Argishti I Sarduri davrlarida Urartuning kuchayishi.** Menua-ning o`g`li Argishti I davrida Urartu davlati yanada kuchaydi. U miloddan avvalgi 786—764- yillarda Urartuga hukmronSik qiladi. Argishti yilnomalarida *Urmiyaningjanubi-sharqidagi Mannaga tez-tez yurishlar qilingani, u yerda ko 'p sonli asirlar qo 'Iga kiritilgani va chorva moilari haydab ketilgani* to`g`risida gapiriladi. Argishti I qo`shinlari Ossur qolshinlarini mag`lub etadi. Bu davrda Urartu Old Osiyodagi eng kuchli davlat bo;lib qoladi.

Janubda Urartu qo`shinlari Diyala daryosi sohili va Bobil chegarasigacha kiribborganlar.

Janubi-g`arb tomonda esa Argishti 1 o`z qo`shinlarini Frot daryosining yuqorisidagi marnlakatlar va Shimoliy Suriyaga boshlab borgan. Argishti I qolshinlari shimolda Sevan ko`li bilan Qora dengiz oraligMdagi mamiakatlar ustiga g`olibona yurishlar qilib, ularni o`ziga itoat ettirganlar. U harbiy yurishlari davrida behisob o`lja, erkak va ayollaidan iborat 280000 kishini asir qilib olib ketgan.

Argishti I davrida Urartu podsholigi olz kuch-qudratining cho`qqisiga ko`tariladi. Argishti 1 dan so`ng Urartu taxtiga uning o`g`li **Sarduri II** o`tiradi. U miloddan avvalgi 764—735- yillarda podsholik qilgan davrda Urartu davlatining qudratini mustah-kamlash borasida otasining siyosatini yuritadi. U harbiy islohot o`tkazib, ixtisoslashgan doimiy qo`shinni kuchaytiradi. Muntazam qo`shinga tayangan Sarduri II Kavkazortiga, xususan Eriax mamlakatiga bostirib boradi. G`arbda esa u Shimoliy Suriyaga qo`shin tortadi, Ossuriya qo`shinlariga qaqshatgicb zarba beradi. Sarduri TT davrida Urartu davlatining chegaralari boshqa mayda davlatlar hisobiga kengaytiriladi.

Sarduri II faoliyatining dastlabki o!n yilliklarida Urartu podsholigi o`z kuch-qudratini saqlab, Oid Osiyoda birinchi darajali davlat bo`lib qoladi.

**5. Urartu podsholigining kuchsizlanishi va parchalanishi.** Miloddan avvalgi VIII asrning ikkinchi yannidan boshlab Urartu janubidagi Ossuriya kuchaya boshiaydi. Ossuriyaning kuchayishidan xavfsiragan Urartu Shimoliy Suriya va Kichik Osiyoning sharqiy qismidagi katta-kichik davlatlar bilan ittifoq tuzadi. Ossuriya podshosi **Tiglatpalasar III** qo`shinni qayta tuzib, miloddan avvalgi 743-yili Suriyaning Arpada shahri yaqinida bo`lgan jangda Sarduri II ittifoqchilarining qo`shinini tor-mor etadi. Jangda yengilgan Sarduri II qo`shinlari Urartuga chekinadilar.

Miloddan avvalgi 735- yili Ossur qo`shinlari Urartuga qo`shin tortib Urartu qo`shinlarini yengadilar. Sarduri II vafotidan kcyin Urartu taxtiga uning o`g`li **Rusa I** (miloddan avvalgi 735—712-yillar) o`tiradi. Rusa I hukmroniigi davrining dastlabki yillarida mamlakatda g`alayonlar va fitnalar boshlangan. Podsho mamlakatdagi ichki nizolarni bartaraf qilib, vaziyatni yaxshilagan. U Kavkaz va Sevan atroflarida 23 podsho ustidan g`alaba qozongan. Urartuni mustahkamlanayotganidan xavfsiragan Ossur podshosi Sargon II miloddan avvalgi 714- yili Urartuga qarslii qo`shin tortib

kelgan. Urmiya ko`li atrofidagi jangda ossurlar qo`shinlari Rusa I qo`shinlarini yengib, shahar va qishloqlarni vayron qiiganlar. Ossurlar juda katta boylik va ko`p sonli asirlar bilan orqaga qaytganlar. Qaytishda uiar *Musasirga* kirib uni ham vayron etib, boyliklarini talaganlar. Bu xabarni eshitgan Rusa I o`zini-o`zi o`ldirgan. Rusa I vorislari, xususan Rusa II davrida Urartu o`z mustaqilligini saqlab qolgan bo`lsa ham, awaigi shon-shuhratini boy bergan edi. Shu davrda Uraitu podshotari Ossuriya bilan osoyishta va tinch-totuv yasbashga harakat qilganJar. Ammo Old Osiyodagi keyingi tnudhish voqealar natijasida Urartudagi osoyishtalik uzoqqa cho`zilmagan.

Xuddi shu davrda Urartuga shimoldan dastlab kimmeriylar, so`ng skiflar bostirib kirib mamlakatni xonavayron qilganlar. Sharqdan esa Midiya qo`shinJarining hujumi boshiangan. Dastlab ular Manani, so`ng Urartuni bosib olgaalar.

Shunday qilib, janubdan ossur, shimoldan kimmeriy, skif va sharqdan midiyaiiklar bergan zarbalar natijasida Urartu davlati o`z mustaqilligini yo`qotgan. Miloddan avvalgi 590-yili Urartu Midiyatomonidan bosib olmadj va barham topadi.

**1. Mamlakatning ijtimoiy tuzumi.** Urartu Old Osiyodagi boshqa davlallar kabi quldorlik davlati edi. Urartuda xo`jalikning rivojlanishi talonchilik urushlari va boshqa omillar natijasida asta-sekin xususiy mulk paydo bo`la boshlaydi. Xususiy mulkning orta borishi oqibatida esa mulkiy tengsizlik kelib chiqadi. Mulkiy tengsizlik esa o`z navbatida tabaqalanishni keltirib chiqardi. **Tabaqalar** bu jamoa a'zolarining boy-badavlat, o`rtahol, kambag`al va qullarga bo`linishidir. Miloddan avvalgi II mingyillikning birinchi yarmida Kavkazortida yasbagan qabilalar orasida ham tabaqalanish sodir bo`la boshlaydi. Jamoa tomonidan saylangan oqsoqollar va harbiy boshliqlar asta-sekin boyib bora boshlaganlar. Enditikda ular o`zlarini oddiy kishilar emas, baSki mashhur kishilar **aslzodalar** — ya'ni **zodagoniar** deb hisoblaganlar. Boyib borayotgan Urartu qabilalarining harbiy yo`lboshchilari va oqsoqollari to`plagan boyHklarini farzand va aka-ukalariga meros qilib qoldirganlar. Bugina emas ular egallagan oqsoqollik va harbiy boshliqlik lavozimlarini ham o`g`il yoki aka-ukalariga meros qilib o`tkazganlar. Urartuda qabilalar ittifoqining harbiy boshliqlari va oqsoqollari asta-sekin qabila ittifoqining sardorlariga, hokimlariga aylana boshlaganlar. Hokim va sardorlar katta haq-huquqqa ega bo`lib, keyinchalik o`zlarini podsho deb hisoblaydigan bo`ldilar. Shunday qilib, podsho darajasiga ko`tarilgan kishi, podsholik lavozimini o`g`illari va ukalariga meros qilib qoldiradigan bo`lganlar. Urartu davlati tashkil topib, gullab-yashnab, inqirozga yuz tutib, parchalangunicha

bollgan davrda ham podsholik taxti otadan bolaga va aka-ukalarga tneros bo`lib o`tgan. Sharqdagi boshqa davlatlarda bo`lgani kabi Urartu podshoiari huzurida uning aka-ukalari, qabila oqsoqo!lari va harbiy boshliqlaridan iborat asfzodalar kengashi bo`lgan. Urartu podsholari katta huquqqa ega bo'lsa]ar-da, davlatni ana shu aslzodalar kengashiga tayanib boshqarganlar.

**2. Dehqonchilik va chorvachilik.** Arxeologlarning bergan ma'lumotlariga ko`ra Urartuda yashagan eng qadimgi kishilar dastlab, faqat, ovchilik va termachilik bilan kun kechirganlar. Keyinchalik ovchilikdan chorvachilik, termachilikdan esa dehqonchilik ajralib chiqqan. Markaziashgan Urartu podsholigining tashkil topishi munosabati bilan u yerda dehqonchilik, chorvachilik, Siunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlangan.

Ma'lumki, Urartu hududidagi tog`lardan Araks, Kura, Frot, Dajla daryolari boshlanadi. Tog` oralaridan ko`plab soyiar oqib chiqadi. Tog` oralig`idagi daryo va soy sohilidagi uncha katta bo`lrnagan vodiylarningtuprog`i unumdorbo`lgan. Qadimgi Urartu dehqonlari yerni omoch bilan haydaganlar. Yerga *arpa, bug`doy, rariq, kunjut* va boshqa don ekinlari ekib ulardan mo'1 hosil olganlar,

Urartuda bog`dorchilikka ham katta e'tibor beritgan. Urartu bog`bonlari uzumdan sifatli musalias tayyorlashni yaxshi bilganlar. Qadimgi Urartu shaharlari kovlanganda alohida musallasxonalar, bu xonalarda yarrni yerga ko`milgan katta xunilar topilgan.

Qadimgi Urartuning katta qismi tog`lardan iborat bo`lgan. Tog`lar orasidagi vodiylarda sero`t yaylovlar yaslanib yotar edi.

Urartlar yilqichilikka katta ahamiyat berganlar. Araeologlarning ma'lumotlariga qaraganda Urartuda ot miloddan avvalgi II mingyillikning ikkinchi yarmida, tuyalar esa II mingyillik oxiri va I mingyillik boshiarida paydo bo`lgan ekan. Chorvadorlar ho`kiz, eshak, xachir va tuyalardan xo`jalik va harbiy maqsadlarda

foydalanganlar. Yilqichilikka katta e'tibor berilib, salt otlarning alohida zotlari o`rgatib parvarisli qilingan. Otlar jang aravalariga qo`shilgan. Urartu jangchilarining bir qismini otliq qo`shin tashkil etgan ekan.

Urartuning chorvaga boy ekanligi ossur va urartu yozuviarida ham o`z ifodasini topgan.

**3. Hunarmandchilik va savdo**. Qadimgi Urartuda hunarmand-chilik ham yaxshi rivoj topgan edi. U yerda *toshtarashlik, ma'-dansozlik, quroisozlik* rivoj topgan edi. Ustalar turli tosh va ma'danlardan *omoch tishi, o`roq, pichoq, xanjar, nayza va o`g uchlari, panshaha, dubulg`a, qalqon, zirh, fegirmon tosh, jang aravalari* va *oi afzallari* yasaganlar.

Qadimgi Urartuda to`qimachilik, kulolchilik va binokorlik ham rivoj topgan edi. Urarttar Kichik Osiyo, Kavkaz, Mesopotamiya, o`rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar bilan qizg`in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

**4. Qadimgi Urartu madaniyati.** Urartlar va uiarga qarindosh bo`lgan Kavkazorti qabilaiari Old Osiyoning eng azaliy xalqlaridan biri bo`lgan. Ular qo`shni xalqlar madaniyatidan foydalanib Urartu xalqlarining o`ziga xos madaniyatini yaratganlar.

Urartlar o`zining qadimiy yozuviga ega bo`lgan. **Ular iyeroglif va inix-ponasimon yozuvlardir.** Urartlar o`z yozuvlarini yaratisbda Mesopotamiya yozuvlaridan foydalanganlar. Ular Mesopota-miyaning surat-belgi va mix-ponasimon yozuvlarini o`rganib, soddalashtirib va biroz mukatnmallashtirib o`z yozuvJarini yaratganlar. Qadimgi Kavkaz, Kavkazorti va unga qo`shni mamlakatlar hududidan iyeroglif va mixxat-ponasimon yozuvlari bilan sopol va toshlarga bitilgan so`z, matn-lavhalar topilgan. Bu matn-lavhaiar Qadimgi Urartu tarixini o`rganishda eng muhim manbalardan biri hisoblanadi.

**Mavzu№7Yangi Bobil davlati.**

Tayanch atamalar.G. Milikishvili, I. Orbali, B. Piatrovskiy, A. Seys, Tushpa, van, Sevan, Urmiya, Araks, Menua, Argishti I, Sarduri II, Argishtixinil, Teyshabaini.

Kassitlar xukmronligidan sung Bobil juda kuchsizlanib koladi. Miloddan avvalgi XIII asr oxiri— XII asr urtalarida shimoldan Ossuriya va janubdan Elam kushinlari Bobilga bir necha bor bostirib kiradilar. Shu asrning urtalarida Bobilning kup erlari Elam kushinlari tomonidan bosib olingan. Ammo elamliklar Bobilda uzok vakt kukmronlik kila olmaganlar. Isin shaxri xokimlari elamliklarga karshi kurashga boshchilik kiladilar. Navuxodonosor I (1126—1105) davrida Bobil kuchayib, uning kushinlari elamliklarni mamlakatdan xaydab chikaradilar. Miloddan avvalgi XI asr urtalarida esa arameylar Shimoli-Garbiy Mesopotamiyaga kelib urnashadilar. Miloddan avvalgi IX asr boshlaridai boshlab Fors kultigi soxillarida yashagan xaldeylar janubdan shimol tomon siljib, Mesopotamiya erlarini egallay boshlaydilar. Xaldey xukmdori Mardukaplaiddin II Bobilni egallab, uzini mamlakat podshosi deb e’lon kiladi. U elamliklar bilan ittifok tuzib, ossurlarga karshi kurash boshlaydi. Miloddan avvalgi 720 yilda Der kal’asi yonidagi jangda elamliklar ossurlarai engadilar. Miloddan avvalgi 710—709 yillarda Ossuriya podshosi Sargon II Bobilga yana xujum kilib, uni egallaydi. Miloddan avvalgi 703 yilda Mardukaplaiddin Ossuriyaning dushmanlari bilan ittifok tuzib, ossurlarga zarba beradi va Bobilni kayta egallaydi. Ammo Ossuriya podsholari Bobilga yana bir necha bor xujum kiladilar. Miloddan avvalgi 648 yilda Bobil vayron kilinadi, shaxarda vabo tarkalib, ocharchilik boshlanadi, kuplab axoli kirilib ketadi. Ocharchilik daxshatli tus olib, odamlar bir-birlarining gushtlarini eydilar.

Miloddan avvalgi 628 yili Bobilda ossurlarga karshi kuzgolon boshlanib, unga Xaldey xukmdori Nabopalasar raxbarlik kiladi. U ossurlarni engib, Yangi Bobil podsholigiga asos soladi. Ossuriya kushinlari Frot vodiysiga chekinganlar. Ular Misr fir’avni Nexo bilan ittifok bulib, bobilliklarga karshi kurashni davom ettirganlar.

Miloddan avvalgi 605 yilda Nabopalasar vafot etgach, uning ugli Navuxodonosor II (605—562) Bobil podshosi deb e’lon kilingan. Usha yili Karxamesh shaxri yonida bulgan jangda Navuxodonosor II ning kushinlari Misr bilan Ossuriyaning birlashgan kushini ustidan tuda galaba kozongan. U Suriyani ishgol kilib, misrliklarni Urta er dengizi soxillaridagi mamlakatlaridan surib chikargan va u erda uz ta’sirini kuchaytirgan.

Xaldeylar davrida Mesopotamiyada dexkonchilik, chorvachilik, xunarmandchilik va savdr-sotik ishlari rivoj topgan. Janubi-Garbiy Osiyodagi boshka davlatlar kabi Yangi Bobil podsholigi xam kuldorlikka asoslangan saltanat edi. Bu davrda Yangi Bobil davlati kuchayib, Bobil shaxri xam gullab-yashnaydi va sharkning eng obod va gavjum shaxarlaridan biriga aylanadi.

Bobil shaxri va avvallari kuprok kishlok xujaligi bilan band bulgan shaxarlar endi chinakam savdo xunarmandchilik markaziga aylandi. Ularning kupi avtonom-shaxar bulib, podsho xokimiyati ular xisoblashishga majbur edi. Savdo va sudxurlik bilan shugullanuvchi «Egibi xonadoni» kompaniyasining ta’siri katta edi.

Savdo-sotikda koxinlar muxim urin tutgan. Ular bilan rakobatchi xarbiy-zodagonlar esa koxinlardan ancha zaif edi. Bu zamonlarda kishlok axolisining axvoli ancha ogirlashgan.

Yangi Bobil davlatida kulchilik masalalariga oid xujjatlarda yuzlab kullar nomi tilga olinadi.Bu davlatda kullar mexnatidan foydalanish yullari xam juda uzgargan. Endi kullarga uzining xususiy ustaxonasini ochib, yoki dukon ochib ishlab, olgan foydaning ma’lum kismini xujayiniga berib turishdan tashkari uz narxining 20 % mikdorida pul xam tulab turgan. Kulning omadi kelib, boyib ketsa, xatto kul sotib olishi va ba’zi xukularga ega bulishi xammumkin bulgan. Uning sud bilan mustakil aloka kilishi va ozod kishilar bilan shartnomalar tuzishi mumkin bulgan. Birok bunday kullar xam tulik ravishda xujayin ixtiyorida kolavergan, xujayin uni istagan vaktda sotib yuborishi yoki unga jazo tayinlashi mumkin bulgan.

Yangi Bobilning ravnaki uzok chuzilmagan. Podsho Navuxodonosor II vafotidan keyin ruxoniylar bilan xarbiylar urtasida kuchli tuknashuvlar bulib, miloddan avvalgi 556 yilda Bobil taxtiga ruxoniylar vakili Nabonid utiradi. U miloddan avvalgi 539 yilgacha podsholik kilgan. Nabonid .podsholigi davrida mamlakatda fitna va kuzgolonlar avj olib, Yangi Bobil podsholigi ancha kuchsizlangan. Ayni paytda Bobil bilan Midiya urtasidagi ittifok buzilgan va Eron kuchayib Midiyani uziga kushib olgan.

Nabonid podsholigining oxirlari va uning ugli Valtasar davrida eroniylar shoxi Kayxusrav Bobilni bosib olgan va butun Mesopotamiyani uziga karatgan. Urushda Nabonid asir tushib, ugli Valtasar esa eroniylarga karshi olib borilgan kucha janglarida kaxramonlarcha xalok bulgan. Shu bilan Mesopotamiyadagi Yangi Bobil podsholigi tugab, butun Janubiy-Garbiy Osiyoda Eron podsholarining xukmronligi boshlangan. Bobil miloddan avvalgi VI—IV asrlarda eroniylarga, IV asrning 30 yillaridan boshlab yunon-makedoniyaliklarga, sung salavkiylarga tobe bulib kolgan.

Kassitlar xukmronligidan so`ng Bobil juda kuchsizlanib қoldi.

XIII asr oxiri va XII asr o`rtalarida shimoldan Ossuriya va janubdan elam қo`shinlari Bobilga bir necha bor bostirib kiradilar. SHu asrning o`rtalarida Bobilning ko`p erlari elam қo`shinlari tomonidan bosib olingan. Ammo elamliklar Bobilda uzoқ vaқt xukmronlik қila olmadilar. Isin shaxri kohinlari elamliklarga қarshi kurashga boshchilik қiladilar. Navuxodonosor I (1126—1105) davrida Bobil kuchayib uning қo`shinlari elamliklarni mamlakatdan қuvib chiқardilar. Milloddan

avvalgi IX asr boshlaridan boshlab Fors қo`ltigi sohillarida yashagan xaldeylar janubdan shimol—tomon siljib, Ikki daryo oraligi erlarini egallay boshlaydi. Xaldey xukmdori Marduқaplaiddin II Bobilni egallab, o`zini mamlakat shohi deb e`lon қildi. U elamliklar bilan ittifoқ tuzib, Ossuriyaga қarshi kurash boshlaydi. Miloddan avvalgi 720 yilda Der қa`lasi yonidagi jangda elamliklar Ossuriyani engadi. Miloddan avvalgi 710 — 709 yillarda Ossuriya shohi Sargon II Bobilga yana xujum қilib uni egallaydi. Miloddan avvalgi 703 yilda Marduқaplaiddin Ossuriya dushmanlari bilan ittifoқ tuzib, ossurlarga zarba beradi va Bobilni қayta egallaydi.

Ammo Ossuriya shohlari Bobilga yana bir necha bor xujum қiladilar. Miloddan avvalgi 648 yilda Bobil vayron қilinadi.

SHarқda vabo tarқalib ocharchilik boshlanadi ko`plab axoli қirilib ketadi. Ocharchilik daxshatli tus olib, odamlar bir — birlari go`shtini eydilar.

Miloddan avvalgi 628 yilda Bobilda Ossuriyaga қarshi қo`zgalon boshlanib, unga Xaldey xukmdori Nabopalasar rahbarlik қildi. U ossurlarni engib, yangi Bobil shohligiga asos soldi. Ossuriya қo`shinlari Frot vodiysiga chekinadilar.

Ular Misr fir`avini Nexo bilan ittifoқ bo`lib bobilliklarga қarshi kurashni davom ettirganlar.

Miloddan avvalgi 605 yilda Novupalasar vafot etgan, uning o`gli Navuxodonosor II (605 — 562) Bobil shohi deb e`lon қilindi. U dadasi Novupalasar shohligi davrida armiyaga bosh bo`lgan dadasi vafotidan keyin uning aktiv istilochilik siyosatini davom ettirgan.

Suriya bilan Falastinga azalgi davosidan қaytmayotgan Misr Navuxodonosorning eng ashaddiy dushmani bo`lgan. Ayni zamonda xalқaro savdo — sotiқda faoliyati kuchayib o`rta dengiz tayanch punktlariga extiyoji ortib borayotgan YAngi Bobil shohligi. U tayanch punktlarini Misrga borishini istamagan.

Midiya, Lidiya, Kilikiya bilan ittifoқ tuzib, orқa tomonini mustaxkamlab olganidan keyin Navuxodonosor ossur shohlaridan farқ қilib jangovor kuchlarni ko`p қismini Misrga қarshi otlantirishi mumkin bo`lgan. Misr fir`avnlari bu kurashda juda katta diplomatik ustalik қilib, ular faқat xarbiy kuchlarga ishonib қolmasdan, mayda davlatlar YAxudiya shohligi va Tirni Bobilga қarshi қilib қo`ygan. YAxudiyada Misrga tarafdor gurux bo`lgan, saroy zadoganlari ayniқsa Misrga moyil bo`lib, YAxudiyani keyingi shohlariga kuchli tayziқ ko`rsatganlar.

Ieremiya paygambari Misrga moyil xukmron guruxga қarshi chiққan. U o`zini otashin nuқtlarida Bobilga қarshi nuқtalarlarida Bobilga қarshi kurashmaslikka chaқirgan, bu kurashni u foydasiz va xalokatga olib boradigan ish deb xisoblagan. Ieremiya bunday chiқishlari uchun bir necha bor ta`қibga uchragan. Bir marta loyga botib o`lishiga sal қolgan.

Ieremiyani barcha noroziliklari, pand— nasihatlari va daxshatli bashoratiga қaramay YAxudiya shohligi uzil—kesil Misr tomonga o`tgan va Navuxodonosar Misrga қarshi uzoқ kurashgan.

Navuxodonosar birinchi gal Қuddusni egallashda shaharni ayab axolini bir қismini қul қilib xaydash va shohini almashtirish bilan kifoyalandi. O`z kishisi TSidkiyani taxtga o`tkazgan. Ammo bu kor қilmagan yangi shoh bir oz ikkilanishdan keyin Misrga moyil zodagonlarning tayziқi bilan Ieremiyani nasihatlariga қuloқ solmay

Bobilga қarshi urush boshlagan. Bu orada Navuxodonosor yana Kuddus devorlari yoniga xujum қilib kelgan va uni 6 oy davomida қa`mal қilib turgan. Bobil askarlari eramizdan avvalga 586 yilda shahar devorlarini teshgan, shoh TSidkiya қochib қutilmoқchi bo`ladi, lekin asirga tushadi va ko`zini ko`r қilingan. Uning o`gillari o`ldirilgan. Poytaxt axolisi asir қilinib Bobilga xaydab ketilgan. Faқatgina dexқonlar қolgan ularning bir қismi Misrga o`tib ketgan.

Finikiya bilan kurashish YAxudiyadan ko`ra ogir ko`chgan. Tir shahri judayam қattiқ қarshilik ko`rsatgan. O`lik orolidagi қismga umuman bobilliklarni қo`li etmagan .

Kurash o`zaro kelishish bilan tugagan. Tir Novuxodonosorni oliy xokimiyatini tan olgan xolda o`zini avtonomligini saқlab қolgan. Navuxodonosor Misrga bostirib kirishga uringan, ammo uning bu yurishi manbalardagi gira —shira ma`lumotlarga қaraganda, aytarli natija bermagan. Ikkinchi tomondan, Misr fir`avnlari ham bir zamonlar Falastin va Finikiya ustidan bo`lgan xukmronliklarni yana tiklash to`grisidagi amalga oshmaydigan da`volaridan kechishga majbur bo`ldi.

Navuxodonosor istilochilik urishlarida o`lja қilib olingan juda ko`p mablaglarni va asir қilib xaydab kelingan ish kuchini (ayniқsa xunarmandlarni bitta қo`ymay xaydab kelganlar) қurilishlarda ishlatgan. Bobil uch қator devor bilan қurshab olingan hamda yangi қurilgan muxtasham binolar uni bezatib turgan. Ibodat xonaning ajoyib minorasi (zikkurat) tiklangan, maxsus platformalar ustida tog manzaralarini eslatib turadigan «osma boglar» deb nom olgan juda ajoyib park barpo etilgan.

Navuxodonosor erishgan katta muvaffaқiyatlariga va қudratiga қaramay, murakkab halқaro ahvolga hushyorlik bilan to`gri baho berib, SHarқ tomondan bo`ladigan hatardan havsirab turgan. U Midiya bilan sulx to`grisidagi bitishuv vaқtinchagina tinchlik beradi deb bilgan va mamlakatning sharқiy — shimoliy chegaralarini mustahkamlashda katta gamxo`rlik ko`rsatgan. Unda o`zi sog vaқtidayoқ «Midiya devori» deb atalgan butun bir istexkomlar va shlyuzlar sistemasini қurdirgan. Zarur bo`lib қolganida mamlakatning ancha қismini suv bostirib dushman yo`lini suv bilan to`sish mumkin bo`lsin uchun o`sha inshoatlar қurilgan. YAxshi hamki, Navuxodonosorning o`ziga u inshoatlardan foydalanishga to`gri kelmagan, chunki u shohlik қilgan davrda sharқiy қo`shnisi bilan totuvligi buzilmagan.

Navuxodonosor o`limidan keyin Bobilda kohinlar bilan xarbiy zodagonlar o`rtasidagi to`қnashuvlar tufayli, galayonlar boshlangan. Atiga etti yil ichida uchta shoh almashgan, eramizdan avvalgi 555 yilda taxtni kohinlar tarafdori Nabonid egallagan va u yangi Bobilning so`ngi shohi bo`lgan.

.

**8-mavzu: QADIMGI OSSURIYA SHOHLIGI**.

TAYANCH IBORALAR VA ATAMALAR.

1. Ossuriya shohligi.
2. «Limmu»

3. Ossuriya shohligining tashқi siyosati.
4. Tiglapalasar Iichki va tashқi siyosati.

Ossuriya davlati Dajla daryosining yuқori oқimi, Қuyi va yuқori Zab daryolari havzasida (hozirgi Iroқning shimoliy — sharқiy қismi) joylashgan. SHimolda Arman toglari, sharқda Zagros toglari janubda Bobil, garbda cho`l va saxrolar bilan o`ralgan.

Maydonining katta қismi togliқ, ozroқ қismi қirlar va pasttekisliklardan iborat bo`lgan. Ossuriya erlari ko`proқ chorvachilikka mos bo`lib, vodiy va dashtlarda dexқonchilik uchun imkoniyat bo`lgan. Bu erda kuz oylarida yomgir ko`p yogadi. Қish қisқa, sovuқ 14* —16* darajagacha bo`lgan. Bahori go`zal, yozi issiқ avgust oyidagi saraton issigiga chidash ancha қiyin bo`lgan.

Ossuriya toglarida yaylovlar ko`p. O`rmonlari ancha қalin turli hayvonlar, қushlar, daryolarda baliқlar serob bo`lgan. Zagros toglarida turli toshlar va ruda ko`p bo`lgan. Geografik sharoiti қulay Armanistonga, Kichik Osiyoga va O`rta er Dengiz mamlakatlariga boradigan eng қisқa yo`l shu erdan o`tgan shuning uchun mamlakat xo`jalik taraққiyotiga bu ta`sir etgan. Ossuriyada eng қadimgi davlat miloddan avvalgi III ming yillik oxiri II ming yillik boshlarida tashkil topdi. Bu Ashshur shaxar davlati edi. Ossuriya nomi ham shu davlat nomidan olingan. Davlat tepasida shoh turgan, shohlik otadan bolaga meros қolgan. Muxim davlat ishlarini oқsoқollar kengashi xal қilgan kengash a`zolari o`zlarini «limmu» deb ataganlar. Ularning har biri navbat bilan sheriklarining nazorati ostida bir yil muddatdan boshқaruvchilik vazifasini bajargan va xazinaga bosh bo`lgan. Limmu boshқaruvchilik қilgan yili o`sha limmu nomi bilan atalgan.

Miloddan avvalgi XX —XVIII asrlardan boshlab Ossuriya ancha mustaxkamlashib olgach қo`shni
viloyatlarga istilochilik yurishlari boshlagan. Ossuriya қo`shinlari janubda Fors қo`ltigiga, garbda Kichik Osiyo va O`rta er dengizi sohillaridagi boy malakatlar ustiga yurish natijasida u erlarda ossurlar o`z kolloniyalarini tashkil etgan.

Xammurapi davrida Ossuriya Bobil shohligiga қaram bo`lib қolgan. Mittani eramizdan avvalgi XVI asr oxirlarida eng yuksak қudratga erishgan shoh SHaushshatar sharқda kichik Zabdon, garbda Orontgacha bo`lgan erlarni o`z қo`l ostiga birlashtirgan. U Ashshurni tor —mor keltirib saroyni oltin va kumushdan yasalgan darvozalarini o`lja қilib olib ketgan. Ashshurga Mitani noiblarini қo`ygan. Bunday sharoitda Ashshurni Old Osiyodan savdo koloniyalaridagi savdo —sotiқ ishlari puchga chiққan bu xolat ilk Ossur shoxligini zaiflashuviga olib kelgan.

Miloddan avvalgi XV —XVI asrlarga kelib Ossuriya shoxligi kuchayib mustaқil tashқi siyosat yurgaza boshlagan. endi bu davlatda birinchi o`rinni savdogarlar emas, balki xarbiy zodagonlar egallagan. Bunday o`zgarishlar Ashurubalit shohligi davridabo`lgan. Bu xolat Mitanne davlatini Misr va Xett davlatlari xujumi natijasida zaiflashuvi bilan kuchaydi.

Ashurubalit Mitanini zaiflashuvidan foydalanib taxminan 1400 yillarda mustaқil tashқi siyosat yurgiza boshlagan va butun tashabbusini o`z қo`liga olgan. Ossuriya shohligi Salamansar I davrida kuchaydi. U Frot daryosi bo`yidagi katta Karxemish shahriga etib kelib Mitanni қo`shinlarini va ularga yordamga kelgan xettlarni tor—

mor keltirgan Mitanni bu maglubiyatdan keyin o`zini tiklay olmagan va Ossur shohligi xukumronligi ostiga tushib қolib, bir nechta mayda davlatlarga bo`linib ketgan.

Ossuriya қo`shinlari milloddan avvalgi XIII asrda Bobilga va elamga bir necha bor talonchilik yurishlari uyushtirgan ammo ularning mamlakatda қolish niyati bo`lmagan.

Eramizdan avvalgi XII asrda Ossur shohi Tiglatpalasar I shimolda қora dengiz soxiliga etib kelgan. SHimoliy Finikiyani o`ziga bo`ysindirib, finikiyaliklar kemasiga tushib, dengizda del`fin ovlaganlar.

Lekin XI asrda garbdan arameylar bostirib kirishi Ossuriya davlatini tushkunlikka uchratdi.

Eramizdan avvalgi Xasr oxirlarida Ossuriya yana kuchaygan. Bu vaқtda unga bas keladigan kuchli raқiblar bo`lmaganligi uchun unga katta қulaylik tugdirgan. Urishgan aramey қabilalari Ossuriyani eng katta dushmani bo`lgan, ammo arameylar birlashgan davlat tuza olmaganlar.

1. Arameylar joylashgan asosiy teritoriya bo`lmish Suriya mahalliy geografik sharoitlarga ko`ra tarқoқ bo`lib қolgan.
2. Ossuriyaning yashashiga taxlika solib arameylar istilosi xavfi ossur xukmron doiralarini ko`prsj қo`shin to`plashga va yangi texnika қurollarini yaratishga majbur etgan shu maқsadda Ossuriya o`z қo`shinni sonini 120.000 kishiga etkazgan.

Jang aravalari, otliқ askarlar ishga tushirilgan. Қa`la devorlarini maxsus taron yordami bilan қulatgan. Devor teshar қurollar ishlatgan (ballist va kataful`ta).

SHu bilan birga aytish keraki, ossur shohlari, sarkardalari va ular rahbarligidagi jangchilarning rahmsizligi va қonxo`rligi, urushda xech қachon insonparvarlik ko`rsatmagan boshқa қadimgi sharқ қo`shinlarining bizga ma`lum bo`lgan barcha jabr — zulmlaridan oshib o`tib ketgan. Maglub bo`lgan dushmanlarni eng vahshiyona usullar bilan jazolash Ossuriyada eng oddiy va қonuniy ish hisoblangan. O`z buyurtmachilarining didini juda yaxshi bilgan yilnomachilar va rassomlar maқlubiyatga nisbatan ishlatilgan jabr —zulm va jazolarni butun tafsilotlari bilan aynin tasvir қilganlar. Tirik kishilarning terisini shilib olish, ko`zini o`yish, lab va iyagini teshib arқon o`tkazish va shu kabi boshқa razil ixtirolar bo`ysunadirilgan xalқlarni jazolash va қo`rқitishning tabiiy usuli hisoblangan. Lekin razilliklar unga yordam bermagan, engilgan va xonavayron қilingan xalқlarning ossur xukmronligiga қarshi қo`zgolonlari tinmagan. Қo`shni mamlakatlarning shafқatsiz talanishi қattiқ қarshiliklariga sabab bo`lgan va bir o`lkaning xalқlari қayta — қayta bosh ko`tarib chiққanlar. YAngidan —yangi қarshilik o`choқlari paydo bo`lgan hamma joyga Ossuriyaning asosiy harbiy kuchlari etisha olmagan. SHuning uchun ham ossur қo`shinlari garchi yaxshi tashkil etilgan va mukammal қurollangan bo`lsa—da, ularni muvaffaқiyatlari mustahkam bo`lmagan.

Ossur istilochilari shimoliy Ikki daryo oraligida mustahkamlanib olib, undan nari Suriyaga, Finikiyaga va ularga yondosh Kichik Osiyo o`lkalariga bostirib kirganlar

va ulardan o`lja xiroj va majburiy tortiқlar tariқasida қimmatbaxo xom ashyo ayniқsa metall olib ketganlar.
Ossur қo`shinlari sharқiy O`rta er dengiz sohillariga yurganlarida hammadan ko`ra, eng kuchli aramey davlati bo`lmish Damashқ shohligining қattiқ қarshiligiga duch kelgan. Ossur қo`shinlari ossur shohi Salamansar III davrida (eramizdan avvalgi 859 — 824 yillar) bu davlatga to`қnash kelgan.
Damashқ juda tezkor istelochiligiga қarshi 11 shohlik va қabiladan iborat katta bir ittifoқ tuzib, Ossur қo`shinlarining garbi — janubiga boradigan yo`lni to`sishga muyassar bo`lgan. Xal қiluvchi to`қnashish eramizdan avvalgi 853 yilda (Oront daryosining boshida) Karkara shaxri yonida yuz bergan. Bu jangda nihoyat darajada ko`p қon to`kilgan. Garchi Salamansar III, men golib keldim, 14000 dushmanni қirib tashladim, deb maқtansa ham, bu jangdan keyin iziga қaytib ketgan, bu esa uning naқadar kuchli қarshi zarba olganligidan dalolat beradi (Ossur yilnomachilari o`zlarining қancha jangchidan ajralgani to`grisida lom —lim demaydilar).
Damashқ shohi boshchilik қilgan ittifoқning buzilishigina Salamansar SHning ishini o`nglab olishga yordam bergan. Ossuriyaga қarshi koalitsiyaning asosiy ishtirokchilari bo`lgan Damashқ bilan Isroil shohlari Iordandan sharқ tomondagi erlar ustida janjanlashib, o`rtada nizo chiққan va o`zaro uzoқ urishganlar, bu albatta, Ossuriyaga juda қo`l kelgan.
Salamansar III Damashққa қarshi otlangan, uni қamal қilgan, atrofini vayron қilgan, shahar atrofidagi gullab —yashnab turgan boglarni kesib, қiyratib tashlagan. SHaharni o`zini ishgol қilolmagan, ammo O`rta er dengiz қirgoқlariga etib borgan, unda Tir, Sidon va Isroil elchilari unga sovgalar in`om қilishgan. SHunday қilib, Salamansar III o`zining asosiy dushmanini zaiflashtirishga muyassar bo`lgan, lekin batamom tor —mor keltirishga қurbi etmagan.
Salamansar III ning o`zi va vorislri (shu jumladan, nevarasi bolaligida mamlakatni idora қilgan Semiramida ham) janubda, Bobilda ossur tarafdorlaridan foydalanib o`z ta`sirlarini diplomatiya yo`li bilan mustaxkamlashga uringanlar.
Ossuriya sharқda eramizdan avvalgi IX asr davomida Zagros tog tizmasining etaklarini (Ossuriyaga zotli otlar yuborib turadigan Midiya yo`lini) egallash uchun қattiқ urushlar olib borgan,

## 9-mavzu: **Suriya, Falastin va Finikiya.**

MAVZUGA OID TAYANCH IBORALAR, ATAMALAR.

1. Қadimgi Falastin va Suriya.2. Mustaқil shahar — davlatlar.3. Kedesh shahrining Suriyadagi mavқei.4. O`rta er dengizi va Finikiya.5. Finikiyada xunarmandchilik.6. O`rta er dengizi va savdo.

Suriya va Falastin togli mamlakatlardir. Ularda katta daryolar yo`қ faқat Frotning o`rta oқimigina Suriyaning sharқ tomonidan bir oz oқib o`tadi.

Faқat Falastinni shimolidan — janubigacha oқib o`tgan Iordan daryosi o`tadi lekin

uni suvi yozda kamayib ketadi, қishda bir oz ko`payadi. Iordan o`lik dengizga o`z suvini қuyadi. Aslida u dengiz emas, suvi oқmaydi sho`r, unga tushtan baliқ ham o`ladi. Suriya bilan Falastinning ancha қismini tog tizmalari

(Livan, Antilivan, Kormal) kesib o`tadi. Toglar oraligidagi vodiylarda dehқonchilik қilinadi. Bogdorchilik uchun bu erlarni sharoiti қulay (uzum, anjir, zaytun, olma). Gallachilikda arpa, bugdoy taraққiy қilgan. Katta o`rmonlar bo`lgan lekin hozir yo`қolib ketgan.

Қurgoқchilik bu erlarga ko`p falokatlar olib kelgan. Garchi ko`p joylarda erlarni sugorib ekishga xarakat қilinsada daryo va suv kam bo`lganligidan bu urinishlar natija bermagan. YOgin kam bo`lgan yillari ocharchilik bo`lgan. Iқlim қuriқligini kuchayishi Suriya cho`lida (hozir bu cho`llar sahrolarga aylangan) shuningdek Falastin janubida va Falastinga yondosh Sinay yarim orolida ayniқsa қattiқ sezilgan. Keyinchalik tuyachilik bilan shugullangan.

Suriya bilan Falastin Dajla va Frot havzalaridan Nil vodiysigacha boradigan hamda Arabiston cho`l, sahrolaridan O`rta er dengiz havzalariga va Kichik Osiyoni tizma toglariga boradigan yo`llari kesishgan demak xilma —xil xalқlar, қabilalar bir —birlari bilan uchrashgan va aralashganlar.

SHuning uchun ham Suriya va Falastin aholisining etnik sostavi juda xilma —xil bo`lishiga taajjublanishga o`rin yo`қ.

Er.av. III ming yillikda xanaaniylar deb umumiy nom olgan garbiy semit қabilalari ko`pchilikni tashkil etgan va Misr chegaralaridan tortib Orant havzasigacha bo`lgan butun mamlakat o`sha қabilalar nomi bilan xanaan mamalkati deb atalgan.

Lekin bu axolini azaldan shu joyda o`tirib қolgan deyishga xech қanday asos yo`қ. Bibliyada keyinchalik yo`қ bo`lib ketgan ibtidoiy қabilalar to`grisida bir necha ma`lumotlar bor. Bu bayonlarda ertaklarga xos tafsilotlar ko`p. Bu erlarda istiқomat қiluvchi қadimgi odlamlar goyat bahaybat, polvonlar қilib, goh murdalar ruxi қilib tasvirlanardi. Ularni barchasi yaxudiylarga va xanaaniylarga қarshi қo`yilgan.

Suriya va Falastinni muxim hislati shundaki unda katta davlatlar bo`lmagan. Bunda juda ko`p mustaқil shahar davlatlar bo`lgan. Ularni ko`pini shohlar idora etgan,

ammo ular Misr Fir`avnlari yoki SHumer — Akkad shohlari singari mustabid xokimiyatga erishishni hayoliga keltirmaganlar. Undagi shohlar xokimiyatini қuldor, zodagonlar cheklab қo`yganlar. Har bir davlat xududini shahar va uning atrofidagi қishloқlar bilan chegaralangan. Kamdan —kam xollarda bir necha shahar birlashib etakchi rol’ o`ynashni da`vo қiluvchi davlat barpo қilgan, ammo birini — biridan toglar ajratib turgan, yagona suv yo`li bo`lmagan shunisi bilan қadimgi Misr hamda қadimgi Ikki daryo oraligidan farқ қilib bu mamalkatda davlatlarning birlashishini amalga oshirish mumkin bo`lmagan.

Eramizdan avvalgi II ming yillikda Ugarit ayniқsa yuksalgan u O`rta er dengiz қirgoқlarida kichikroқ bo`lsada unumdor tekislikka joylashgan. Unda iқtisodiy taraққiyot muxim ijtimoiy siljishlarga olib kelgan.

Ugarit Old Osiyoning boshқa markazlaridan oldin misga boy Kipr bilan doimiy aloқa o`rnatgan. Keyinchalik Krit — Mikena bilan aloқada bo`lgan.

Egey dengizi va Kichik Osiyo mollari Mari va Bobilga Ugarit orқali olib borilgan. Mari va Bobildan esa Ikki daryo orligining mollarikeltirilgan. Ugaritda mixxat alifbosi barpo қilingan.

Suriyaning қuruқ қismida eramizdan avvalgi II ming yillik boshlarida Xalpa shahri kuchli bo`lgan. Lekin u uzoққa bormagan, u zaiflashib xettlar xukmronligi ostiga tushib қolgan.

So`ngra, Kadash shaxri Suriyani siyosiy markaziga aylangan. Lekin bu ham uzoққa bormagan er. av. XIV asrda Ugarit, Xalpa, Kadesh ham xettlar xukmronligi ostiga tushib қolgan. (Er.av. 1400 yilda Ugarit xatto vayron қilingan). Ammo II ming yillikning ikkinchi yarmida janubiy Finikiya shaharlari yuksalib borgan Misr bilan Xett shohligi o`rtasidagi ziddiyatlardan foydalanib mustaқil bo`lib olgan. Janubiy Finikiyada Bibl, Sidon, Tirning roli ortib borgan. Bular ichida Sidon oldinga chiқib olgan. Gomer dostonlarida finikiyaliklarni sidonliklar deb atashgan. Sidon er. av. 1200 yili «dengiz xalқlari» istilosidan қattiқ zarar ko`rgach, shundan keyin asosiy mavқei Tir shahriga o`tib bir necha asr davomida u ustun bo`lib kelgan.

Қadimgi Finikiya O`rta er dengizining sharқidagi o`lkalardan biri bo`lib, Garbdan

O`rta er dengizi, shimoldan Kichik Osiyo, janubdan Falastin, sharқda Suriya — Mesopotamiya dashti bilan o`ralgan.

Finikiya erlarini bir қismini Livan va Antilivan toglari egallab turadi. Toglar orasida va dengiz tomonda uncha katta bo`lmagan unumdor vohalar bor, toglar orasidan Iordon, Oront daryolari va ko`plab soylar oқib o`tadi.

O`lkada er osti boyliklari ko`p emas, toglarda қimmatbaho darahtlar o`sadi. Ularning iқlimi mo``tadil, dengiz tomoni iliқ, dasht tomonlari issiқ. Қishi u қadar sovuқ emas. Dengiz sohilida kemalar to`xtashi uchun ko`rfazlar bor. SHaharlarning ko`pi ko`rfazlarning yaқinida joylashgan.

Қadimgi Finikiya erlari odamlarning yashashi uchun ancha қulayliklarga ega bo`lgan. Ma`lumotlarga Қaraganda bu erlarda odamlar қadimgi tosh asridan beri yashab keladilar. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan tirikchilik қilgan. Miloddan avvalgi VI —V ming yilliklardan boshlab aholining bir Қismi o`troқ hayotga ko`chib dehқonchilik, chorvachilik bilan shugullana boshlagan. Finikiyaning eng қadimgi aholisi xurriylar bo`lib, keyinchalik bu erga xett, somiy, eron, yunon, misr va rimliklar kelib joylashganlar.

Miloddan avvalgi IV ming yillik oxiri III ming yillik boshlarida Finikiyada dehқonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo —sotiқ rivojlanishi natijasida ibtidoiy қishloқlar o`rnida shaharlar vujudga kela boshlagan.

Axoli o`rtasida tabaқalanish ro`y bergan. Bu shaharllar Bibl, Sidon, Tir bo`lib har bir shaharning o`z shohi ma`muriy idoralari bo`lgan.

O`rta er dengizi қirgogida joylashgan Finikiya shaharlari bir tomondan Osiyo mamlakatlari va ikkinchi tomondan Janubiy Evropa va Afrika malakatlari o`rtasidagi savdo — sotiқni o`z қo`llariga olganlar. Ular savdo yo`llarni garb va janubga ko`chganligidan foydalanganlar. Ular dastlabki vaқtlarda Misrni қurilish yogochi, қuritidgan baliқ, vino, zaytun moyi bilan ta`min etgan bo`lsa, keyin hunurmandchilik buyumlari bilan ta`minlaganlar. Kiprdan mis, Kichik Osiyodan kumush, қo`rgoshin,

temir. Misrdan oltin olib keltirgan Finikiya ustalari metaldan buyumlar ishlashda katta muvaffiқiyatlarga erishgan.

Finikiya ustalari ishlagan shisha buyumlar ham juda chaққon sotilgan. Ular bu hunarni dastlab Misr va Bobildan o`rgangan bo`lsalar ham bu soha bu erda ravnaқ topgan. Bo`yoқchilik ishi ham Finikiyada rivojlangan ayniқsa gazmollarni rangga bo`yashda bularga etadiganlari bo`lmagan., қirmizi (to`қ — қizil, bardovie) rang o`sha davrda dengizdan olib chiқilgan malyuskalardan olinar edi. Malyuska bo`yogi o`chmaydigan rang bo`lgan.

Bibl, Sidon, Tir verflarida eshkakli katta — katta kemalar қurilgan. eshkakchilar odatda қullar bo`lib, ular kishanlab қo`yilgan.

Finikiya savdogarlari va ustaxona egalari Қadim zamonlardan umuman shafқatsiz, zolim қuldor sifatida ta`riflangan. Қullarni xattoki boshқa mamlakatlarga olib borib sotgan. «Odisseyada» yozilishicha Greklarning Siru oroliga Finikiya savdogarlari kelib to`xtagach mahalliy boshliқ (basiley)ning xotini ular keltirgan қimmatbaho buyumlarni sotib olishga borishib, o`gli evmeyni yo`қ bo`lib қolganini sezadilar. Finikiyaliklar evmeyni o`z kemalariga olib kirib, uni boshқa orol Itakaga olib ketib sotadilar. evmey қulfurushlar roziligi bilan cho`chқaboқar bo`lib ketgan.

## Mavzu: Qadimgi Xett podsholigiva kichik Osiyo

**Kichik Osiyoning tabiati.** Kichik Osiyo yarimorol bo`lib, Osiyoning glarbiy qismida joylashgan. U uch tomondan *o`rtoyer, Egey, Marmar va Pont (Qora) dengizlari* bilan o`ralgan. Osiyo atamasi sharq, kun chiqish tomon degan ma'noni bitdiradi. Kichik Osiyoning markaziy qismida Anato`liya yassitog`ligi bo`lib, atroftni ***Pont, Tavr*** va ***Antitavr*** tog`lari o`rab turadi. Tog` oralaridan *Meandr, Qizilirmoq, Yashilirmoq, Jayhun, Sayhun* daryo va juda ko'p soylar oqib chiqadi. Daryo bo`yi vohalari va dashtlarning tuprog`i unumdor. Yarim orolning dengizga yaqin joylarida iqlim mo`tadil, sharqqa tomon quruqlashib boradi. Kichik Osiyoning shimoliy va janubiy tomonlari o`simlik va hayvonot dunyosiga boy. Yarim orolda *oltin, kumush, mis, temir, qalay* kabi ma^danlar, *xilnia-xil tosh konlari* ko`p. bli o`lka odamlarning hayot kechirishlari uchun yaxshigina quiayliklarga ega bo`lgan. Shuning uchun bu yerda juda qadim zamonlardan boshlab kishilar yashab kelganlar. Keyinchalik yarim orolda *xettlar, xuritlar, ossurfarva kashk* kabi qabilalar yashaganlar. Lekin aholining asosiy qismini *xeitlar* tashkil etgan. Xettlarning kelib chiqishi haqida turli fikrlar bor. Miloddan avvalgi II

ming-yillikning ikkinchi yarmidan boshlab yarim orolga *axeylar, dengiz, xalqlori, firigiylar* va *kimmeriylar, eroniylar, yunonlar* va *rimliklar* Idrib kelib joylashganlar.

Qadiin zamonlardayoq Kichik Osiyoda **Troya, Lidiya, Frigiya** va **Xett** kabi davlatlar tashkil topgan cdi. Bular orasida **Xett podsholigi** qudratli davlat darajasiga koLtari!gan.

**2. Qadimgi Xett podsholigi.** Miloddan avvalgi III mingytllik oxiri va II mingyillik boshlarida Kichik Osiyoda juda ko`p qabilalar yashaganlar. Ular bidasbib **Nesa, Kanish Burusxand, Kussar** va **Xattusa** kabi alohida shahar-daviatlarini tuzganlar. Miloddan avvalgi XVIII asr boshlarida Kussar liukmdori ***Pitxan*** yarimorolning sharqiy qisrnini birlashtirib, o`ziiii podsho deb e'lon qilgan. Pit-xaning o`g`lJ ***Anitta*** uzoq davom etgan qattiq janglardan so'ng Nesa Xattusa, Zalpuva kabi shahar-davlatlarini bosib oltb, ***Xett podsholigiga*** asos soiadi, **Nesa** Xett podsholigining poytaxtjga aylantiriladi.

Miloddan avvalgi 1680—1650- yillarda hukmronlik qilgan La-borna (Taborna) mamlakatni birlashtirishni oxiriga yeJkazadi. U mamlakatning ko`p joylari va Qora dengizning janubiy so-hillarigacha bo`Igan yeriami iste^lo qiladi. Ularni Xctt davlati tar-kibiga qo`shib oladi. U poytaxini Nesodan **Xattusaga** ko`chiradi. Podsho ***XamsiH*** /(1650-1620) va ***Mvrsili*** I (1619-1590) davr-laridaXett podsholigi kuchayib, xett qo`shinlari shimoliy Suriyadagi Xalpa va Bibl shaharlarini bosib oladilar. Shu davrda mamlakat ichkarisida qullar va kambag`allar qo`zg`olon koLtarganlar. Xett Podsholari saroyida fitna kucbayib XattusilJ I ga nisbatan suiqasd uyushtirilib u o`z kuyovi tomonidan o`ldiriladi. Podsho Telepen davrida (1520—1490) Xctt podsholigi bir oz kuchaygan. Lekin Telepen vafotidan so`ng podsholik kuchsizlanib inqirozga uchragan.

**3. o`rta Xett podsholigi.** Telepen vafotidan keyin, uning o`g`il-lari o`rtasida toj-taxt uchun kurash boshlanadi. Bu davr miloddan avvalgj XVI asr oxiri va XV asrni olz ichiga oladi. Olrta Xeit pod-snoligi davrida podsholik kuchsizlanadi. Shu davrda podsholikning J^nubi-sbarqida Milanni davlati kuchayib, Mitanni qo`shinlari Kilikiyaning bir qismini bosib ojadilar. Shirnoldan esa Qora dengiz sohillarida yashagan kask qabilalari xettlar yurtiga hujum qilib, Xattusu shahrini bosib oiib, uni vayron qiladilar. o`rta Xetl podsholigi davomida kambag`allar va qullar qo`zg`oloni kuchayib ketgan. Saroyda toj-taxt uchun kurash ham qizg`in tus olgan. Tashqi dushmanlarning hujumi, ichki g`alayonlar va zodagonlar orasidagi o`zaro kurashlar podsholikni halokat ostonasiga olib kelib qo`yadi. Shu bilan o`rta Xett podsholigi ham o`z nihoyasiga yetadi.

**4. Yangi Xett podsholigi**. Miloddan avvalgi XIV asr boshlarida **Suppilulium** Xett davlati taxtiga o`tkadi. U serg`ayrat lashkarboshi, mohir diplomat va uzoqni ko`ruvchi dono siyosatdon edi. Suppilulium davrida Xett podsholigi qayta tikJanib ravnaq topadi. U Xett qo`shinlarining jangovarlik

jihatlariga katta e'tibor beradi. Xett qo`shini ot qo`shilgan tezkor jang aravalari bilan ta'minlanadi. Jang aravalarning har birida haydovchi, lcomondoz va qalqon-bardorlardan iborat uch jangchi bo`lar edi. Xettlar urushda jang aravalaridan foydalanishni giksoslar yoki mitanmliklardan qabu! qilgan bo`lsalar kerak. Urush vaqtida jangovar aravali qismlar shiddat va tezkorHk bilan hujumga o`tgan va dushman saflarirti sarosimaga solganlar. Podsho Xett shaharlarini. xususan mamlakat poytaxti Xattusaning mudofaa inshootlarini mustahkamlashga ham katta e'tibor bergan. Suppilulium qo`shni mamlakatlar ustiga lashkar yuborish, o`z qizlarini ularning shoh va shahzodalariga nikohlab berish va turli diplomatiya usuUarini qo`llab, ularni o`ziga qaratib oladi.

Jangovar xett qo`shinlari jamibi-g`arbdaArsava podsholigini, janubda Kilikiya va Suriyamng katta qismini bosib oladi. Xett qo`shinlari Mitanniga hujum qilib, g^olib chiqadilar. Mitanni podshosi saroy fitnachilari tomonidan o`ldiriladi. Shu davrda Ossuriya bilan Alshinning birlasbgan qo`shinlari Mitanniga bostirib kiradilar. Vaziyatdan foydalangan Xett podshosi o`z qizini Tushratining o`g`li shahzoda Shattivasga nikohlab, shahzodani Mitannitaxtiga o`tqizadi.

Suppilulium davrida Mitanni xettlarga qaram bo`lib qoladi. Suppilulium podsholigi davrida Xett podsholigi Qora dengiz bo`ylaridan Palastin, Bobil va Ossuriya chegaraiarigacha bo`lgan yerlarni o`z ichiga olgan edi.

Suppiluiium vafotidan so`ng taxtga Mursili II (1340—1305) o`tiradi. Mursili II davrida asosiy harbiy harakatlar Kichik Osiyoning janubi-g`arbida olib boriladi. Chunki Kichik Osiyoning janubi-g`arbida Arsava podsholigi rahbarligidagi Mira va Lukka davlatlari ittifoqi bor edi. Ular janubi-g`arbdan Xett podsholigiga xavf solib turar edilar. Mursili II Mira, Lukka va Miletlarni o`z tomoniga og`dirib, ittifoqchiiarni kuchsizlantirishga erishadi. Lekin ular hamon kuchli raqib boLlib turar edilar. Valma shahri yaqinida xettlar bilan Arsava ittifoqchi qo`shiiilari o`rtasida dahshatii jang bo`lib o`tadi. Jangda ittifoqchilar qo`shini yengilib, Arsava shobi va uning o`g`li qochib ketadilar. Xett qo^shinlari Apasu (Efes) shahrini egallab, Egey dengizi sohillariga chiqadilar Shundan keyin Arsava davlati Xett podsholigiga qaram bo`lib qoladi. Kichik Osiyo yarimoroiining katta qismi xettlar ixtiyoriga o`tadi. Bu davrda Xett podsholigining harbiy kuch-qudrati eng yuqori darajaga ko`tariladi.

**5. Xett podsholigining kuchsizJanishi va parchalanishi**. Mursili II podsholigining oxirlarida Old Osiyodagi ahvol o`zgaradi. Seti I va Ramzesll fir'avniik qilgan davrda— 1337—1235-yillarda Misr podsholigi kuchayadi. Misr fir'avnlari o`rtayer dengizining sharqiy solulidagi mamlakatlarni qayladan qo`lga kiritisb uchun xettlar bilan qattiq kurash olib boradilar. Bu urush railoddan avvalgi 1280-yili Misr-Xett sulhi bilan yakunianadi. Sulhga binoan Suriyaning katta qismi va shimoliy Finikiya xettlar, Palastin va Jamibiy Finikiya esa misrliklar ixtiyoriga

o`tadi. Shu davrda Ossur podsholari Mitannini olib, xettlarga tahdid soladilar. Xett qo`shinlari ularning hujumlarint arang qaytaradilar. Xettlar g`arbda Troadani istilo qilib, Sardi shahrini vayron qiladilar.

Miloddan avvalgi XHI asr oxirida g`arbdan Kichik Osiyo, o`rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlar va Misrga ,,Dengiz xalqlari" hujum boshlaydilar. ,,Dengiz xalqlari" — *axeylar, sardlik sherdonlar, tursha-etmskvaboshqa* qabilalaming ittifoqidan tashkil topgan edilar. Misr fir'avnlari juda qiyinchiiik bilan ularning hujumlarini qaytarishga muvaffaq bo`lganlar. Kichik Osiyodagi katta-kichik davlatlar, xususan Xett podsholigi ham ,,dengiz xalqlari" hujumiga bardosh bera olmaganlar. Xettlarning jangovar aravali qismlari ham bosqinchilarning qarshiiigini sindira olmagan. Miloddan avvalgi 1190-yiIi ,,Dengiz xalqlari"ning lashlcarlari ^ett podsholigi markazi Xattusani ishglol qilib, uni vayronaga aylaniiradilar. ,,Dengi^ xalqlari"ning bergan zarbalari natijasida vaqinginada qudratli hisoblangan Xett podsholigi barham topadi. Miloddan avvalgi XII—VIII asrlarda bu qudratli podshoiik mayda-mayda davlatlarga bolinib ketadi.

**1. Xettlaroing ijtimoiy tuzumi,** Xett podsholigi Sharqdagi boshqa davlailar kabi quldorlik davlati bo`lgan. Miloddan avvalgi III ming yillik oxiri va 11 mingyillik boshlarida Kichik Osiyoda katta-kichik shahar-davlailari tashkil topgan. Bu shahar-davlatlarni dastlab xalq yig`ini tomonidan saylangan hokimlar boshqarganlar. Keyinchalik esa shahar-davlat hokimligi lavozimi otadan bolaga, aka-ukalarga meros qilib qoldiriladigan bo`lgan. XetT podsholaridan biri **Tabarna** o`zini., ***Ulug`podstio"*** deb e'lon qilgan. Tabama Xett davlatiga asos soluvchi hisoblanib, uning ismi podsholik unvoniga aylangan. Sliundan boshlab Xett podsholari o`zlarini ,,tabarna" deb ataganlar. Ular o`z yozuv-vasiyatlarida o`g`liinni ,,tabarna" — podsho qildim deb yozib, hokimiyatni o`g`illariga topshirar ckanlar.

O`sha vaqtdagi yozuvlarning birida shunday deyiladi:

„***Ulug` podsho Tabarna*** *o`z* ***shahri Kussarda kasal bo`lib qolib o`g`li Murshilnipodsholikka chaqiradi".*** U o`z amaldorlariga ***,,Endi men o`g`limni sizlarning ustingizdan tabarna qilib qo`ydim",*** deydi.

Telepin davrida Xett davlati tashkil topadi va taxt vorisligi tartibga keltiriladi. Telepin yozuvlariga ko`ra podsholik bokimiyatini katta o`g`il, agar katta o`g`il bo`lmasa, ikkinchi o`g`il ular bo`lmagan taqdirda katia qizning eri — kuyov oHshi kerak ekan. Telepin yozuvlarida podsho huzuridagi zodagonlar kengashiga ham katta e'tibor berilgan. Bu kengash podshoning qarindosh-urug`lari, aka-uka!ari, bojalari, sarkardalari va boshqa amaldorlaridan iborat bo`lar ekan. Podsho katta huquqqa ega bo`lgan. Ammo mamlakat hayotiga oid ko`p masalalar kengash a'zolarining maslahati bilan amalga oshirilgan. Xettlar davlat, adliya, ijtiinoiy, iqtisodiy va oila masalalarida o'z qonunlariga ega bolganlar.

**2. Xettlarning xo`jaligi.** Kichik Osiyoning tabiiy sharoiti 11 yerda xo`jalikning hamma tarmoqlarini rivojlanishiga imkon bergan. Xettlar va ularning ota-bobolari qadim zamondan boshlab **Qizilinnoq, Sayhun, Jayhun** va boshqa katta-kichik soy bo`ylaridagi unumdor yerlarda dehqonchilik qilisbgan. U yerda dehqonchilikning ikki turi bo`lgan. Biri sug`orma dehqonchilik bolgan. Ziroatchilar katta-kicbik dawo va soy sohillarini o`zlashtirganlar. To`g`on, kanal va boshqa suv inshootlari qurib, sug`orma dehqonchilik bilan mashg`ul bo`lganlar. Ziroaichilikning ikkinchi turi bu lalmikor dehqoncbi-likdir. Suv chiqmaydigan va sug`oritmaydigan yerlarda ekin ekib, hosil olish lalmikor dehqonchilik deyiladi.

Miloddan avvalgi II mingyillikdan boshlab Kichik Osiyoda yilqichilik va otlarning turli zotlarini yctishtirish rivqjlantirUadi. Xettlar ot parvarish qilishni Mitanni xurritlaridan o`rganganlar. Olsha vaqtlarda otliq qo`sbin va ot qo`shilgan ikki g`ildirakli jangovar arava qismlari Xctt askarlarining asosini tashkil etgan. Xettfarning jangovar aravalari dushmanlarni dahshatga solgan. Xettlarda qa-dimdan boshlab, parrandachilik. asalaricfiUik va xo`jatikning boshqa tarmoqlari ham rivoj topgan edi.

Anatoliya toglarida oltin, kumush, mis. qo`rg`oshin. tuz, tosh va boshqa ma'dan konlari ko`p bo`lgan. Shuning uclum xettlar jarniyatida *tog`-kon sanoati, temirchilik, quroisozjik, qishloq xo`jalik qitmllarini* ishlab chiqarish yuksak darajada ravnaq topgan edi.

*Dehqonchilik, chorvachilik va hunannandchiUk rivojlanib* ortiqcha mahsulot ishlab chiqarilishi savdo-sotiqning jonlanishiga sabab bo`ldi. Mamlakatda awalo ichki savdo, solng tasbqi savdo harn rivoj topdi. XettJar har tomonga savdo yo`Uari tarmoqlanib ketgan qulay geografik olrinda joylasligan edilar, bu yerdan ular ana shu yo`Ilar orqali **YunoDiston, Urartu, Ossuriya, Mesopota-miya, o`rtayer dengizi** sohilidagi mamlakatlar va **Misr** bilan qizglin savdo ishlari olib borganlar.

**3. Xettlar madaniyati.** Xettlar ham Sharqning boshqa xalqlari kabi o`zlariga xos madaniyat yaratganlar. Xeit madaniyati Me-sopotamiya o`rtayer dengizi sohilidagi mamlakatlar, Yunoniston, Kavkaz va boshqa xalqlar madaniyatining ta'siri osiida shakllangan va rivoj topgan. Shumer-akkad yozuvi asosida o`zJarining ***Xett-iyeroglifv& mixxatsimon*** yozuvlarini yaratgaiilar.

Kichik Osiyo va unga tutash bo`lgan joylardan topilgan xilma-xil hujjat, xett qonunlari to`plami, Xattusili TIl bilan Ramzes II lar o`rtasida tuzilgan do`stlUc shartnomasi shumer-akkad, xett-iyeroglif va Misr iyerogliflari bilan yozilgan. Xett iyeroglif alifbosi va xatining mavjudltgi, xettlarda savdoning yiiksak darajada ckanligini ko`rsatadi. Xettlarda *aslronomlya, matemaiika, geomelriya, tarix, agronomiya, veterinariya, tabobat* va boshqa faniar o`z davrida ancha rivoj topgan. Qadimgi xettlarda *haykaltamshlik, fosh sathiga qo-bartma tosvirlar ishlash*

rivojlangan edi. Xett haykaltaroshlari xudolar, podsholar, jangchilar ot, ot qo`shilgan jang aravalari, yarim hayvon, yarini odam — sfinkslar haykallarini va toshga o`yib tushirilgan qabartma suratlarni ustalik bilan ishlaganJar.

Xett san'ati me'rnorchilikda ham katta yutuqqa erishgan. MG`morlar shoh saroylarida ajoyib qasrlar, ibodatxona va ma'muriy binolar qurganlar. Ularni Xett xudolari, podsholari va jangchilarning haykal ham qabartma suratlari bilan bezaganlar. Xettlarda adabiyol

ham rivoj topgan bolib, u xalq og`zaki ijodiyotidan kclib chiqqan. Xett adiblari ajoyib ertaklar, hikoyalar, afsonalar, dostonlar yaratganlar. „ *Ullikumin haqida qo 'shiq",* „ *Telepin haqidagl afsona"* va *»Illuyanke haqidagi afsona"* lar Xett adabiyotining ajoyib namunaiari hisoblanadi.

o`shadavrda *,,SuppUulium Jsolnomasi", ,,Mursili II solnomasA* va *nXattusili HI tarjlmai holi"'* kabi tarixiy asarlar ham yaratilgan.

Yangi Xett podsholigi davrida esa mesopotamiyaliklarning „ *Gelgamesh haqida dostoni",* Gesiodning „ *Teogoniey"* kabi asarlari xett tiliga tarjima qilingan ekan.

Xettlarning yozgan turli asarlari mazmun jihatidan boy bo`lib, xett dunyosining koLp jihatlarini qamrab olar edi. Xett madaniyati o`ziga xos bo`lib, sharq xalqlari madaniyatiga, xususan yunon. madaniyatiga katta ta'sir ko`rsatgan.

**4. Qadimgi Xett dini va e'tiqodi.** Xettiar hayotida va e'tiqodida ibtidoiy din va e'tiqod shakllari — yer, suv. tog`, qoya, moraa-qaldiroq kabi narsa va hodisalarga sig`inganlar. Keyinchalik xett dinida hositdorlik kuchlarini o`zida aks ettiruvchi tabiat onasi — ulug` ma'buda e'tiqodi kuchaygan. Ayni paytda xettlar tog` cho`qqilari, momaqaJdiroq, yashin, yog`ingarchilik va hosildorlik xudosi Te-shubni ilohiylashtirganlar. U bosh xudo hisoblanib, u *,,Osmon podshosi, Xett mamlakati homiysi"* hisoblangan. Uning xotini Quyosh xudosi bo`lib, u ham xettlar mainlakati homiysi, Xett podsholari maUkalarining homiysi hisoblangan.

Tesiiubni beliga qilich taqqan va chap qo`lida bir tutam yashin, o`ng qo`lida jang boltasi ushlagan zo`rjangchi qiyofasida tasvir-laganlar. Boshqa Xett xudolari ham turli qiyofada tasvir etilgan. Tesbub Xett davlatining tashkil topishi davrida daviat va podsho hokimiyatiga homiylik qiluvchi xudoga aylanadi. U yoki bu Xet podshosi hayot vaqtida bosh ruhoniy sifatida eng muhim diniy marosimlarni amalga oshirgan. Podsiio o`lgach, uning mhiga atab motam-ma'raka marosimtari ado etilib, u xudo bilan tenglash-tirilgan. Podsholar quyosh xudosi bassasini nshlagan holda tas-virlangan. Anatoliyaning Yazili-Qoyadagi momaqaldiroq xudosi Teshubning podshoni o`z o`g`lidek quchog`iga olib turgani tasvir-; langan. Podsho xudo darajasiga kotarilgan ekan, mamlakat a'yonlan va fuqaro uni ,,quyoshim" deb atashlari kerak bo`lgan.

Xettda xudolar nomi shunchalik ko`pki, Xett davlati bitimlarida oliy xudolar bilan bir qatorda *,,Xett mamlakatining 1000 xudosi"* tilga otinadi. Xettlar o`z xudolariga va muqaddas hayvonlarga a(ab qoya tosh sathiga qabartma suratlar o`yib, baykallar isWaganlar. Shuningdek, xudolariga bag`ishlab bayram kunlari qo`y, echki va qoramol so`yib qurbonliklar qilganlar.

## Qadiragi Troya va Frigiya podsholiklari

**1. Troya podsholigi.** Kichik Osiyoning shimoli-g`arbiy burchagida Gissarlik tepaligi qad ko`tarib turadi. Arxeoiog olimlar bu lepalikni qazib ochganlarida, u qadimgi **Troya** shahrming o`rni ekanligini aniqlaganlar. Bundan 4 ming yil muqaddam bu shahar Troada viloyatining markazi bo`lgan. Miloddan avvalgi. XXII asrda shahar dushmanlar tomonidan talanib, vayron qiiiiiib, yondirilgan. Keyinchalik Troya o`zini tiklab olgan. Miloddan avvalgi XVIII — XIII asrlarda Troya podsholigi gullab-yashnagan. Troyada xettlar, iuviiilar, firigiylar, yunoniar va boshqa qabilalar yashaganiar.

Bu davrda Troya shahri ham rivoj topgan. Uning atrofl tosh va pishiq g`ishtlar bilan o`ralgan. mustahkam devor bilan o`rab olingan edi. Shahar ichida podsho saroyi, ma'nuiriy binolar, ibodatxona. hadavlat kishilar, amir-amaldorlar va sarkardalarning muhtasham uylari qad ko`tarib turardi. bli davlat shu shahar nomi bilan **Troya podsholigi** deyilgan. Davlat tepasida shoh turib, u oqsoqoilar kengashi va xatq yig`ini bilan maslahatlashib ish yuritgan. Podshoiik otadan bolaga meros bo`lib o`tgan. Troyaliklar og`ir aslaba bilan qurollangan nayzadorlar. o`q-yoy bilan qurollangan piyoda, otliq va ot qo`shilgan jang aravalardan iborat kuchli qo`shin tuzganlar. Miloddan avvalgi XVIII—XIII asriar orasida podsholikda dehqonchilik, hunarmandchilik. chorvachilik va savdo-sotiq rivojlangan. Troyaliklar yilqichilikka alohida e'tibor berganlar. Ular otlardan xo`jalik va harbiy maqsadlarda foydalanganlar. Yunon tarixchisi Gerodot troyaliklarni “***ot o`rgatuvchilar****"* deb ataydi, ularning jang aravalarini hani esga oladi.

Miloddan avvalgi 1300- yilda Troyada qattiq zilzOa bo`lib, shahar katta talafot ko`radi.

**2. Yunon-Troya urushi.** Miloddan avvalgi 1260- yilda esa Miken shohi Agamennon boshliq yunon shahar-davlatlarining floti Troya ustiga bostirib keladi. Troya shohi Priam frigiyalik, likiyalik va rrakiyaliklami yordamga chaqiradi. Yunonlar bilan troyaliklar o`r-wsidagi urush 10 yil davom etadi. Yunonlar shaharni jang biian lolmay, hiyja *bilan* uni egallaydilar, shahar qo`Iga olingach, u talon-taroj qilinib, yondirib yuboriladi. Yunonlar behisob asir va katta o`ljalar bilan vatanlariga qaytadilar. Shahar 400 yilcha xarob bo`lib yotadi. Miloddan avvalgi 700- yilda yunonlar Troya o`rnida yangi **Ilion** degan shahar barpo qiladilar. Shu tariqa Troya o"zini o`nglay olmay, dastlab Frigiya so`ng Lidiya podsholigiga

qaram bo`lib qoladi. Keyinchalik TVoya yerlari Eron, Makedoniya, Pergom, Rim va Vizantiya davlatlari tarkibiga kiradi.

**Mustaqil o`qish. Troya oti va yunonlar hiylasi.** Yunonlar Troyani ishg`ol qilish uchim uzkiksiz janglar olib boradilar. Ular har qancha urinishmasin shaharga kira olmaydilar. Cbunki troyaliklar o`z shaharlarini mardonavor himoya qiladilar. Shaharni jang bilan ololmagan yunonlar hiyla ishlatishga jazm qiladilar. Ular YunonistonnJng Itaka oroli shohi Odisseyning maslahati bilan yoglocbdan katta ot yasaydilar. Yog`och ot ichiga jasur jangchilarni joylab, uni Troya shahri devori tagiga olib borib qo`yadilar. Yunon askarlari shahar devori atrofidan chekinib Egey dengizidagi orollarning biriga borib joylashadilar. Troyalikiar yunonlar hiylasidan bexabar ulkan yog`och otni shaharga olib kiradiiarva tomosha qUadilar. Tomoshadan keyin hamma uyquga ketadi. Hamma uyquga ketganiga ishonch hosil qilgan yunon jangchilari ot ichidan chiqib, uyquda yotgan troya jangchilarini o`ldirib, shahar darvozasini ochadilar.

Oroldan qaytib kclib darvoza ortida kutib turgan yimon jangchi-lari seldek shaharga bostirib kiradilar. Shaharda tnudofaachilar bilan yunonlar o`rtasida ayovsiz jang boshlanadi. Yunonlar g`aflatda qolgan troyalikiarni — erkaklar-u ayollami, qariyalar-u bolalarni beayov qiradilar. Shaharni talon-taroj qilib, unga o`t qo`yadilar. Yunonlar behisob boylikiarni qo`lga kiritib aholini asir qilib haydab ketadilar.

**3. Frigiya podsholigi.** Frigiya Kichik Osiyo g`arbidagi quldorlik davlatlaridan biridir. U Kichik Osiyo g`arbiy qismining o`rtasida joylashgan tog:Ii mamlakat. Frigiyadan ko`p irmoqli *Sangariy* daryosi oqib o`tadi. Uning iqlimi mo`tadil bo`lib, yog`ingarchilik bahor va qish oylarida ko`proq bo`ladi. Frigiyada xettlarga mansub qabilalar ham yashaganlar.

Miloddan avvatgi II mingyiliik o`rtalarida Makedoniya va Frigiyadan juda ko`p qafailalar ko`chib kelib, ular o`zlarini frigeylar deb atashgan. Miloddan avvalgi II mingyillikning ikkinchi yarmida frigeylar **Frigiya podsholigiga** asos soladilar. U!ar Troya urushi davrida troyaliklar bilan yelkania-yelka turib yunonlarga qarshi kurashganlar. Troyaliklar yunonlardan yengilgach. Frigiya Troyani o`z ta'siriga olgan. Miloddan avvalgi XII asr oxirida Frigiya qo`shinlarining sharqqa uyushtirgan hujumlari ossurlar tomonidan to`xtatilgan.

Miloddanavvalgi X—VIII asrJarda Frigiya podsholigi kuchayadi. Sangariy daryosining o`ng sohilida joylashgan Gordion shahri podsholik poytaxti edi. FrigiyalikJar oddiy dehqondan chiqqan podsholari **Gordiya** bilan g`ururlanganlar. Gordiyaning o`g`li shoh Midas davrida Frigiya podsholigi o`z kuch-qudratini saqlab turgan, U ilm, fan va madaniyat homiysi bo`lgan shohlardan edi. Midas podsholik chegaralarini kengaytirish uchun Sharq tomon yurish qilgan. Midas qo`shinlari Ossnriya shohl Sargon II qo`shinlari bilan tog`lik joyda bo`lib o`tgan

jangda yengilgan. Ossurlar 3000 qal'a, 10 shahar, 2400 asir va behisob boyliklarni qo`lga kiritganlar. Midas Ossuriya hukmronligini tan olib, Ossur shohiga o`lpon to`lashga majbur bo`Igan.

Miloddan avvalgi XIII asr oxirlarida atrofdan bo`lgan qo`shni qabilaiarning to`xtovsiz hujumlari natijasida Frigiya qo`shinlari mag`lubiyatga uchragach, shoh Midas o`z joniga qasd qilgan. Miloddan avvalgi VII asr boshlarida Frigiya podsholigi kuchsizlanib, dastlab Lidiya ta'siriga, keyinchalik eroniylar, yunon-makedonlar, rimliklar va vizantiyaliklar ta'siriga tushib qolgan.

**Mavzu: Parfiya davlati, Sosoniylar.**

**1. Qadimgi Parfiyaning geografik o`rni, tabiati va aholisi.**

Parfiya ham janubi-g`arbiy Osiyodagi qadimgi davlatlardan biri bo`lib Sharqning eng katta va kuchli davlatiga aylangan paytda Mesopotamiyadan Hindiston chegaralarigacha bo`lgan yerlarni o`z ichiga olar edi.

Parfiyaning yer usti tuzilishi asosan tog`lik, yassitog`lik va qisman sho`rxok tekisliklardan iborat bo`lgan. Uning hududidan Frot, Dajla, Atrok, Tajan, Murg`ob kabi katta-kichik daryolar oqib o`tgan. Parfiya hududida bir necha yuz ming yillardan beri aholi yashab keladi. Uning tub aholisi *parnlar, daxlar, saklar, girkatilar* va boshqa qabilalar bo`lgan. Parfiya kuchayib atrofdagi o`lkalarni istilo qilgach, aholisi tarkibiga *yunon-makedonlar, eroniylar, midiyaliklar, mesopotamiyalik* va boshqa xalqlar ham kirgan.

**2. Parfiya davlatining tashkil topishi**. Miioddan avvalgi VII— VI asrlarda Kaspiy dengizdan janubi-sharqiy hududlarda *parn-paifiya* qabilalari yashar edilar. Miloddan avvalgi VII—VI asrlarda Parfiya goh Midiya, goli Eron, goh Yunon-Makedon, goh Salavkalar davlati tarkibida bo`lgan.

Miloddan avvalgi III asr o`rtalarida Salavkalar davlati kuch-sizlanib qolgan edi. Shu davrda Turkman-Xuroson tog`lari va uniflg shimoliy hamda janubiy etakiarida Parfiya satrapligi bo`lib, unga Stagnor degan kishi noiblik qilardi. Miloddan avvalgi 250- yili salavkiylarning Parfiyadagi noibi Andragor o`zini *Parfiya podshosi* deb e'lon qildi. Lekin Andragorning podsholigi uzoqqa bormadi.

Miloddan avvalgi 247- yili ko`chmanchi *sak* qavmlarining *pam-dax* qabilalari Parfiyani bosib oiadilar. Ularning sardori Arshak Parfiya davlatining podshosi deb e'lon qilinadi. Rim tarixchisi Pompey Trog ma'lumotlariga ko`ra Arshakning kelib chiqishi saklardan bo`lib, o`ta jasur va rnard odam bo`lgan ekan. Arshak ismi *shak botiri, pahlavoni,* degan ma'noni bildirgan. Arshak Kaspiyning janubidagi Girkaniyani bosib olib, podsholik yerlarini kengaytiradi. ***Uarshakiylar sulolasiga*** asos soiadi. Arshak Yunon-Baqtriya podshosi Feodot 1 bilan harbiy ittifoq tuzib, salavkiylar qo`shinini tor-mor etadi.

Salavka podsholaridan Antiox III miloddan avvalgi 209- yili Parfiya ustiga qo`shin tortadi. Bujangda Parfiya qo`shinlari yengiladi, ammo Parfiya o`z mustaqilligini saqlab qoladi.

**3. Parfiya podsholigining kuchayishi**. Antiox III vafotidan so`ng Salavkalar davlati kuchsizlanib qoladi. Bu vaziyatdan foydalangan Parfiya shohi **Mitridat I** miloddan avvalgi (171—138) Midiya bilan Bobilni bosib oiib miloddan avvalgi 141-yilda o`zini *,,Bobil podshosi'"* deb e'lon qiladi.

Miloddan avvalgi 140—120- yillarda shimoldan saklarning xu-jumi boshlanib, Yimon-Baqtriya davlati ag`darib tashlanadi. Sak-larning jangovar qismlari Parfiya qG`shinlari bilan ham to`q-nashadilar. Bu janglarda ikki Parfiya shohi halok bo`ladi. Saklar Erimander, Xerirud daryolari oralig`idagi vitoyatga borib joy-lashadilar. Shundan boshlab bu viloyatni Sakiston deb ataydigan bo`ldiiar.

**Mitridat II** (miloddan avvalgi 123—87) davrida Parfiya qo`shinlari salavkiy qo`shinlarini yengib, Eron va Mesopotamiyani ishg`ol qiladilar. Mitridat II “ulug` shahanchoh” degan unvonga ega bo'ladi. Parfiya qo`shinlari Kichik Osiyo va o`rtayer dengizining sharqiy sohili chegaralarida rimliklar bilan to`qnashadilar. Miloddan avvalgi 53- yilda mashhur sarkarda **Krass** boshliq Rim qo`shinlari bilan Parfiya podshosi **Orod** (miloddan avvalgi 55—37) qo`shinlari o`r-tasida janglar boshlanib ketadi. Shu yili Karri shahri yaqinidagi dahshatii jangda rimiiklar yengilib, sarkarda Krass halok bo`Iadl Bu g`alabadan so`ng parfiyonlar katta o`ljaga ega bo`lib, juda ko`p rim askarlari asirga tushadi. Asirlar Marg`iyonaga haydab ketilib o`sha yerca joylashtiriladi.

Bu g`aiabadan keyin Parfiya poytaxti **Gekatompildan** Meso-potamiyadagi **Kteslfonga** ko`chiriladi. Bu davrda Parflya o`z kuch-qudratining eng baland cho`qqisiga ko`tariladi. Parilya qo`shinlari Sharqda Hind daiyosigacha, g`arbda esa o`rtayer dengizi va Kichik Osiyo chegarasigacha bo`lgan yerlarni egallaydilar.

**4. Parfjya podsholigining tushkunlikka uchrashi.** Miloddan avvalgi 40-yillardan boshlab rimliklar o`rtayer dengizining sharqiy sohilidagi mamlakatlarda va Kachik Osiyoda o`z mavqeini qayta tiklab oladilar. Rim qolshinlari Parfiya qo`shinlarini Frot daryosi chap sohiliga surib chiqarishga muvaffaq bo`ladilar. Ammo rimlikiarning rniloddan avvalgi 38- yilda Midiyaga qilgan yurishlad mag`lubiyat bilan Lugaydi. Miloddan avvalgi I va milodning 1—II asrlaridagi icbki nizolar va to`xtovsiz urushlar Parfiyani kuchsizlanfirib qo`yadi. Bu davrlarda Parfiyaga shimoldan alanlar bostirib kiradilar. jVlilodning II asrining birinehi yarmida rimliklar Mesopotamiyaga ikki bor bostirib kirib poytaxt Ktesifonni talab vayron qiladilar. Shundan keyin Rim bilan Parfiya o`rtasidagi kurash 200 yilcha davom etadi. Bu davr ichida Rim va Parfiya davlatlari kucbsizlanib parchalanishga yiiz tutadi. Parfiya esa mayda davlatga bo`linib keladi. Milodiy III asrdan boshlab podshofikning janubi-g`arbidagi Parsua viloyati yuksalib Sosoniy sulolasi asos soigan davlai tashkil topadi.

Milodiy 224- yilda sosoniy hukmdorlari Parfiya poytaxti Kte-sifonni egallab, kuchsizlanib qolgan Parflya podsholaridan taxtni tortib oladilar.

Shunday qilib, 500 yilcha umr ko`rgan Parfiya podsholigi ag`darilib, uning o`rnida Sosoniylar davlati tashkil topadi.

**5. Parfiyaning ijtimoiy-tuzumi, xo`jaligi va madaniyati.**

Parfiya janubi-g`arbiy Osiyodagi yirik quldorJik davlatlaridan biri bolgan. Davlat tepasida arshakiylar sulolasidan bo`lgan shoh o`tirgan. Shoh huzurida

qabila aslzodalari va ruhoniylardan iborat ikki alohida kengash bo`Igan. o`lgan shohning o`rniga aka-uka va o`g`illaridan biri taxtga o`tqizilgan. Sholi davlat aliamiyatiga cga bo`lgan masalalarni aslzoda va ruhoaiyiar kengashi bilan maslahailashib hal etgan. Mamlakat aholisining asosiy qismini ozod dehqonlar. hunarmandlar, savdogarlar va ziyolilar tashkil etgan. Parfiyada qulchilik ancha sust rivoj topgan edi. Sohiomalarda qulning bolasi ham qul bo`lib qolishi ta'kidlangan. Qullar mehnatidan xo`jafikning hamma tarmoqlarida foydalanilgan. Parfiya aholisi to`rt tabaqadan iborat bolgan. Ular: 1. Zodagon jangchilar. 2. Yengil qurollangan suvoriylar. 3. Erkin jamoachi dehqonlar. 4. Qiillar. Parfiya shohlarining asosiy kuchi qo`shin bo`lgan. Parfiya qo`shinining asosiy qismini qullar tashkil etgan.

Rira tarixchisi Pompey Trog: ,,Ularning qo`shinlari qullardan tashkil topgan, qullar olomoni ko`payib bormoqda, chunki hech wmtularni ozod etolmaydi, hammasi qullar bo`lib tug`iladi. Ular sliu qullami o`z farzandiaridek ko`rib tarbiyalaydilar, ot minishga va o`q-yoy otishga o`rgatadilar",— deb yozgan ekan.

Parfiyonlar Rim sarkardasi Antoniyga qarshi 50.000 suvoriy 'ayyorlaganlar, shulardan 400 suvoriy erkin kishilardan, qolgani esa qullardan bo`Igan.

Parfiya xo`jaligining asosini *dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik* va *sovdo-sotiq* tashkil etgan. Parfiya aholisi Murg`ob, Tajan, Atrok, Karun, Kerxa kabi daryo va soy bo`ylaridagi unumdor yerlarga *shoii, sahzj, turp, aholg`om, Cjovun, tarvuz, qovoq* ekib parvarish qilganiar. Ular *olma, anor, anjir, o`rik, uz.um* va boshqa mevali daraxtlar ekib, bog`dorchilik bilan shug`uilanganlar. Sug`orilmaydigan lalmikor kam suvli yerlaiga *bug`dov, arpa, tariq, no`xat, mosh* kabi dukkakli ekinlar ekkanlar.

Qishloq xo`jalik ishlarida qullar mehnatidan foydalanganlar. Ozod dehqonlar olingan hosildan davlatga soliq to`laganlar. Dehqonlar yerni haydash va unga ishlov berishda *omoch, be/kurak, ketmon, tesha, o 'roq, so 'qa, mola* kabi mehnat qurollaridan foydalanganlar. Qishloq xo`jalik ishlarida ot, eshak, xachir, ho`kiz va tuyalardan foydalanilgan. Dehqonlar ham kam mjqdorda qoramol, qo'y, echki, eshak, ot va tuya asraganlar. Parfiyaning tog`, tog` oldi, yassitog`lik va dashtlarida sero`t yaylovlar ko`p bo`lgan. Bu yaylovlarda qo'y, echki, qoramol, eshak, tuya va xachirlar boqiigan.

Parfiyaliklar yilqichilikka katta e^tibor berganlar. Parfiyaning quruq iqlimli yaylovlari va tog` yonbag`irlarida asl zotli otlar parvarish qilingan.

Hikoya qiiishlaricha Tskandar Zulqarnayn Parfiya bo`ylab o`tayotganda, mamlakaming dasht va tog` yaylovlarida yuz minglab ayg`ir, biya va qukinlarni o`tlab yurganini ko`rgan ekan.

Qadimgi solnomachilarning hikoya qilishlaricha. parfiyoniar otga qattiq mehr qo`yganlar. Ular bir umr ot ustidan tushmay urushganlar, bazm qurganlar, barcha jamoat va siyosiy ishlarni ot ustidan tushmay bajarganlar. savdo qilganlar va dam olganlar.

Qadimgi tarixchi **Tasit**,*farfiyaliklaming birdan-bir kuchi ularning suvoriylaridir"* deb, yozgan edi.

Parfiyaliklar tuyachilikka ham katta eHibor berganlar. Mamlakatning qurg`oqchil, quruq iqlimli dastitlarida ko`plab tuyalar boqilgan. Ular ot bilan bir qatorda tuyalarni minib yurganlar, ularda yuk tashiganiar. Ular ichki va tashqi

savdoda juda katta ahamiyatga ega bo`lgan. Tuyalardan harbiy maqsadlarda foydalanilgan. Parfiya jangchilari tuya minib urushga kirganlar.

Xitoyliklar Parflyani An'si deb ataganlar. Xitoy sayyohlarining yozishlaricha ,,An'sida yuzga yaqin katta-kichik shaharlar bor". Ularning eng mashhurlari **Zadrakarta, GektompU, Ekbatan, Niso** va boshqalardir. Bu shahariarda *to 'qimachilik, qurolsozlik, kulolchilik, zargarlik, ko`nchilik, me 'morchilik* birmuncha rivoj topgan edi.

Parfiyada savdo-sotiq ancha rivoj topgan bo`lib, savdogarlar Turon, Xitoy, Hindiston, Kavkaz, Misr, Kichik Osiyodagi mam-lakatlar bilan qizg`in savdo-sotiq ishlarini olib borganlar. Parfiya savdogarlari g`arb mamlakatlari bilan Xitoy o`rtasidagi savdo ishlarida vositachilik qilishgan. Parfiya ham o`zining qadimiy niadaniyatiga ega bo`lgan. Ular aramey yozuvidan foydalanib, .xalq og`zaki ijodiyoti asosida Jco`plab asarlar yaratganlar. Adabiyotda Qadimgi Eron an'analarining ta'siri kuchli bo`lgan. U yerda *me 'morchilik, haykaltaroshUk, rassomchilik, bo 'nma rasmlar ishlash* ancha rivoj topgan bo`lgan. Parfiya me'morchiligi va haykaltaroshligida yunonlarning ta'siri kuchli boll-gan. Shoh saroylarining devorlari xilma-xil mazmimdagi rasmlar bilan bezatilgan. Suyakdan yasal-gan haykallar, shoxdan yasalgan qadahlarritonlar va boshqa idishlar kishini hayratga soladi. o`sha davrda chiqqan oltin pullarning sathi podsho, malika va jangchilarning tasvirlari bilan bezatilgan. Parilyada ibtidoiy din shakllari, hayvonlarga tog`-toshlar, daraxtlar va suvga sig`inish bilan bog`liq entiqodlar saqlangan. Lekin ular zardushtiylikka ko`proq e'tiqod qilib. suv, havo, yer va olovni ulug`laganiar. Axuramazdani ulug`iab. Axnmonga nafrat bilan qaraganlar. Chunki Axrimon yomonlik timsoli edi.

ParfiyalikJar qo`shni xalqlar madaniyatidan bahra oiib o`zlariga xos madaniyat yaratganlar.

**1. Sosoniylar davlatiniag tashkil topishi.** II asr oxiri — III asr boshlariga kelib ichki o`zaro uruslilar Partlya davlatining kuch-sizlanib qolishiga oiib keldi. 208- yilda parfiylar davlati ikki qismga oo`linadi. Keyinchalik esa Parfiya yana bir necha mayda davlatlarga ajralib ketadi. Bundan Eronning janubi-g`aibida joylashgan pore qabilalan foydalanib, Staxr shahrida hokimiyatni egallab oladilar Bu jang-u jadallar tcpasida porslarning soson urug`idan bo`kan Bobak turardi. Bobak vafotidan so`ng Pors viloyati taxtiga uiiine o`g`iUaridan biri **Ardasher 1** (224-239) o`tiradi.' 224- yilda bo`lib o`tgan jangda u Parfiya shohi Artabon V qo`shinlarini yen-adi 226-ydda Ardasher I poytaxtni Staxr shahridan Dajla daryosi bo`yidagi Klesifonga ko`chiradi. Ktesifonda Ardasher I Sosoniv davlati taxtiga chiqish marosimini o`tkazgach Sosoniylar dav-latining chegaralarini kengaytiriehga harakat qiladi. 230- yilda u o`z qo`shinlari bilan Snriva va Kichik Osiyoga boslirib boradi Bu joylar Rim saltanatiga qaram edi. 232- yili Rim imperatori **Aleksandr Sever** katta qo`shin bilan Shimoliy Mesopotamiyaga kelib tushadi **Ardasher I** qo`shmlari Rim legionlari bilan uzoq vaqt mobaynida qonli urushlar olib boradi.

**2. Sosoniylar davlatining kuchayishi.** Ardasher I vafbtidan keyin Sosoniylar davlati taxtiga **Shopur I** (243-273) chiqadi. Shu vaqtcian bosWab sosomy taxtiga chiqqan sulola vakillari ,,**shahanshoh**" imvomga ega bo`ladilar.

Sosoniylar davlati esa **Eronshahr - oriylar podshohgi** yoki **eroniylar shohligi** deb nomlangan Shopur I davrida hron qo`shmlari Rim qo`shinlari bilan janglar olib borib ularni bir necha bor mag`lubiyatga uchratganlar. Bu urushlarning birida Rim imperaton **Gordian** lialok bolib, juda ko'p rimlik aslzodalar va askarlar asir tushganlar. Ular Eron shohiga 500 ming dinor aqcha Io`Iashga majbur bo`lganlar.

244-251 –yillar orasida bo`lib o`tgan urushlar natijasida sosoniy qo`shinlari Jabubiy Armaniston va Qadimga Ossuriyani bosib olganlar. Shopur I qo`shinlari Suriyada Rim qo`shinlari bilan to`qnashib, ularni tor-mor etadi. Shimoliy Mesopotamiyaning **Xarran** va **Edessa** shaharlari yonida bo`lgan jangda ham sosoniy qo`shinlari rimliklar ustidan g`alaba qiladilar. Edess yonidagi jangda Rim imperatori Valerian, ko`pgina senatorlar va aslzidalar asirga tushadi. Rim bilan olib borilgan janglar natijasida Shopur I qo`shinlari Suriya va Frot daroyosining tuqori oqimidagi 36 qal'a va shaharni ishg`ol qiladi. Rim imperiyasi hech qachon bunday katta mag`lubiyatni ko`rmagan edi.

IV asrning 60-70-yillarida sosoniy qo`shinlari rimliklar bilan yana to`qnashib, Armaniston va Shimoliy Mesopotamiyaning ko`p joylarini bosib oladi. 363-yildagi jangda yana bir Rim imperatori **Yulian** halok bo`ladi. Sosoniy qo`shinlari Sharq tomonda ham katta yrysh olib borib, Xuroson, Seyiston, Girkaniya va Tajan, Murg`ob vohasigacha bo`lgan yerlarni ishg`ol qiladi. Sosoniy shahanshohlari Sharqda Kushonlar podsholigi bilan ham shiddatli janglar oiib borganlar. Kushon podsholigi tugatilib, u yerda eroniylar Kushoni davlati barpo etiladi. Uni Eron shahzodalari boshqargan. V asrning ikkinchi yarmida eron qo`shinlari xioniylar, kidaritlar va eftalitlar bilan ham qattiq urush olib borganlar.

Shunday qilib, III asrning ikkinchi yarmi va IV asrda sosoniylar Eroni Sharqdagi eng qudratli davlatga ayiangan. Amtno V asr o`rtalaridan boshlab bu davlat eftalitlar va kidaritlarning bergan zarbalari natijasida asta-sekin kuchsizlanib, hatto eftalitlarga o`lpon ham to`lagan. 111—V asrlar sosoniylar saltanatining dastlabki davri bo`lib, u Sharq xalqlari tarixida alohida olrinni egallaydi.

## 12-mavzu: ҚADIMGI eRON.

MAVZUGA OID TAYANCH IBORALAR, ATAMALAR.

1. elam davlati.2. Қadimgi Midiya.3. Axamoniylar xukmronligi.

4. Doro I va uning istilolari.5. Fors — YUnon urushlari.

Қadimgi eron janubiy — garbiy Osiyodagi davlat. Garb tomondan Zagros toglari, uni Mesopotamiyadan ajratib turadi. SHimol tomondan el’brus, Turkman — Xuroson va Hindiқush toglari, SHarқda Sulaymon toglari uni Hindistondan ajratib turadi. Janubda eritrey (Arab) dengizi va

Fors қo`ltigi uni chegaralarni ajratib turadi. eronning markaziy қismi yassi togliklardan iborat, ba`zi joylari sho`rxoқ va saxrolardan iborat.

Eronda Karun, Kerxa, Xilmand kabi kichik daryolar va kam suvli soylar ko`p bo`lib yozda ularning suvi қurib қoladi. Toglarda temir, mis, kumush va oltin kabi er osti boyliklari ko`p.

SHimolda yoz issiқ, қish sovuқ, janubda esa қish iliқ yoz ancha issiқdir.
Eronning Bexistun toglarida 70 — 50 ming yil ilgari odamlar yashaganligi to`grisida manzilgohlar topilgan. eronda қadim zamondan boshlab elam, lulubey, kassit, gutey keyinchalik midiya, fors, aramey va xatto xabash қabilalari ham yashagan.
Қadimgi eron xalқlari ichida elamiylar ko`proқ tilga olinib ular Karuk va Karxa daryo havzalarida yashagan. Ular eramizdan avvalgi VI —V ming yilliklardayoқ daryo va soy bo`ylarida dehқonchilik қilib, o`tloқ va tog yaylovlarida chorvachilik bilan shugullanganlar.
Ayni paytda hunarmandchilik ham rivoj topgan, chunki arxeologik manbalarda aytilishisa bu
erlardan kulolchilik buyumlari yuksak badiiy saviyada naқsh solingan sopol buyumlar topilgan.
Bu jarayonlar mamlakatda sinfiy tabaқalanish jarayonini tezlatdi. Miloddan avvalgi III yillik boshlarida boshlab eronning janubiy — garbiy chekkasida dastlabki davlat birlashmalari paydo
bo`ldi.
Bu davlat poytaxti Suza bo`lgan elam davlati bo`lib u eronning janubiy — garbida joylashgan edi. Bu davlat doimiy Ikki daryo oraligi bilan maxkam aloқada bo`lgan va bu aloқa uni iқtisodiyoti va madaniyatiga ta`sir etib kelgan. Buning natijasida vaқti —vaқti bilan Akkad va SHumerga eramizdan avvalgi XXII asrgacha қaram bo`lib kelgan. Lekin bunig aksi ham bo`lib turgan.
Miloddan avvalgi XXII asrning boshlariga kelib Kutik — Inshushinak elamni birlashtirib mustaқil davlatga aylantiradi. Lekin Zagros toglariga yashagan guteylarga elamga bostirib kirib UNi o`zlariga itoat қildirgan.
Keyincha elam Ikki daryo oraligi ta`siriga tUshib қolgan. Miloddan avvalgi XXI — XVIII asrlarda elam ancha kuchayib janubiy SHumerga o`z ta`sirini
o`tkazdi. Biroқ Bobil shohi Hammurapi ularni SHumerdan xaydab yubordi.
Miloddan avvalgi XVI asrda elam Bobil kassitlari tomonidan bosib olinadi 1180 yil elam shohi SHutrak — Naxupta I Bobil kassitlari elamdan xaydab chiқardi. 1155—1115 yil orasida elam shohligi kuchaygan davr hisoblanadi. elam shohlari SHutrak — Naxupta I va Ko`tir — Naxupta II Bobil va shimoliy eron erlarini o`ziga қaratib oladi. Bobil, Sinnar, Kish, Okis shaharlari talab Hammurapi қonunlari yozilgan toshni Suzaga olib kelganlar.
1115 yili Bobil shohi Navuxodonosor Ielam қo`shinlarini tor —mor etadi. SHundan keyini elam o`z mustaқilligini yo`қotib 300 yil davomida o`ziga kelolmaydi.
Miloddan avvalgi VIII asrdan boshlab elam yana tiklanadi va Bobil bilan ittifoқ tuzib Ossuriya қo`shinlariga қarshi urush olib boradi va urushda ularni engadi.
Ossuriya faқatgina Ashshurbanipal davrida elamni tor —mor etib, Suzani bosib oladi.
Miloddan avvalgi 596 yilda Bobil shohi Novuxodonosor IIElamliklarni o`ziga itoat ettiradi.
Keyinchalik midiyaliklar miloddan avvalgi 549 yilda kurush IItomonidani bosib

olinib o`z mustaқilligini butunlay yo`қotib eron tarkibiga қo`shilib ketadi.
Қadimgi Midiya eronning shimoliy — garbida joylashgan bo`lib, uning garbi toglik bilan, sharқi tekisliklardan iboratdir. Bu erlarda қadimgi kassit, gutey, xuritlarga қarindosh bo`lgan. Midiya қabilalari yashagan. Miloddan avvalgi IX asrdan boshlab Ossuriya қo`shinlari bu erga talonchilik maқsadlarida tez —tez xujumlar қilib turgan. Bu davrda Midiya erlarida mayda davlatlar mavjud bo`lib, ular Ossurlarga tobe bo`lib ularga xiroj to`lab turgan.
Miloddan avvalgi VIII asr oxirlarida bu erlarga shimoldan kimmeriylar , VII asr boshlaridan boshlab skiflar bostirib kirgan. Miloddan avvalgi 672 yilda midiyaliklar Kashtariti rahbarligida ossurlarni xaydab mayda davlatlarni engib midiyaliklarni birlashtirishga kirishadi va 653 yilda ossuriyaga қo`shin tortadi. SHu vaқtda skiflar Midiyaga xujum қiladi. Jangda midiyaliklar maglubiyatga uchraydi. Kashtariti jangda xalokbo`ladi. Miloddan avvalgi 653 — 625 yillarlda mamlakatga skiflar xukmronlik қiladi.
Miloddan avvalgi 625 yilda Kashtoritining o`gli Kiaksar Midiya shohi bo`lgach, u butun Midiya қabilalrini birlashtirib skiflarni tor —mor қiladi. Kiaksar davrida Midiya kuchli davlatga aylanadi. Miloddan avvalgi 614 yili Ossuriyaga қo`shin tortib uni қadimgi poytaxti Ashshurni vayron қiladi va talaydi. U erda behisob boylik va asirlar olib қaytadi.
Kiaksar Bobil bilan itifoқ tuzib ittifoқchi қo`shinlari bilan 612, 609, 605 yillarda Ossuriyaga xujum қilib uni batamaom tor — mor қiladi.
Midiyaliklar butun SHimoliy Ikki daryo oraligini engib uni қo`shib oladi. Kiaksar o`z қizini Bobil shohi Navopalasar o`gli Navuxodonosor IIga uzatadi. Bu davrda Bobil—Midiya o`rtasida do`stona munosabatlar o`rnatildi.
Kiaksar janubda Persiya, sharқda Parfiya, garbda Kichik Ochiyoning Talis daryosigacha7 bo`lgan erlarni Midiyaga қo`shib oldi. Miloddan avvalgi 585 yilda Kiaksar vafot etdi va uning o`riniga Astiag (585 — 550) xukmronlik қildi. Astiag davrida Bobil va Midiya o`rtasida ittifoқ buzilib қonli janglar boshlandi. SHu davrda forslar Kayxusrav boshchiligida Astiagga қarshi қo`zgalon ko`tardi. Miloddan avvalgi 550 yili Kayxusrav Astiag қo`shinlarini tor-mor қilib o`z davlatiga қo`shib
oldi.
Kayxusravning Astiag ustidan қilgan yurishi natijasida қadimiy eron davlati vujudga keladi. eramizdan avvalgi 553 yilda Kayxusrav Midiyaga yurish қilib, uch yillik urushdan so`ng Astiag ustidan galaba қozondi. eramizdan avvalgi 550 yilda Midiya va uning poytaxtini ekbatan egallandi oradan xech қancha vaқt o`tmasdan elamni bosib oladi. SHu yillarda shimolda arman erlari, sharқda Parfiya va Girkaniyani bosib oladi. Kayxusravning bundan keyin istilochilik yurishlarida garbdagi Midiya xavf ostida қolgan.
Kayxusrav Midiya shohi Krazga қarshi yurishi uning otliқ va tuya mingan қo`shini bilan Midiya ustiga қuyundek bostirib kirdi. Galis daryosi bo`yidagi jangda uning қo`shinlari Kraz Қo`shinlarini tor-mor қiladi va Midiya poytaxti Sardni bosib olishadi. Қattiқ қoni janglardan
keyin Midiyaliklar engilib, Kraz asirga olinadi. SHundan keyin eronliklar oldida Bobil, Hindiston, Turon kabi davlatlarga bostirib kirish rejalari ishlab chiқilgan.

Eramizdan avalgi 545 — 539 yillarda Kayxusrav қo`shinlari Hindiston, Bobil, Turon chegarasigacha bo`lgan erlarni bosib oladi.
530 yillarga kelib Kayxusrav O`rta Osiyoga Amudaryo vodiysiga olib boradigan yo`llarni қo`lga kiritish niyatida sak —massaget қabilalari ustiga yurish қiladi. Ammo To`maris rahbarligidagi sak — masssaget birlashgan kuchlari Kayxusravga қarshi jangga kirganlar. Ikki o`rtada қattiқ jang bo`lib eron қo`shinlari batamom tor —mor keltirilgan, janglarning birida Kayxusrav o`ldirilgan, uning kallasi қon to`ldirilgan meshga botirilgan.
Malika eronliklarga: «SHohingiz umr bo`yi қonga to`ymadi mana endi to`ysin.» deb xitob қildi. Kayxusrav o`ldirilgandan so`ng uning bosқinchilik yurishlarini uni o`gli Kambiz II ( 529 — 522 ) davom ettirgan.
Lekin Kayxusrav boshlagan ishni uni o`gli davom ettirib Misrga kirish to`grisida otasi
boshlagan ishni davom ettirishga xarakat қildi. U ham otasi singari harbiy tadbirlar қo`llash bilan birga diplomatik usullarni ishlatishga xarakat қildi. Ko`mbiz o`z қo`shinlarini Falastinga to`plab, sinay saxrosi orқali Misr chegaralariga boradigan yo`llarga egalik қiluvchi arablar bilan til biriktirishga kirishgan. SHu orқali o`z қo`shinlarini tuyalarda tashiladigan suv bilan ta`min etgan. Forslarni o`z floti bo`lmagan ammo
finikiyaliklarning va yunonlarning kemalaridan foydalangan. SHu bilan birga Ko`mbiz Misr қo`shinlarini harbiy қo`mondonlarini o`z tomoniga agdarib olgan xattoki Misrda grek yollanma askarlarini komandiri Fanat ham Ko`mbiz tomoniga o`tgan. Fors қo`shinlari eramizdan avvalgi 529 yili Misrga yaқinlashib қolgan bir paytda Misr Fir`avni Amasis to`satdan o`lib қolgan.
Misr қo`shinlari bilan Pilusiya degan joyda chegara janglari bo`lib o`tadi. Misr yangi Fir`avn Psammetik III faқat bir necha oy Fir`avnlik қilib eronliklarga қarshi kurash olib borgan, lekin Janglar muvaffaқiyatsiz bo`lib chiққan. Fir`avn asir olingan va қatil қilangan. Mana shundan so`ng
Ko`mbiz o`z yurishlarini eronliklarni
bo`ysundirishga қaratgan, lekin u yaxshi natija bermagan. SHu vaқtning o`zida eronda ham ishkallik kelib chiқdi. Ayrim xukmron doiralar Ko`mbiz siyosatida norozi bo`lib uning ukasi Bardiyani o`z akasiga xoin қilib ko`rsatdi. Bundan xavsiragan Ko`mbiz maxfiy buyruқ beradi. Lekin shaxzodaning o`limi haқida xech kim bilmagan. SHuning uchun afti — basharasi Bardiyaga juda o`xshagan Gaumata o`zini podisho deb e`lon қildi. Fors davlati, Midiya va boshқa mamlakatlarni o`ziga қaratdi. Bunga қarshi қo`zgalonlar bo`ldi. Boshlanib ketgan қo`zgalonlarni bostirish uchun Ko`mbiz shosha —pisha Misrdan vataniga қaytadi, lekin қaytishda juda sirli va shubxali vaziyatda xalok bo`ladi (u tasodifan қoқilib o`z xanjariga o`z қadalib o`lgan emish) er.av. 522.
Eronda Bardiya nomini olgan Gaumata etti oy shohlik қilgan. YAngi shoh қallob ekanligi ovoza bo`lib 7 mansabdor fitna uyushtirib Gaumatani o`ldirishadi.
Fitnachilar taxtni Axmoniylar urugidan bo`lgan Doro I ga topshirishadi. Doro I ni taxt huқuқi to`grisida қarshiliklar va boshқalar bo`lgan, taxtga bo`lgan huқuқlarini mustaxkamlash uchun u Kayxusrav қiziga uylangan. SHu tariқa Doro I taxtga

o`tirgan. U taxtga o`tirganidan boshlab Bobil, elam, Midiyada boshlangan қo`zgalonlarni bostirgan.

**13-mavzu: ҚADIMGI eRONMADANIYATI.**

MAVZUGA OID TAYANCH IBORALAR VA ATAMALAR.

1. Axomoniylar sulolasi.2. Axomoniylar davri madniyati.3. Naқshi Rustam me`morchilik inshoati .4. Bo`rtma rasmlarning me`morchilikdagi ahamiyati.

5. Axomoniylar davri madaniyatining jahon xalқlari madaniyatiga ta`siri.6. Persepol’ xarobalari.

Axomoniylar davridagi eng yirikme`morchilik inshootlaridan biri Naқshi Rustam inshootidir. Naқshi Rustam me`morchilik inshooti Axomoniylar (miloddan avvalgi 550 — 330 yillar) sulolasi va Sosoniylar sulolalarining xukmron doiralari maқbaralari hamda ularga kiraverishdagi kitobalardir. Naқshi Rustam eron sarkardasi — sosoniylar podsholaridan YAzdigard IIIarmiyasi bosh қo`mondoni . Rustam (636 yilda arablar bilan bo`lgan jangda xalok bo`lgan) nomiga қo`yilgan Naқshi Rustamning bundan avvalgi nomi noma`lum Naқshi Rustamdan 20 metr balandda қoyalarni tarashlab o`yib krest shaklida maқbaralar қilinib , Doro I, Kserks I, Arta Kserks I va Doro II lar davin etilgan. Naқshi Rustam kitobalarida Doro I ning sulolasi maқtaladi., bosib olingan mamlakatlar va ularning halқlari itoatkorlikka, halolikka chaқiriladi. Bo`ysunmagan mustaқillikka intilgan mamlakatlar, halқlar va ularninrg xukmdorlarining yovuzlarcha jazolanganligi ko`rsatigan. Doro I boshқa halқlar va mamlakatlar xisobiga o`z davlatini kengaytirish , shon — shavkatini orttirish maқsadida miloddanavvalgi 522 — 521 yillarda 19 marta urush қilgan , 9 marta mamlakat podsholarini asir olganligi ko`rsatiladi. Krest shaklidagi maқbaraning old tomoni yuқori қismidagi rel`efda Axuramazdaning , uning ostida Doro I va saroy arboblaridan uchtasini surati bo`rtirib ishlangan bu rel`eflar ostida Doro I davlati tarkibiga kirgan 24 satraplik va ularda yashaydigan halқlarning to`la ro`yxati ham keltirilgan. Ular orasida O`rta Osiyo va Қozogistondagi қadimgi o`lkalardan Parfiya , Baқtrya , Sugdiyona, , Xorazm, halқlardan xaumavarga , cho`ққi қalpoқli va daryoning ortidagi saklar bor.

Doro I қabridan pastda chap tomondagi rel`efda sosoniylar podshoxi SHopur I ning Rim imperatori Valerian ustidan galabasi ( milloddan avvalgi 260 yil) va Valerianning ot minib turgan SHopur I oyogiga tiz cho`kib, bosh egib turgani tasvirlangan. Rel’ef ostidagi yozuvda forslarining Zakavka’ega yurishi ifodalangan ( millddan avvalgi 262 yil).

Maқbaralar қarshisida burj — Zardushtka`basi joylashgan. Uning tosmi katta xajmdagi yassi tosh plitamer bilan yopilib devorlarida derazao`rnida ochiқ

joylar қoldirilgan. eron, Kavkaz va O`rta Osiyo axolisi uylariga o`xshatib қurilgan burjning devorlariga paxlaviy, parfiya, va yunon yozuvlarida sosoniylar devlati tarkibiga kirgan mamlakatlar bu otashgoh (olov ibodatxonasi) ga keltirilgan xadyalar ro`yxati berilgan.
Ibodatxonaning ichki devorlari қora kuyalar bilan қoplangan. Nemis arxeologi Gertsfel`d bu
otashgoxni maқbara deb hisoblaydi. Naқshi Rustam rel`eflari kitobalari axomoniylar hamda sosoniylar davlatlari bosib olgan mamlakatlar va xalқlar tarixi, etnografiyasi va madaniyatini o`rganishda muxim manba bo`lib xizmat қiladi.
Axomoniylar davlatining poytaxtlaridan birpi Fors halқ an`analari Persepolni eron eposining қaxramoni Jamshid nomi bilan boglaydi. Doro I(milloddan avvalgi 522 — 486) yuzlab zal va xonali saroylar bunyod etilgan. Persepol milloddan avvalgi 330 yilda A. Makedonskiy tomonidan yondirilgunga қadar Axomoniylar podsholarning қarorgohi bo`lgan. Taxminan miloddan avvalgi 250 yilda қarovsiz қoldirilgan xarobalari hozirgacha saқlanib kelmoқda.
XVII —asr boshlarida iatl`yan sayyohi P’etro della Velya Persepol’ xarobasidan mixxat namunalarini topgan. Nemiis olimi e.Xertsfel`f., e.SHmidt (1935—1939 yillarda) rahbarligida Persepol’ va uning atroflarida қazish ishlarini olib bordi. 1939 yildan keyin Persepolda eron arxeologlari қazish ishlarini davom ettirdilar. Қazishlarda saroy қurilishining ikki tipi tachara — odamlar yashydigan қishlik bino, apadana — baland ingichka ustunlik, yogoch tomli tantanali marosimlar o`tkaziladigan saroy aniқlangan.
Bu saroy Doro I davrida қurilib, Kserks I, Artakserks I davrlarida қayta tiklandi. Apadanani қazish vaқtida (1930 yil) zinapoyalarida juda ko`p rel’ef tasvirlari topilgan.
Persepol` saroylari devorlariga mixxat bilan bitilgan kitobalar axomoniylar podsholari buyruқlariga muvoffiқ yozilgan. Persepol’ kitobalari uchta ustun xolida uch xil yozuvda uch tilda (elam, ormiy va қadimgi forsiy tillarda) bitilgan. Persepol’ kitobalarida Doro1 va Kserks I Davlatlari sostaviga kirgan mamlakatlar vaxalқlarning ro`yxatlari kiritligan bular orasida O`rta Osiyo va Қozogistondagi o`lkalar va xal]қlar nomlari bor.
Persepol’ xarobalarida jami 8 ming xujjat topilgan. Persepol’ chin ma`nodagi shaxar bo`lgan emas. Doro IPersepolni istehkom deb atagan. Lekin aslida u istehkom emas chunki u erda gornizon va aslahaxonalar bo`lgan emas.

**14-mavzu: ҚADIMGI HINDISTON**.

MAVZUGA OID TAYANCH IBORALAR, ATAMALAR.

1. Maxanja —Daro va Xarappa yodgorliklari.2. Hindistonning ilk aholisi.3.

Maxanja—Daro va Xarappa iқtisodi. 4.Hindistonda kastachilik.
Hindiston қadimgi SHarқning yuksak madaniyatli mamlakatlaridan biridir.
Hindiston hindchasiga Bharat degan ma`noni anglatadi, aslida bu katta oroldir. Uning tabiat yaratgan keskin chegaralari uning tashқi olamdan ajratib қo`ygan. Uning janubi Hind okeani, garbi Arabiston dengizi, sharқi Bengaliya ko`rfazi bilan o`ralgan, shimoli esa Himolay toglari bilan tutashib uni garbiy eron va sharқiy Hindi —Xitoy bilan ajratib turadi. Hindistonning katta қismi Dekan yassi togliklaridan iborat. Hindistondan Hind va Gang daryolari va ko`plab mayda soylar oқib o`tadi.
Hindiston inson hayoti uchun zarur bo`Lgan tabiiy boyliklar bilan juda yaxshi ta`min etilganligidan, chetdan maxsulot olib kelishga extiyoji bo`lmagan. Mamlakatni o`simlik va xayvonot dunyosi juda boy bo`lgan. Bu erda arpa, bugdoydan tashқari kulolchilik қadim zamonlardan buyon қo`llanilgan. SHoli dastlab Garbiy Osiyoga, Afrika va Evropaga shu erdan tarқalgan. Madaniy o`simliklardan shakar қamish va paxta ham shu erdan garbiy Evropaga ma`lum bo`lgan. Ziravorlar bilan ham Evropaliklar shu erda tanishgan.
Maxalliy xayvon turlarini қo`lga o`rgatgan masalan, o`rkachli xo`kiz (zebu) Ikki daryo oraligi va Misrga ham shu erdan olib ketishgan. Fil dastlab Hindistonda қo`lga o`rgatilgan va ular asosan harbiy ishlarda foydalanilgan.
Hindiston har xil қimmatli xom ashyoning (tosh, metal, ruda, yogoch, oltin, mis, olmos) bitmas — tuganmas manba bo`lgan. Mana shularning barchasi xo`jalikni mustaқil ravishda taraққiy etishiga imkon bergan, lekin tabiiyki boshқa қabila va xalқlar ham mamlakatga kelib turgan va tashқi savdo
-122-rivoj topgan (Eron, O`rta Osiyo).
Ikki azim daryo vodiylari Hindistonning eng қadimgi dehқonchilik zonalaridir. Biri beshta irmogi bo`lgan (Panjob) bo`lgan. Hind daryosi vodiysi bo`lsa ikkinchi bir necha irmogi bo`lgan Gang daryosi vodiysidir.
Hind va YUқori Gang vodiylarida erni sugorma dexқonchilik қilish erta tarққiy қilgan. Boshқa joylari esa yoginga қaram bo`lgan. Gang daryosini қuyi oқimida yogin ayniқsa ko`p bo`lgan. YOzda janubdan esadigan va o`zi bilan juda ko`p nam olib keladigan musson shamoli mamlakat uchun axamiyati katta bu shamol esmay қolganda yoki kuchsiz sekin esganida қurgoқchilik ro`y bergan.
Eng қadimgi hind adabiy yodgorliklari, jumladan antik davr avtorlarining guvohlik berishicha aholi nihoyatda zich yashagan. Mashhur Maxobxorat dostonida aytilishicha Kurukshetra yonidagi 18 kunlik jangda 1 milliard 660 million 200 jangchi xalok bo`lgan. SHubxa yo`қki bu ma`lumotlardagi raқamlar ancha ortib ketgan, lekin har xolda Hindiston axolisining soni Misr va Old
Osiyo aholisi sonidan o`tib ketgan va bu jihatdan Xitoy unga raқib bo`lishi mumkin.(1 milliard 400 mil.).
Hindiston axolisi қadimdan xilma — xil bo`lgan janubda қora badanli avstraliya қabilalari irқiga mansub қabilalar ko`pchilikni tashkil қilgan.
Mamlakat axolisini eng қadimgilarini dravidlar, doriylar, bengallar, bixarlar, gujaratlar, assomlar va boshқalar tashkil etgan.
Arxeologik topilmalarga қaraganda
Hindistonda odamlar қadimgi tosh davridanoқ yashaganlar. Mamlakatning bir

 қancha toglik joylarida paleolit davri manzillari topilgan. Undan keyingi neolit davrida avvallari kishilar yashagan katta daryo vodiylari o`zlashtirila boshlagan. Hindiston garbiy rayonlari tobora oldinga chiқib olgan, eneolit davriga kelib va ayniқsa bronza davrida madaniyat tarkib topgan. Ularning asosiy markazlari hozirgi Xarapa (Panjob) va Maxonja — Doro (Sind) xarobalari topilgan shaxarlar bo`lgan. Bu shahar axolisi asosiy қurol — yarog va asboblarni misdan keyin bronzadan yasagan. Ammo u vaқtda
temirni bilmagan omoch tishlarini chaқmoқ toshdan yasaganlar. Omoch bilan er xaydab ekilgan dehқonchilik iқtisodni asosiy negizi bo`lgan.

O`rkachli xo`kiz zebu va қo`toslar ish xayvonlari bo`lgan. Donli ekinlar (arpa, bugdoy va sholi) meva daraxtlari (xurmo) va paxta etishtirilgan. Hunarmandchilik yuksak darajada rivojlangan.

Mohinjo —Daro, Hind daryosining o`rta қismida joylashgan 270 gektardan iborat shahar bo`lgan. Bu erda қazish ishlari natijasida ko`chalar pishiқ va xom gishtlardan қurilgan turar joylar omborxonalar, ibodatxonalar va podshoh
қarorgohlari topilgan. Ko`chalari to`gri bo`lib, ularga gisht yotқizilgan. Ko`cha xarakatiga xalal bermaslik uchun choraxalardagi uylarning burchaklari yumoloқ bo`lgan. SHaharga er ostiga ko`milgan maxsus sopol қuvurlar orқali suv kelgan, oқar suvlarni tindirish uchun maxsus xovuzlar қilingan, chiқindi suvlar tashқariga chiқarib yuborilgan. Badavlat
kishilarning uylari қal`a va ibodatxonalar va boshқa binolar 2 — 3 қavatli қurilgan.

Xarappa Panjob viloyatida joylashgan arxeologlar u erdan 500 yaқin yodgorliklar topishgan, ular ham xom va pishiқ gishtdan 2 — 3 қavatli binolar, shoh saroylari, ibodatxonalar, ma`muriy binolar қurgan. SHahar қuvurlar orқali keladigan suv bilan ta`minlangan. Ustalar pishiқ gishtdan suv saқlash uchun maxsus қuduқlar қurganlar.

Zargarlar tosh, mis, jez va қimmatbaxo toshlardan ajoyib zargarlik buyumlari yasagan. SHaharda me`morchilik, to`қimachilik, kulolchilik, toshtaroshlik, қurolsozlik ancha rivoj topgan.

Xarappa va Moxonjo — Daroliklar қayiқlar, sollar va katta bo`lmagan kemalar yasab, daryo hamda dengizlarda suzganlar. Xarappaliklar o`zlarining ieroglif yozuvlariga ham ega bo`lganlar, Bu davrda қulchilik endi boshlangan bo`lib, dexқonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik, қurilish va boshқa ishlarda қullar kuchlaridan foydalanganlar.

Miloddan avvalgi II ming yilllik o`rtalaridan boshlab Hind daryosi havzasiga eron va Turon tomonidan oriy қabilalarining kirib kelishi boshlandi. Ular dastlab Panjob viloyatiga joylashib
oldilar so`ng Gang daryosini yuқori va o`rta oқimlaridagi unumdor erlargan kelib o`rnashganlar. Oriylar bilan mahalliy axoli o`rtasida қonli janglar bo`lib o`tgan. Maxobxorat va Ramayana dostonlarida maxalliy hindlarning istilochilar bilan olib borgan қonli janglari tasvirlangan. Oriylar shimoliy Hindistonni bosib olgandan so`ng asta —sekin maxalliy axoli bilan aralashib ketganlar. Ular uzoқ vaқt chorvachilik bilan

shugullanib keyinchalik Panjob va Gang vohalaridan unumdor erlarda o`troқlashib, dexқonchilik bilan shugullana boshlagan. Miloddan avvalgi II ming yillik oxiriga kelib hindlar temir қazib chiқarish va uni ishlatishni o`rgandilar. SHu davrdan boshlab hindlarda ilgari ma`lum bo`lmagan temir қurollar ishlatila boshldi. Temirdan belkurak, bolta, turli қishloқ xo`jalik va ro`zgor ham jangovor қurollar yasaganlar.
Temir tishli ogir omoch ishlatilishi dehқonchilikni rivojlanishiga katta yordam berdi.
Mehnatkash hunarmandlar mehnati
mahsulotidan jamoa oқsoқollari rojalar
foydalanib boyib ketganlar, oddiy kishilar va urushda asirga olingan tushgan begonalar kulga aylantirilgan. Rojalar va zodagonlar kullar bilan mehnatkash ommani nazorat қilib turish va ularni ishlatish uchun nazoratchilar, қo`riқchilar maxsus қurolli guruxlarga ega bo`lganlar. Ular ixtiyorida soliқ yiguvchilar va gunohkor deb topilganlarni jazolaydigan қozi —sud'ya ham bo`lgan. Bularning barchasi jamiyatni boshқarib turuvchi davlat tashkiloti edi. Rojalar asta —sekin saylab қo`yiladigan қabila boshliқlaridan shohlarga aylanib endilikda ular xokimiyatni o`z bolalariga meros қilib қoldiradigan bo`lganlar.
SHunday қilib Hindistonda miloddan avvalgi I ming yillikning I — yarmida tepasida shoh turadigan ko`pgina davlatlar paydo bo`ldi. Mulkiy tengzislikning kuchayishi jamoaning turli varnalarga — toifalarga bo`linishiga olib keldi.
Bular braxmanlar, koxinlar, kshatriyalar, vayshilar va shudralar edi.

Kadimgi Xindiston tarixini urganish uchun yozma manbalar kup yaratilgan bulsa-da, mamlakatning iklimidagi namgarchilik, ularni kup saklanishiga imkon bermagan. Xindlarning mashxur eposlari «Ramayana», va «Maxobxorat» dostonlari, Vedalar tuplamlari, donishmand Kautile tomonidan tuplangan «Artxashastra» tuplamida kadimgi tarix xakida kimmatli ma'lumotlar bor.

Podsho Ashoka yozuvlari (miloddan avvalgi III asr) koyatoshlarida uyib yozilgan farmonlar bulib, olib borilgan urushlar va diniy siyosat xakida ma'lumotlar beradi. Miloddan avvalgi III asrda yaratilgan «Manu konunlari» esa xujalik xayotini urganish uchun kimmatli manbadir.

Antik zamon mualliflaridan Gerodot asarlarida, Arrianning «Aleksandrning yurishlari» asarlari kimmatli manbalardir.

XX asrning 20-yillarida Xind daryosi xavzasida olib borilgan arxeologik tekshirishlar natijasida miloddan avvalgi III-II ming yilliklarga oid ilk xind stivilizastiyasi ochildi.

Xindiston kadimdan boshlab odamlarning yashashlari.uchun katta imkoniyatlarga ega bulgan. Arxeologik topilmalar Xindiston da 300—500 ming yillar, xatto undan xam ilgarirok davrdan boshlab odamlar yashaganligidan dalolat beradi. Bu erda dravidlar, oriylar, bengallar, bixarlar, gujoratlar. assomlar va boshka xalklar yashab keladilar. Miloddan avvalgi V ming yillikning oxiri — IV ming yillikdan boshlab xind daryosi vodiysida sun'iy sugorishga asoslangan dekonchilik vujudga kelgan. IV ming yillik oxirlari va III ming yillik urtalariga kelib bu joyda uziga xos eng kadimgi xind madaniyati tarkib topgan.

Dexkonchilik, xunarmandchilik, chorvachilik va savdo-sotikning rivojlanishi natijasida xind daryosi va uning Panjob viloyatida kuplab shaxar va kishloklar vujudga kelgan. Axoli orasida tabakalanish tobora kuchayib borgan. Bu esa xind daryosi xavzasida eng k.adimgi davlatlarning vujudga kelishiga shart-sharoit yaratgan. Bu davlatlarning Moxinjo-Daro, Xarappa kabi katta shaxarlari bulgan. Ularda axoli juda kalin yashagan. Moxinjo-Daro Xind daryosining urta kismida joylashgan 270 gektardan iborat shaxar bulgan. Bu erni kazigan arxeologlar kuchalar, pishik va xom gishtdan kurilgan turar joylar, saroylar, omborxonalar, ibodatxonalar va podsholar karorgoxining koldiklarini topganlar. Kuchalar tugri bulib, ularga gisht yotkiziltan. Shaxar yirik xunarmandchilik va savdo markazi bulgan. Shaxarga er ostita kumilgan maxsus sopol kuvurlar orkali suv kelgan va chikindi suvlar tashkariga chikarib yuborilgan. Badavlat kishilarning uylari, kal’a, ibodatxona va boshka binolar pishgan gishtdan 2—3 kavatli kilib kurilgan.

Xarappa shaxri Panjob viloyatida joylashgan. Arxeologlar u erdan 500 ga yakin yodgorlik topishgan. Kadimgi xarappaliklar xom va pishgan gishtlardan 2—3 kavatli binolar, podsho saroylari, ibodatxonalar va xar xil ma’muriy binolar kurganlar. Shaxar kuvurlar orkali keladigan suv bilan ta’minlangan. Ustalar pishik gishtdan suv saklash uchun maxsus xovuz va kuduklar kurganlar. Chikindi suvlar uchun kanalizastiya tizimlari xam barpo etilgan. Zargarlar tosh, mis, jez va kimmatbaxo toshlardan ajoyib zargarlik buyumlari yasaganlar. Shaxarda me’morchilik, tukimachilik, kulolchilik, toshtaroshlik, kurolsozlik ancha rivoj topgan. Xarappa va Moxinjo-Daroliklar kayiklar, sollar va xatto uncha katta bulmagan kemalar kurib, daryo xamda dengizlarda suzganlar.

Ilk kuldorlik davrida Xindiston axolisining asosiy mashguloti dexkonchnlik bulib, ular arpa, bugdoy, nuxat, paxta, sholi, kovun, shakarkamish ekkanlar. Ovchilik va termachilik asta-sekin uz axamiyatini yukota boshlagan. Daryolardan katta-kichik kanallar orkali dalalarga suv chikarilgan. Suv chikarish uchun charxpalaklardan xam foydalanilgan. Odamlar chorvachilik bilan xam shugullanib sigir, buka, buyvol, kuy, echki, eshak, chuchka bokkan. Ot va tuya Xindiston da ancha keyin, miloddan avvalgi II ming yillikning ikkinchi yarmida paydo bulgan. Ot Xivdistonga garb va shimoli-garbdan oriy kabilalari bilan birga kirib kelgan. Kadimgi xindlar fillarni xam kulga urgatib, ulardan xujalik va xarbiy maksadlarda foydalanganlar.

Miloddan avvalgi XVII—XIII asrlar orasida eng kadimgi Xindiston davlati va madaniyati inkirozga uchraydi.

Miloddan avvalgi II ming yillik urtalaridan boshlab Xind daryosi xavzasiga Eron va Turon tomondan oriy kabilalari kirib kelib joylasha boshlaydi. Ular dastlab Panjob viloyatida joylashib olganlar. Sung Gang daryosining yukori va Urta okimidagi unumdor erlarga kelib urnashganlar. Ular aslida chorvador kabilalar bulib, kuy, echki.koramol va yilki bokkanlar. Ular uzok vakt chorvachilik bilan shugullanib, keyinchalik Panjob va Gang voxalaridagi unumdor erlarda utroklashib, dexkonchilik bilan xam shugullana boshlaganlar. Miloddan avvalgi II ming yillik oxirlariga kelib xindlar temir kazib chikarish va uni ishlashni urganganlar. Shu davrdan boshlab, xindlarda ilgari ma’lum bulmagan temir kurollar ishlatila boshlangan.

**15-mavzu: Maur’yalar va Guptalar davlati.**

MAVZUGA OID TAYANCH IBORALAR, ATAMALAR.

1. Magadxaning yuksalishi.2. Maur’ya xukmronligi.3. Guptalarning xokimiyat tepasiga kelishi.4. Iskandarning Hindistonga kelishi.5. Solavkiylar davrida Hindiston.6. Ashoka davrida Hindiston.

Miloddan avvalgi VI asrgacha shimoliy Hindistonda 20 dan ortiқ mayda davlatlar bo`lgan. Ularning eng yiriklari Magadxa, Anga, SHax’ya, Kashala, Gandxar, Malla, Kashi edi.

Ular butun SHimoliy Hindistonda xukmronlik қilish uchun bir —biri bilan қonli urushlar olib borgan. Bu kurashlar natijasida Magadxa kuchayib, shoh Bimbasara (543 — 491) davrida davlat chegaralari ancha kengaydi. Uning қo`shinlari Gang daryosi del`tasiga borib, Bengal қo`ltigigacha egallagan.

Bimbasara vorislaridan Ajatashatru davriga kelib butun Gang vohasi va Mar. Hindiston markaziy davlatga birlashgan.

Bu Nand saltanatini asosi bo`lgan. Miloddan avvalgi 345 yilda Nand sulolasini asoschisi Ugrasan Magadxa shohligini engib Nand shohligini vujudga keltiradi. Lekin bu xokimiyat uzoққa cho`zilmagan. Mamalkatni bir қancha viloyatlarida tarқoқlik xukm surgan bu xolat Panjobda ancha kuchli bo`lgan, bundan foydalangan eron shohi Doro I Panjob viloyati va Hind daryosining O`rta va Қuyi oқimidagi erlarni eronga қo`shib olgan. Bu erli axoli eronga ko`p miқdorda xiroj to`lagan. Oradan xech қancha vakt o`tmay Hindistonga 120 ming kishilik қo`shin bilan Hindiқush toglaridan o`tib Panjob viloyatiga Iskandar bostirib kirdi. Bu erdagi gandxar қabilalari va Taksila shahari xokimi Iskandarga itoat etib unga қo`shiladi.

Ammo Panjobdagi kuchli shohlardan biri Por 30 ming piyoda, 4 ming otliқ, 3000 jang arava va 200 jangovor fildan iborat қo`shin bilan Iskandarga қarshi chiқdi. Por va Iskandar қo`shini o`rtasida
қattiқ jang ketdi. Nihoyat Iskandar қo`shinlari Por қo`shinlarini maglubiyaiga uchratdi. Janglarda Por 9 joyidan yaralanishiga қaramay jang maydonini tashlab ketmaydi.

Iskandar Porni mardligiga қoyil қolib uni o`z saltanati shohi қilib қoldiradi. Iskandar Gang daryosigacha bo`lgan erlarni o`zlashtirish rejasi bor edi, lekin қo`shinlari u tomonga yurishdan bosh tortishgandan keyin, uncha katta bo`lmagan қo`shinning Garbiy Hindistonga қoldirib eramizdan avvalgi 325 yilda Hindistonni tark etib Bobilga boradi. Bobilda 323 yili vafot etadi. eramizdan avvalgi 317 yili uni қoldirgan қo`shini Hindistondan jo`nab ketadi. Iskandar va uni қo`shini ketgach Hindistonliklar o`rtasida ozodlik kurashi boshlanib ketadi.

Ozodlik kurashiga mashhur hind sarkardasi CHandragupta boshchilik қilgan.

CHandragupta Nand sulolasining so`nggi namoyondasi Magadxa shohi Dxan Nanda xizmatida bo`lgan. Lekin shoh gazabiga uchrab Panjobga қochib ketgan u erda Iskandar bilan uchrashib, u Iskandarni
Gang vohasiga borishga undagan, lekin iloji bo`lmadi. Iskandar vafot etgach

CHandragupta xalқ ozodlik xarakatiga bosh bo`lgan, yunoniston қo`shinlarini Panjobdan қuvib chiқargan. Keyin Magadxaga kelib taxtni egallagan 317 — 298 yili CHandragupta Maur’ya davlatini barpo etib unda shohlik қilgan. U butun SHimoliy Hindistonni birlashtirib Maur’ya saltanatini kuchaytirgan.
305 y. Salavkiylar saltanati shohi garbiy Hindistonga bostirib kirgan ammo galaba қilaolmagan. CHandragupta va Salavka o`rtasida sulx tuzilgan. CHandragupta unga 500 ta fil in`om қilgan va қiziga uylangan. U SHarқiy eron erlarini o`z erlariga қo`shib olgan.
CHandragupta o`gli Bindusara (290 — 268) va Ashaka (268 — 231) davrida Hindiston қudratli davlatga aylandi. Hindistonni katta қismi shu davlat tarkibiga kiritildi.

**1. Qadimgi Hindistonning tabiati va aholisi.** Hindiston Osiyoning lubida joylashgan mamlakat. Uning shimol tomoni Himolay og lari- Qolgan uch tomoni esa *ffind okeani, Eriteriya dengizi* va *"en&l ko`rfazi* suvlari biian o`ralgan.

Mamlakatning markaziy qismini Dekan tog`lari egallab yotadi. _tondan *Hind, Gang, Jamna, Braxmaputra* va boshqa daryolar tadi. Mamlakat iqlimi shimoida mo`tadil, hatto tez-tez qorlar yog`ib turadi. Uning janubiga tushiJgan sari iqlim issiqlashib. chekka janubda hatto qish bo`lmaydi. Yog`ingarchilik mavsumlarida *Gang, tfind* va *Braxmaputra* sohillarida jala quyib tez-tez toshqinlar bo`lib turadi. Hindistorming o`simlik va hayvonot dunyosi boy. Hindiston odamzodning ilk vatanlaridan biri hisoblanadi. U yerda 600—500 niing yillardan beri aholi yashab keladi. Qadim zamonda bu mamlakatda *dravid, bengal, bihar, gujarat, assam* va boshqa qabilalar yashaganlar. Keyinchalik bu yerga *oriylar, shaklar, xioniy, eftoliy* kabi o`rta Osiyo va Eron qabilatari keiib joylashganlar.

2. Eng Qadimgi Hindiston jamiyati va madaniyati. Hindiston yarim orolining shimoli-g`arbidan Hind daryosi oqib o`tadi. Bu daryo sanskrit tilida Sindxu, pushtu tilida esa Abbasin — ;,daryolar otasi", — deyiladi. Bu daryoning besh irmog`i oqib o`tadigan joy *Panjob — Beshsuv* deyiladi. Hind daryosi, ayniqsa uning yuqori qismi Panjobda ibtidoiy davrdan boshlab odamlar yashab kelishgan.

1920—1922-yillarda arxeologlar Panjob va Maxenjo-Doro yodgoriigini topganlar. Tekshirishlardan bu yodgorlik Hirid sha-harlarining xarobasi bo`lib chiqdi. Moxenjo-Doro Hind daryosining o`rta qismida joylashgan bo`Iib, har biri ikki yariin kv. km joyni egaUab yotar edi. Xarappa va Moxenjo-Doro miloddan avvalgi ITI mingyillik va II mingyillikning o`rtalarida mavjud bo`lgan dav-latlarning markaziy shaharlari bolgan ekan. Bu shaharlarda aholi zich yashagan. Har ikki shahar xarobasini qazigan arxeologlar pishiq vaxorag`ishtdanqurilgan 1, 2, 3 qavatli uy-joy, ibodatxona, hukmdorlar saroyi, omborxona hamda podsho qarorgohlarining qoldiqlarini topgaiilar. Bu joylardan g`isht yotqizilgan ko`chalar, pishiq g`ishtdan qurilgan quduq va hovuzlar ham topilgan. Shahar sopol quvurlar orqali keladigan suv bilan ta'minlangan. Shaharda iflos suvlarni tashqariga chiqarib yiiboradigan yer osti qnril-ma inshootlari bo`lgan. Har ikki shaharda zargarlik, me'morchilik, to`qimachilik, kulolchilik, qurolsozlik va hunarmandchilikning boshqa sohalari rivojlangan ekan. Xarappa va moxenjo-doroliklar sol. qayiq va kemalar yasab, daryo va dengizlarda bemalol suzganlar. Har ikkj shahar ham

qaFalar, qalin, baland minorali mudofaa pevorlari bilan muhofaza qilingan. Xarappa va Moxenjo-Dorodan 'Veroglif yozuvlari va tosh tarozlari ham topilgan.

Miloddan avvalgi XVI—XIII asrlar orasida Xarappa va Moxenjo-uoro shahariari xarobazoi^a aylanib inqirozga yuz tutgan. Xarappa

Moxenjo-Doro shaharlari shimoji-g`arbiy Hindistondagi qadimgi avlatlaniing poytaxti bo`lgan bo`Isa kerak.

**3. Eng Qadimgi Hindistonniog ijtimoiy tuzumi va xo`jaligi.** Eng Qadimgi Hindiston tabaqaviy jamiyatga asosiangan quldorlik davlati edi. Eng Qadimgi Hindistondagi davlatlar podsholar tomonidan boshqarilgan. Podsholar oqsoqollar kengashi va qo`shinga tayanib ish oJib borgan. Qadimgi aholi boy-badavlat, hunarmand, mayda savdogar, o`rtahol dehqon va ziyolilardati iborat o`rta tabaqaga hamda kambag`allar, qashshoqlar va qullarga bo`lingan.

Hindistonda yashagan aholi tirikchiligining asosini dehqonchilik tashkil etgan. Dehqoniar vohadagi unumdor yeriarni o`zlashtir-ganlar. o`zlashtirilgan tekis yerlarga suv kanal va ariqlar orqali kelgan. Balandroq yerlarga esa charxparraklar orqali suv chiqarilgan. Dehqonlar dalalarga bug`doy, arpa, no`xat, sholi, shakarqamish va g`o`za ekkanlar. Hindiston g`o`za — paxtaning iik vatanidir. Ular banan, anjir, anor, qovun, o`rik, olma ekib polizchilik va bog`dor-cbilik bilan ham shug`ullanganlar. Dalalarda har turli sabzavotlar ham yetishtirilgan. Dehqonchilikda tosh, mis va jezdan qilingan qurollardan foydalanganlar. Hind vohasida, ayniqsa Panjobda sero`t yayloviar ko`p bo`lgan. Sbu bois aboli qoramol, qo`tos, zubr, qo'y, echki, cho`chqa va eshak boqib, chorvachilik bilan shu-g`ullangan. Qadimgi hindlar yowoyi fillarni qo`lga o`rgatib, ulardan xo`jalik va hartriy maqsadlarda foydalanganlar. Dehqoncbilik va chorva mahsulotlari aholini oziq-ovqat, jun, teri kabi xomashyo bilan ta^minlagan.

Eng Qadimgi Hindistonda hunarmandchilik ham rivoj topgan edi. Hind ustalari tosh, mis, jez. kumush, oltin va qimmatbaho toshlardan mehnat va jangovar quroilar, muhrlar, uy-ro'zg'or, ?.argarlik buyumlari va turli jihozlar tayyorlaganlar. U yerda to`qimachilik, kulolchilik, qayiqsoziik, hatto kemasozlik ham ancha rivoj topgan edi.

Arxeologlar Hind vohasi va Panjobning ko`p joylaridan savdo omborxonalari va do`konlarining qoJdiqlarini topganlar. U yerlardan qadoq toshlar ham topilgan. Bu, Hindistonda ichki va tashqi savdoning rivojlanganligidan daiolat beradi. Savdogarlar Eron, Turon, Xitoy, Mesopoiarniya, Arabiston va boshqa mamlakatlar bilan suv va quruqlik yo`llari orqali savdo-sotiq ishlarini olib borganlar.

Dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik va savdo-sotiq rivojlanishi, sbuningdek talonchilik urushlari natijastda ayrim ki-shilar ixtiyorida ortiqcha boylik yig`ilgan. Bu hol mulkiy tengsizlik va tabaqalanishni yanadatezlashtirgan.

**4. Eng Qadimgi Hindiston madaniyati.** Eng Qadimgi Hindiston raadaniyatining vujudga kelishi ibtidoiy jamoa tuzumi davriga borib

taqaladi. Qadimgi Hind madaniyati ular-ningxo`jaligi bilan chambarchas bog`liq bo`lgan.

Hind va Panjob viloyati eng qadimgi hind madaniyatining bcshigi hisoblanadi. Yozuv eng qadimgi hind madaniyati-ning ajralinas qismi bo`lgan.

Arxeologlar Xarappa, Moxenjo-Doro va boshqa joylardagi yodgorliklardan sopol parchalari, muhrlar sathi va toshlarga bitilgan g`alati yozuvlar topishgan. Bu yozuvlar ba'zi jihatlari bilan misr va shumeriylarning iyerogliflariga o`xshab kctadi. Qadimgi hind alifbosining 700 ga yaqin rasm-belgilardan iborat ekanligi aniqlangan. Tekshiruvchilar bu yozuvni o`qishga urinib ko`rganlar. Lekin bu urinish hozircha yaxshi nalija bergani yo'q. Qadimgi Hindistonda haykaJtaroshlik ham rivoj topgan. Bu jiliatdan Xarappa va Moxenjo-Dorodan topilgan erkak kishi, raqqosa ayol va boshqa haykallar diqqatga loyiqdir. Eng qadimgi Hindistonda rassonichilik ham rivoj topgan ekan. Hind vohasi va Panjobdagi eng qadinigi yodgorliklardan, hatto uzoq Mesopotamiyadan odam, °dam qiyofasidagi xudolar, zubr, karkidon, buqa, fil, qo`tos, shuningdek eng qadimgi rasm-belgili yozuv tushirilgan tosh fftuhrfar topilgan. Sopol va tosb muhrdagi qabartma rasm tasvidar o`sha qadimiy, ko`hna davrdagi rassomchilikning qay darajada r'vojlanganfigini ko`rsatadi.

Miloddan avvalgi TII—II mingyillikJarda Hind vohasida hisob-sananing o`nJik tizimi mavjud ekan. Bir, ikki, uch, besh, to`qqiz 3 ooshqa katia-kicbik sonlarga yonma-yon qo`yiladigan nol (0)ni, ln'ngdek birdan to`qqizgacha bo`Igan sonlar va ularning beigisini hindlar kashf etishgan. Bu ra-qamlar keyinchalik vatandoshimiz ulug` al-Xorazmiy tomonidan bi-roz isloh qilingach, arablar du-nyosiga o`tgan. Bu ikki xalq ma-daniyati mevasiningyorqinnamu-nasidir.

Eng Qadimgi Hindistonda me'-morchilik ham rlvoj topgan edi. Qadimgi hind ustalari zargarlik, naqqoshlik va tasviriy sarfatning boshqa sohalarida ham kaita yutuqiarga erishganlar. flog qa-dimgi Hindistonda alifbo, hi-sobning o`nlik tizimi mavjud bolgan. Demak u yerda matematika, geometriya, astronomiya, tabobat va boshqa ilmiy-amaliy bilimlar rivoj topgan.

Eng qadimgi hindlar o`zlariga xos madaniyat yaratib, bu bilan jahon madaniyati xazinasiga o`zlarining barakali hissalarini qo`sh-ganlar.

**1. Oriylar va ularning Hindistonga kirib kelishi.** Oriylar Eron va Turon hududida yashagan qadimgi qabilalar edi. Utarning bir qismi daryo bo`ylaridagi unumdor yerlarda yashab dehqonchilik bilan shug`ullanganlar. Oriylarning boshqa qismi esa dasht va tog` yaylovlarida yashab qoramol, qo'y, echki, ot va tuya boqib chor-vachilik bilan shug`ullanganlar. Ular Sharqdan Qadimgi Hindiston bilan chegaradosh bo`lishgan, ular bilan qo`shnichilik qilishgan. Qadirngi hindlar ularni *‚priy", ‚priya",* eroniylar esa *.fiyriya", ‚pyraj"* deb nomlaganlar. Oriy atamasining o`zbekcha tarjimasi olijanob, ulug`vor, yaxshi oiladan va aslzoda kabi ma'nolarni

Miloddan avvalgi II mingyillikning o`rtalarida oriyiarning bir qisrni Sulaymon, Hindikush va Janubiy Badaxshondan oshib o`tib, Panjob viloyatini bosib olganlar. Oriylar bilan raahalliy aholi o`rtasida shiddatli janglar bo`lgan. Bu janglar haqida *‚**Maxabxarata**" va ‚**Jtamuyana**" dosionlarida* mukaramai malumot bcriladi. Panjobga o`rnasMb olgan oriylar qoramol—sigir, buqa, bo`kiz, buzoq, qo'y, echki, ot va tuyalar boqib, asosan chorvachilik bilan shug`ullanganlar. Keyinchalik ular Gang va Jamna daiyosi bo`yidagi unumdor yerlar, hamda tog` yaylovlarini bosib olganlar. Oriylar kelgunicha Hiiidislonda 01 bo`lmagan. Ular Hindistonga o`zlaii biian ot, tuya va qoramollaniing alohida zotlarini oOb kelganlar.

Oriylar Hindistonning shimoli-g`arbiy va shimoliy viloyatlarini bosib olib, asta-sekinlik bilan mahalliy hind qabilalari bilan aralashib ketganlar. MahalHy aholi oriylardan temirchilik va temir qurollardan foydalanishni o`rganganlar. Temirdan bolta, belkurak, omoch tishlari, qurol-yarog`, aslaha va har turli buyumlar yasa-ganJar. Terair tishli omocli va boshqa temir qurollardan foydalanish dehqoncbilik va huiiarmandchilikning yanada rivojlanishiga, xo`jalikdagi boshqa tarmoqlarning ravnaq topishiga juda katta turtki bergan.

**2. Hindistonda tabaqalanishning kuchayishi**. Dehqonchiiik, hunarmandchilik. savdo-sotiq va chorvachilikjiing rivojlanishi natijasida tabaqalanish yanada kuchaygan. Aholi orasidagi meh-natkashlarning rnehnati evaziga boytb keigan jamoa oqsoqollari — rojalar. ruhoniylar va sarkardalar ajralib chiqqanlar. Dehqonlar, liLinarrnandlar, oddiy chorvador va savdogarlar aholining o`rta tabaqasini tashkil etganlar. Aholi orasida kambag`allar ham ko`p bo`lgan. Urushda asir tushgan begonalar va boylardan qarzdor bolib qolgan hindlar qullarga aylantirilgan. Uiar qullami *,fagona* ",. *,,dushman",* deb atashar edi. Rojalar, lashkarboshilar va ru-honiyiar oddiy kishilarva qullarni uylari, dalalari, ustaxonalarida ishlatib, cliorvalarini boqtirganlar. Oddiy kishilar va qulJar melmati evaziga boyib olgan oqsoqollar. lashkarboshilar va ruhoniylar asta-sekin quldorlarga aylana borganlar. Qulfar va oddiy kishilarni itoalda saqlash uchun roja, lashkarboshi va mlioniylar ixtiyorida qurol-langan jangchilar. nazoratchilar. soliq yig`uvchilar. soqchilar va xizinatchilari bo`lgan. Aslzodalar tomonidan gunohkor deb hisoblangan oddiy kishilar va qullar shafqatsiz sudya — qozilar tomonidan qattiq jazolangan.

*Rojalar. lashkarboshilar, ruhoniylarga xizmat qiluvchi saqchi, nazoratchi, qurolli jangchi, soliq yig`uvchi, qamoqxona, sudya — qoiilar jamiyalm boshqaruvchi tashkilot — davlat tizirni edi.*

Rojalar saylab qo`yilgan qabila oqsoqollari, rahbarlaridan asta sekinlik bilan hokimlar va podsholarga aylana borganlar. Endilikda ular faqat o`z mol-mulklarinigina emas, balki hokimiyatni, podsholikni ham bolalari va aka-ukalariga meros qilib qoldiradigan bo`lganlar.

Shunday qilib, miloddan avvalgi I mingyillik boshlarida Hindistond~a podsho boshqaradigan davlatlar qaytadan tashkil topgan.

**3. Shimoliy Hindistondagi dastlabki davlatlar.** Miloddan avvalgi IX—VI asrlarda Gang vohasi va Shimoliy Hindistonda xo`jalik asta-sekinlik bilan rivqjlana borgan. Xo`jalikni boshqarish, aholi orasida tartib-qoidalarni saqlash va u yoki bu viloyatni tashqi dushmanlar hujiunlaridan saqlash uchun davlat zarur edi. Bugina emas boyba-davlat kishilar uchun ham podsholik. ham daviat zarur edi. Ular: **,.Agar podsho, davlat himuya qUmasa, badavlat kishilar o`lim va quvg`inlikka mahkum bo`ladilar",—** der edilar.

Miloddan avvalgi VI asrga kelib Gang —Jamna vohasi va Shimoliy Hlndistonda 20 dan ortiq katta-kichik davlatlar bo`lib, ularning yiriklari Kambodja, Koshala. Kashi, Magadxa, Anga, Shakya Gandxar, Malla va boshqalar edi.

Miloddan avvalgi VI—V asrlarda Shimoliy Hindistonda hukm-ronlikni qo`lga olish uchun yuqoridagi davlatlar o`rtasida shiddatli janglar bo`lib o`tgan. Podsho Bimbasara (543—491) davrida Ma-gadxa kuchayib, uning qo`shinlari

Gang vohasidan Bengal qo'l-tigligacha bo`Igan yerlanii bosib olganlar. Bimbasara vorislaridan Ajatashtru davrida bulun Gang vohasi va Markaziy Hindistonda yirik davlat tashkil topadi.

Miloddan avvalgi 345- yili aholining quyi tabaqasiga mansub bo`lgan **UgrasenNand** Magadxa podshosmi yengib taxtni egallaydi. U qudratli ***Nand podsholigiga*** asos soladi. Ugrasen davrida Shimoliy, Markaziy va hatto Janubiy Hindistonning katta qisrni Nandlar davlati larkibiga qcrshib olinadi. Nand Hindistondagi qudratli davlatga aylanib bu davrda xo`jaltk va madaniyat har tomonlama rivoj topadi.

Miloddan avvalgi Vf—IV asrlarda Hind vodiysi va Panjob viloyatida ham ko`pgina mayda davlatlar bo`lgan. Bu davlatlarning aksariyati Doro I davrida Eronga tobe bo`lib, ko`p miqdorda xiroj to`Iab turganlar.

**4. Iskandarning Hindistondagi istilolari.** Miloddan avvalgi 329— 327-yillarda Makedoniya podshosi Iskandar Zulqarnayn Turon-dagi istilolardan so`ng, 120 ming kishilik qolshin bilan Hindikusb va Sulaymon togMaridan oshib o`tib, Panjob viloyatiga bostirib kiradi. Panjobdagi mayda davlatlarning ko`pchiligi Iskandarga itoat etadilar. Ammo Panjobdagi eng kuchli podsholardan biri Por Iskandarga qarshi kurashga otlanadi. Por ixtiyoridd 30 ming piyoda,

4 ming otliq askar, 3000 jang arava va 200 jangovar fil mingan Jangchilar bor edi. Ikki shoh askarlari o`rtasida shiddatli jang boshlanadi. Porning o`zi jangovar fili ustida dushmanlar bilan qahramonlarcha kurashib 9 joyidan yarador bo`ladi. Janglarning birida uning ikki o`g`li halok bo`ladi. Ammo u shunga qaramay urush maydonini, askarlarini tark elmay, jangni davom ettiradi. Urush Tskandar qolshiniarining g`alabasi bilan lugaydi. Por bilan bo`lgan urushlarda Iskandar kokp askarlaridan ayrildi. Iskandarning sevimli jangovar oti *Buisefa/* janglarning birida tig` tegib halok bo`lgan. Iskandar halok bo`lgan oti sharafiga Hind daryosi bo`yida Butsefaliya shahrini qurdirgan. Iskandar Porning jangdagi qahramonligi va irodasiga tan bcrib, uni o`z saltanati podshosi qilib qoldiradi. Tskandarning Gang vohasiga bostirib kirish niyati ham bor edi. Xuddi shu davrda Iskandar qo`shinlari o`rtasida kasaliik tarqalib, uning sarkardalari Gang tomon yurishdan bosh tortadilar.

Tkkinchidan Gang darjrosining chap sohilida qudratli Nand davlatining 200 ming piyoda, 80 ming otliq, 8 ming jang aravali va 6 ming jangovar fil mingan suvoriydan iborat katta qoLshini iurardi. Iskandar Nandlarning qudratli qo`shinini yengishga ko`zi yetmay Gang tomon yurisbm qoldirishga majbur bo`ladi. Tskandar Hind va Panjobda ozroq qolshin qoldirib, miloddan avvalgi 325-yili Hindistonni tark etib, Bobilga qaytadi. U Bobilni o`z saltanatining markaziga aylantiradi. Ammo u 12 yil kurashib, jang qilib qo`lga kiritgan ulkan saltanatini 2—2,5 yilgina boshqaradi-yu, miloddan avvalgi 323- yilda og`ir betoblik va zaharlanishdan vafot etadi. U endigina 34 yoshga qadam qo`ygan edi.

## 16-mavzu: Қadimgi Xitoy, SHan’-In’ va CHjou davrida.

MAVZUGA OID TAYANCH IBORALAR, ATAMALAR.

1. SHan’ davlati.2. «Қuduқ tartibi».3. CHjou davri.4. Gunlar.

5. SHan’ shohligida hunarmandchilik.6. In’ shohligi.

Xitoy Markaziy va SHarқiy Osiyodagi eng қadimgi mamlakatlardan biridir. Xitoy deb ataladigan mamlakatni xitoyliklarning o`zlari goh CHjuna Go, goh CHjunxva yoki TSin’, nemislar Xina, frantsuzlar SHin, inglizlar CHayna, SHarқ xalқlari CHin deb nom berganlar.

Xitoy garbda Pomir, Tangritog, shimolda Mo`guliston, janubda Ximolay va sharқda Tinch okeani bilan chegaradosh. Xitoyda ikki daryo Xuanxe (sariқ daryo) va YAntszi daryolari SHarқiy Xitoy pastekisliklari orқali oқib o`tib, Tinch okeani havzasidagi dengizlarga қuyiladi.

Xitoyning sharқiy қismida yomgir ko`p yogadi. Markaziy va garbiy viloyatlarda yogingarchilik kamyogadi. YOgingar — chilik davrida Xuanxe daryosi toshib ko`p қishloқlar ekinzorlar va o`tloқlar suv ostida қolib ketar edi.

SHuning uchun xitoyliklar bu daryoni «Tentak daryo», «Xitoyning sho`ri», «Ming xil kulfat keltiradigan daryo» deb atagan.

Xuanxe sohillari mayda sariқ қumga o`xshash tuproқdan iborat. Bu tuproқ juda unumdor bo`lgan, YAntszi daryosi sohillari ham unumdor bo`lgan.

Xitoy tabiati yashash uchun қulay bo`lganligi uchun bu erda odamlar juda қadim zamonlardan boshlab yashay boshlagan. Xitoyda bundan 600 — 400 ming yillar ilgari yashagan sinantrop va lantyan’ odamlari yashagan makon va қoldiқlar topilgan.

Asl Xitoyliklar Xuanxe daryosining o`rta oқimida yashagan, keyinchalik daryo boshi va etagiga kelib borganlar.

Eramizdan avvalgi I—ming yillarda va yangi era boshla —ridan ularni asosiy territoriyasidani tashқari ko`chib borib joylashish keng tus olgan.

Bu ko`chishlar vaқtida xitoylar shimoliy — sharқda manjur—tungus қabilalari, shimoliy —garbda va garbda turk va mo`gil, janubiy — garbda sintibet қabilalari bilan goh dushmanlik munosabatda, goh do`stona munosabatda bo`lgan. Xitoylar ko`p asrlar davomida xorijiy xalқlardan syun —nu degan xalқlarga қarshi kurash olib borganligi haқida ma`lumotlar beriladi. Keyinchalik ular (eramizdan avvalgi IV asrda) Evropaga ham etib kelganlar va ularni nomlarini o`zgartirib gunlar deb ataganlar.

Arxeologik ma`lumotlarga ko`ra xitoyda odamlar қadimgi tosh davridayoқ yashaganlar. Hozirgi Pekin yaқinidan sinantrop topilgan. Paleolit davriga oid ko`pgina қurol —aslahalar topilgan. Xitoyning ko`p erida (Xenanda) ancha keyingi neolit davriga oid manzillar bo`lganligi aniқlangan.

Miloddan avvalgi III —ming yillikda Xitoydagi қabilalar tarқoқ xolda yashagan. Miloddan avvalgi II ming yillikni boshlariga kelib ayrim қabilalarni birlashuvi boshlangan. Sya xonadoniga mansub kishilar SHarқiy Xitoyda dastlabki davlat birlashmasiga asos solgan. Bu sulola shohlari ko`p қabilalarni o`ziga bo`ysundirgan, sulolaning so`ngi shohi boshқa қabilalar ustidan zulmni kuchaytirgan. Xuanxe қirgoқlarida yashovchi SHan қabilasining boshligi (CHen Tan) bosh ko`tarib uni taxtdan agdarib tashlagan.

SHu tariқa SHan қabilasi kuchayib, Sya қabilasini ham o`ziga itoat қildirgan. Bu davlat CHen Tan rahbarligida SHan davlati deb atalgan, keyingi manbalarda In’ ham deb yuritilgan.

SHan shohligini er. av. XVIII — XII asrdagi iқtisodiga tegishli bo`lgan ma`lumotlarni o`sha davr moddiy madaniyat yodgorliklari va Xenanlarni fol` ochadigan suyaklarga yozilgan kichkina yozuvlar orқali bilib olamiz.

In’ shohligi davrida xo`jalik ilgargiga қaraganda ancha rivojlandi. Dastlabki vaқtlarda mehnat va jangavor қurolllar tosh, suyak, yogochdan ishlangan. Bir oz keyin esa mis va jezdan ham o`roқ, pichoқ, bigiz, bolta va boshқa қurollar ishlangan va ishlatilgan.

Mehnat қurollarni takomillashuvi natijasida dehқonchilik ham rivoj topdi, odamlar kanal, to`gon, suv ombor kabi sugorish inshootlari қurishga kirishganlar.

Xitoyliklarda faқatgina muvaffaқiyatli ov to`grisida emas balki, xosil yigish to`grisida ham fol’ ochganlar.

Bu davrga mansub eng қadimgi yozuv alomatlari orasida paykallarga bo`lingan dala sxemasi va sugorish kanallarining sur`atlari ham bo`lgan.

Tariқ, arpa, bugdoy ekkan. Tut daraxtlari o`stirishga aloxida e`tibor berilgan. Bu daraxt «Old Osiyoda bo`lgani kabi» mevasi uchun emas balki ipak қurtlariga ozuқa uchun қadrlangan. Bu zamonda ipak gazlama SHarқiy Xitoyda keng tarқalgan.

Xo`kiz (boshқa SHarқ mamlakatlaridagi kabi) asosiy ish xayvoni bo`lgan, ularni jang aravalariga va ro`zgordagi aravalarga қo`shganlar.

CHorvachilik u davrda hozirgi Xitoydagidan ko`ra ancha yuksak rivoj topgan. Hozirgi vaқtda aholi juda zich joylashganligidan yaylov etishmaydi.

SHan (In’) zamonining xujjatlarida necha yuzlab xo`kiz va қo`ylarning xudo yo`liga қurbonliklar Қilinganligi aytilgan. echki va cho`chқa ham boқilgan.

SHan (In’) shohligida kasb —hunar yuksak darajaga etgan. Bu shohlik poytaxtining (bu ham SHan deb atalgan) xarobalaridan қuyuvchilik ustaxonasining қoldiқlari topilgan, ustaxonada bronza buyumlar va toshқol (shlak) gina emas, birga қuyish қoliplari ham saқlangan.

Kulolchilik juda takomillashtirilgan, oқ gil (kaolina) ishlatish ayniқsa rivojlangan. Қo`l charxi ishlatilgan, yogoch materiallardan keng foydalanganlar, yogochdan uylar, xatto қasrlar ham қurganlar.

Hunar kasbning dehқonchilikdan ajralishi ayriboshlashning taraққiy қilishiga sabab bo`lgan.

Aloxida chiganoқlar (kaurlar) қiymat o`lchovi bo`lib xizmat қilgan. SHarқiy Osiyodagi turli mamlakatlar bilan, xususan YAntszi havzasi bilan savdo aloқalari boshlangan. (u vaқtda YAntszi havzasi Xitoy tarkibida bo`lmagan). YAntszi havzasidan mis va қalay keltirilgan. Xuanxe havzasining shimol va garb tomonidagi toglik joylardan va dashtlardan chorva, teri, mo`yna va tosh (yashma, nefrit) olib kelingan. Ular evaziga bu joylarga kelgan xitoy hunarmandlarining buyumlari Enisey қirgoқlarigacha etib borgan.

Ishlab chigaruvchi kuchlarning rivojlanishi ichki va tashқi ayriboshlashning kuchayishi muқarrar ravishda mulkiy tengsizlikka olib kelgan. Қazilmalar natijasida boylarning uylari, maқbaralari bilan bir қatorda kambagallarning kulbalari va қabrlari ham chiққan. Ba`zi ierogliflar қurollarni (қo`llari boglangan asirlar va uy cho`rilarini) bildirgan.

Zotan, juda ilk va ibtidoiy bosқichdagi қuldorlik bo`lgan. Қullarni қurbon қilish odati (fol` ochishda yoki xukmdorlarni ko`mishda) қullar mehnatiga talab oz bo`lganligidan dalolat beradi. ekiladigan erlar jamoa ixtiyorida bo`lgan.
«Қuduқ tartibi» mavjud bo`lgan. Bu tartib shundan iboratki, қishloққa қarashli xudud to`ққiz қismga bo`lingan. (bu bo`linish sxemasi қuduқni bildirgan, ieroglifga o`xshagani uchun «қuduқ tartibi» deb ataganlar). O`sha to`ққiztaning sakkiztasi oilalarga chek er қilib bo`lib berilgan, to`ққizinchisi (markaziy uchastka)ni hamma қo`shilib
ishlagan va unigng hosili umumiy ehtiyojlarga sarf қilish uchun oқsoқolga berilgan, keyin uni shohlar o`z foydalariga oladigan bo`ldi.
In’ shohligi atrofida juda ko`p қabilalar yashar edi. Ulardan biri Xuanxe irmogi Vit daryosi bo`ylarida yashovchi jangovor chjou қabilalaridir. Ular asosan chorvachilik, dehқonchilik va hunarmandchilik bilan shugullanganlar.
In’ davlati kuchsizlangach, chjou қabilalari In’ davlatiga tez—tez taxdid solib turganlar. CHjou қo`shinlari In’ shohligining shaxar va қishloқlarini talab қaytganlar.
Miloddan avvalgi 1027 yilda chjou қabilalari U Van boshchiligida In’ davlatiga bostirib kirib, қonli janglardan so`ng SHou Sin’ қo`shinlarini tor — mor keltirgan. Bu maglubiyatdan so`ng In’ davlati asta — sekin kuchsizlanib emirilgan va қulagan. CHjou қabilalarining zarbasi ostida In’ davlati қulagach, uning o`rniga CHjou shohligi tarkib topdi. Bu shohlik Xitoy tarixida Garbiy va SHarқiy CHjou shohliklari davriga bo`linadi. Garbiy CHjou davri miloddan avvalgi XII — VIII asrlarni, SHarқiy CHjou davri esa
VIII — IIIasrlarni o`z ichiga oladi. Garbiy CHjou davlatining chegarasi Vey daryosi boshidan sharқda Sariқ dengizgacha davom etib, uning poytaxti Xao shahrida edi.
Miloddan avvalgi VIII asrdan boshlanib SHarқiy CHjou davri boshlangach, poytaxt Loyanga ko`chirilgan.
CHjou shohligi davrida қulchilik yanada rivojlandi. Garbiy CHjou shohligi xukmdorlari davrida ular atrofdagi қator қabilalar, xususan junlar bilan urush olib borganlar. In’ davlati shohligini bosib olgan chjou қabilalari in’lar қo`lga kiritgan xo`jalik, harbiy va moddiy madaniyat soxasida erishgan yutuқlarini o`zlashtiriganlar.
Bu davrda chjouliklar jez nimaligini bilmas edi. CHjouliklar inliklardan otga қo`shilgan arava yasashni va ulardan foydalanishni o`zlashtirganlar. Bu jang arvasi o`sha davr uchun қo`shinda eng asosiy xujum қiluvchi kuch edi. Jang aravasida xaydovchi, kamonboz va nayzabardordan iborat uch kishi bo`lgan.
Demak, bu davrda Xitoy қo`shinlarning asosini Jangovor arava, otliқ қo`shin va piyodalar tashkil etgan. In’ shohligi bosib olingach, erlar shoh қarindoshlari, lashkarboshilar va nufuzli amaldorlarga bo`lib berilgan. Ular o`z mulklarining shohlariga aylandilar. Bu xol markaziy shoh xokimiyatining kuchsizlanishiga olib kelgan. Bundan foydalangan қo`shni jangovor қabilalar chjouliklar ustiga bosқinchilik urushlarini uyushtirganlar.
Miloddan avvalgi VIII asr boshlaridan boshlab CHjoudan shimoliy — garbda yashagan junlar shohlikka tez —tez xujumlar қila boshlaganlar. CHjou shohi YU

—Van davrida (781—771) ko`chmanchi junlar bilan bir necha janglar bo`lib o`tgan. Miloddan avvalgi 770 —yili shohlik poytaxti Xaodan Loyanga ko`chirilgan. SHundan keyin SHarқiy CHjou shohligi davri boshlangan. SHarқiy CHjou shohligi Xuanxe daryosidan shimolda yashagan ko`chmanchi қabilalar bilan қattiқ urushlar olib borgan.

SHarқiy CHjou xukmdorlaridan biri Syan —Van ko`chmanchilardan maglubiyatga uchrab, Loyanni tashlab chiқib ketishga majbur bo`lgan.

Miloddan avvalgi VII —IV asrlarda SHarқiy CHjou shohligida xukmronlikni қo`lga kiritish uchun TSi, TSzin', U, CHu, YUz kabi mayda shohliklar o`rtasida o`zaro kurashlar davom etgan. Bu davr Xitoyda bosh xokim davri deb atalgan. Қonli kurashlar natijasida gox TSzin', goh U, goh YUz shohliklarining қo`llari baland kelgan.

